

I- bob

Mister Jounz qorong'i tushib qolganligi uchun tovuqxonaning eshigini berkitdi. Lekin tovuqlar katagining orqa tomonidagi teshiklarni berkitish uning xayolidan ko'tarildi. Fermaning etak tomonidan qaytayotgan mister Jounzning qo'lida fonar bor edi. Undan taralayotgan nur ferma hovlisi bo'ylab o'ynardi. Kayfi oshib qolgan mister Jounz ferma maydonini gandraqlagan holda kesib o'tdi-da, omborxonaning orqa eshigidan kirib, oyog'idagi etiklarini uloktirib yubordi. Krujkani qo'lga olib, bochkadagi pivoga botirdi va to'g'ridagi kushetkaga - qattiq xurrak otib uxlayotgan missis Jounzning yoniga borib yonboshladi. Mister Jounz yotadigan uyning derazalaridan nur to'shayotganini ko'rgan hayvonlar yelkalarini silkitib qo'ydilar, qushlar esa qanotlarini qokdilar. Kunduz kuni ferma hayvonlari orasida bir xabar tarqalgan edi. Qari mayor To'ng'iz o'tgan kuni ko'rgan ajoyib va g'aroyib tushini hikoya qilib bermokchi emish. Shuning uchun ham hayvonlar qorong'i tushishini orziqib ko'tardilar. Mister Jounz uxlagani kirib ketganidan so'ng hamma hayvonlar og'ilxonada uchrashishga kelishib olgan edilar. Fermadagi hayvonlar orasida qarib qolgan mayor To'ng'izning hurmati juda baland bo'lib, hayvonlar uning hikoyasini tinglash uchun hatto uyqularidan ham voz kechishga rozi bo'ldilar. Keksa mayor bir vaqtlar tanlovga qatnashib, yuqori o'rinni olgan edi. Muskullari bo'rtib chiqqan, juda kuchli va baquvvat edi. Shuning uchun ham g'oliblikni qo'lga kiritib mukofotlangandi. Hozir to'singa osilgan chirok ostidagi qalin poxol to'shalgan supachada yotardi. To'ng'iz o'n ikki yoshga kirgan bo'lib, semizligidan qorni osilib ketgandi. Lekin o'ziga juda bino qo'yardi, o'zini dono hisoblardi, hayvonlarga esa muruvvatli ekanligini ko'rsatib qo'yishni hamisha yoqtirardi.

Qari mayorning atrofiga fermadagi hamma hayvonlar yig'ila boshlashdi. Ular og'ilxonaga kirib kelib bir silkinishar, so'ngra junlarini hurpaytirib, bag'irlarini yerga berib yotib olishardi. Hayvonlar yotadigan katta og'ilxonaga birinchi bo'lib yetib kelgan Blubel, Jesiy, Pinchir deb nomlangan itlar mayor yotgan supaning old tomoniga kelib, oyoqlarining ustiga boshlarini qo'ygan holda yotib, munchokday ko'zlarini qari mayorga tikdilar. Tovular qo'nokqa chiqdilar, kaptarlar uchib borib havozaga qo'ndilar. Qo'y va sigirlar To'ng'izning orqasiga o'tib, yonboshlab olib kovush qaytara boshlashdi. Shundan so'ng aravaga qo'shiladigan otlar-Bokser va Klovir kirib kelishdi. Ular poxollar orasidagi mayda hashoratlarni tuyoqlari bilan ezib olmaslik uchun ehtiyotkorlik bilan qadam bosishardi. Klover yoshi o'tgan bo'lishiga qaramay nihoyatda kelishgan edi. Bolalariga mehribon, rahmdil va baxtli ona bo'lganligi shundokqina sezilib turardi. Uning qomati to'rt marta qulunlaganidan keyin ham o'z ko'rkini yo'qotmagandi. Bokser Klovirdan 18 qo'l katta bo'lib, juda baquvvat, quvvati ikki ot kuchiga teng bo'lib, o'ziga ishongan, hech narsadan qo'rqmaydigan botir ot edi. Burnining ustiga osilib tushgan uzun yollari yuziga anqovlik tusini berib turardi. Aslida u haqiqatan ham tentakrok edi. Shunga qaramasdan, irodasi mustahkam bo'lib, kattiyatli va bir so'zli, keskir hayvonlardan edi. Fermadagi hayvonlar uni hurmat qilishardi. Hatto ba'zi hayvonlar undan hayiqib ham turardilar.

Otlardan keyin Myurill ismli ok echki va Benyamin deb ataluvchi eshak kirib keldi. Benyaminning yoshi anchagina o'tib qolgan bo'lib, hayvonlar fermasida ko'p yillardan beri yashardi. Bugun kayfiyati unchalik yaxshi emas edi. Odatda u nihoyatda kamgap bo'lib, hamisha nimadandir achchig'lanib yurardi. Atrofidagilar bilan beodoblik bilan gaplashar, sharmu hayosiz so'zlarni juda ko'p ishlatardi. O'ta befarosat va dangasa edi. Hatto pashshalarini qo'rish uchun dumini ishlatishga ham erinardi. Dumli hayvonlardan ko'ra dumsiz hayvonlarning afzalligi haqida gapirishni xush ko'rardi. Fermadagi hayvonlar uning qo'lganini biror marta ham ko'rishmagandi. "Fermada hayvonlar orasida ko'ngilni yozadigan biror narsaga duch kelmayman",- derdi. O'zini Bokserning mulki deb hisoblardi, lekin bu hakda aslo gapirmasdi. Ikkalalari haftaning yakshanba kunlari mevazorning orqasidagi ochiq maydonda sayr qilishardi. Ba'zan ular bir-birlariga tegib ketishardi, lekin shunday paytlarda ham bir-birlariga churq etishmasdi Ikkala ot, Myurill va Benyamin, joylashib bo'lishganidan keyin og'ilxonaga onalarini yo'qotib qo'ygan bir gala o'rdak bolalari kirib kelishdi. O'rdak bolalari kuchliroq hayvonlarga yem bo'lmaslik uchun chiy-chiyilashib o'zlariga boshpana izlardilar. Onalik mehri jo'shib ketgan Klovir ko'zlarini jovdiratib turgan o'rdak bolalarini chaqirib, oyoqlari bilan o'rab oldi. Behavotir joy topganlaridan xursand bo'lgan o'rdak bolalari otning issiq boldirlariga boshlarini qo'yib uyquga ketishdi. Jounzning aravasiga qo'shiladigan chiroyli, lekin fahm-farosati kamrok Moliyy ismli ot og'zidagi ok qandlarini qusurlatib kovshangan holda irg'ishlab kirib keldi-yu supaning eng oldingi qatoridan joy topib o'tirdi. Boshqa hayvonlarning diqqatini boshidagi yollariga taqib olgan qizil lentaga tortish uchun boshini kibor bilan silkitib, chiroyli mayin kokillariini yuziga tushirdi. Eng so'nggi daqiqalarda o'ziga issiqqina joy izlagan mushuk kirib keldi. Yig'ilgan hayvonlarga bir-bir qarab chiqib, Bokser va Klovirlar orasiga suqildi. Shirin uyqusini mayorning tovushi buzolmaydigan joy topganligidan mamnun bo'lib, miyovlab qo'ydi.

II- bob

Hamma to'plangan, faqat Muso ismli qora qarg'agina ko'rinmasdi. U orqa eshikning tepasidan chiqib turgan to'singa qo'nganicha uxlab qolgan edi. Musoning ko'zlarini yumib olib uxlayotganligi uzoqdan sezilmasdi. Qari mayor unga sinchiklab qaradi va juda qulay joyga qo'nib olib, hikoyamni tinglash uchun butun vujudi bilan berilib turibdi deb, tomog'ini qirib turib, so'z boshladi: - O'rtoqlar, kechagi tunda ajoyib va g'aroyib tush ko'rganligim haqidagi xabar allaqachon orangizda tarqalib bo'lgan. Lekin men ko'rgan tushim haqida keyinroq so'zlamokchiman. Avval meni o'ylantirib yurgan ayrim fikrlarni sizlarga aytib beray: O'rtoqlar, men ko'p gapirmokchi emasman. Men juda uzoq yashadim. Og'ilxonada yolg'iz qolgan paytlarimda ko'rgan-kechirgan voqealarimni sarhisob qilish uchun vaqtim yetarli bo'ldi. Nazarimda, yorug' olamda yashashning maqsadu mohiyatini va ahamiyatini boshqa hayvonlarga qaraganda yaxshiroq tushunaman desam xato bo'lmas. Shu sababli ham meni o'ylantirgan muammolar haqida sizlarga gapirib berishni muqaddas burchim deb hisoblayman. O'rtoqlar, turmushimizning qiyinligi haqida biror marta o'ylab ko'rganmisizlar? Menimcha, yo'q! O'rtoqlar, haqiqatdan hech qachon qochib bo'lmaydi. Bor haqiqatni ko'zingizga tik qarab turib aytishim kerak. Bizga tabiat tomonidan berilgan qisqagina umrimiz mehnat va mashaqqatlarga to'la ekanligi haqida hech o'ylanganmisiz? Qashshoklik bilan yashashimizning sabablari Sizlarni biror marta qiziqtirganmi? Baxtga to'liq bo'lgan farovon to'kin-sochin hayot haqida esa gapirmasam ham bo'ladi. Umrim davomida qornimiz to'yib ovqat yeganimizni aslo eslayolmayman. O'rtoqlar, bo'sh qop tikka turmasligini yaxshi bilasizlar. Oyoqda tik turishimiz va ochimizdan o'lib qolmasligimiz uchungina odamlar ovqat berishib kelishdi. Holbuki, biz ertadan kechgacha tinim bilmay ishlaymiz. Ayniqsa, kuchli hayvonlarni ishga yaroksiz bo'lib qolgunlaricha ayovsizlik bilan ishlatishadi. Kuch-quvvatlarini zulukday so'rib olishadi. Angliyada yashovchi hayvonlar umr bo'yi to'kin-sochin, farovon va baxtli hayot hamda dam olish nima ekanligini bilishmaydi. Aqllarini tanibdiki, mehnatdan boshlari chiqmaydi. Faqat, bolalikning qisqagina davrlaridagina o'ynab-qo'ladilar. Keyin esa mashaqqatli mehnat va hayvon jismini kemiruvchi g'amlardan boshlari chiqmaydi. Angliya hayvonlarining hak-huquqlari o'z qo'llarida emas. Ular erksizlik va qullikka mahqum etilgan. Ha, bu ko'z bilan ko'rib turgan aniq, rad etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Xo'sh, bu tabiatning adolatli qonunimi yoki Angliya mamlakati nihoyatda qashshok bo'lganligi sababli ham o'zining hayvonlarini

bokib ololmayotganligidanmi? Yo'q, o'rtoqlar! Ming marotaba yo'q, o'rtoqlar! Angliyaning yerlari unumdor va serhosildir. Obi havosi esa mo'l hosil olish uchun juda qulay. Ona yerimiz o'z zaminida yashayotgan hamma hayvonlarning qorinlarini to'ydirishga qudrati yetadi. Yerdan olinadigan hosilimiz turmushimizning serobgarchiligi va mo'l-ko'lchiligi uchun yetarli bo'ladi. Faqat biz yashayotgan ferma yerlarining o'zi 12 ot, 20 ta sigir va 400 lab qo'yni boka oladi. Ular ferma yerlaridan olinadigan hosil evaziga jannatda yashaganday yashaydilar. O'rtoqlar, biz orzu qilayotgan to'kin-sochin, farovon va ozod hayot shak-shubhasiz bizga nasib qiladi. Shunday ekan, nima uchun biz mehnat va mashaqqatlar ichida qornimiz to'ymasdan yashashimiz kerak?! Biz mehnat qilib yetishtirgan mahsulotning ko'p qismini odamlar qo'limizdan tortib olishmokka. Meni o'ylantirib yurgan hamma muammolarning javobi, o'rtoqlar, shu masalaga borib taqaladi. Anglayapsizlarmi, o'rtoqlar, insonlar bizlarning ashaddiy dushmanlarimizdir. Agar hayot sahnasidan odamlarni ko'tarib tashlasak, ochlikning ham, xo'rlikning ham, ish vaqtdan tashqari majbur qilib qilinadigan qo'shimcha mehnatlarning ham ildizlari abadul-abadga qirg'iladi. Inson mahsulot bermaydigan yagona mahluqdir. U sut ham bermaydi, tuxum ham tug'maydi, fermaning yer maydonlarini shudgorlashda omoch tortishga ham yaramaydi. U juda ojiz va notovon. hattoki, tez yugurib quyonna tutib olishga ham qodir emas. Lekin. o'rtoqlar, inson hamma hayvonlarga hukmini o'tkaza oladi. Hayvonlarni ayovsiz ishlatib, ochlaridan o'lib qolmasliklari uchungina ovqat berishadi. Oziq-ovqatning ko'p qismini esa o'zlari uchun sarflashadi. Bizning kuchimiz va mehnatimiz bilan yer haydaydilar, go'ngimiz bilan yerlarni o'g'itlaydilar. Lekin biz-chi, biz, hayvonlar, suyagimizga yopishib ketgan teridan boshqa hech narsaga ega bo'lmaymiz.

Oldimda tikka turgan holda ko'zlarini menga tikib turgan sigirlar, o'tgan yili necha galling sut berganingizni bilasizmi?! Buzoqlaringizning sog'lom va salomat o'sishlari uchun kerak bo'ladigan ona sutlari qayerga ketdi ekan?! Bu sutlar oxirgi tomchisiga qadar ashaddiy dushmanimiz bo'lgan odamlarning tomog'laridan o'tib, jig'ildonlariga tushib ketganSiz-chi, tovuqlar, o'tgan yili qancha tuxum tuqqanligingizdan xabardormisiz?! Tuxumlarning qanchasidan jo'ja ochdingiz, bilasizmi? Yo'q, bilmaysiz! Hammasi bozorga olib chiqilgan, Jounz va uning xizmatkorlarining cho'ntaqlarini qappaytirish uchun sotib yuborilgan. Siz, Klovir, tuqqan qulunlaringizning qayerda ekanligi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Yo'q, o'ylashni xayolingizga ham keltirmagansiz. Axir qarigan paytingizda joningizga aro kiradigan, boshingizga og'ir ish tushganda yengillatadigan, yuragingizga madad beradigan, og'ir ishlaringizga yelka tiraydigan toylokchalar qani?! Ularning qayerdaligini Siz aslo bilmaysiz. Afsus bilmaysiz. Ular yoshiga kirishi bilan sotib yuborilgan. Siz ularni endi hech qachon ko'ra olmaysiz. Hayvonlar qul kabi ishlatilayotgan yerlarga ega bo'lish uchun bolalaringiz almashtirib yuborilgan. Qancha ko'p ishlasangiz ham qorningiz hech qachon ovqatga to'ymaydi. Qarang, poxol to'shalgan supangizdan boshqa hech vaqongiz yo'q. Hattoki hayvonlarning umri ham baxtsizlik va fojea bilan tugaydi. O'rtoqlar, biz hayotning issiq-sovug'ini boshimizdan o'tkazib, so'ngra qarib-chirib o'z ajalimiz bilan o'lmaymiz. Men o'zim uchun kuyunayotganim yo'qMen omadi chopgan hayvonlardan biriman. 12 yil yashab, 400 dan ortiq bola ko'rdim. Bilasiz, cho'chqalar uchun ko'pbolalilik tabiiy hol hisoblanadi. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nima uchun fermadagi har bir hayvon qassob pichog'i ostida jon taslim qiladi, umri rahmsizlik bilan muddatidan oldin tugatiladi. Ro'paramda o'tirishgan norasida cho'chqa bolalarining har biri jallod kundasi ustida jon taslim qilib hayot bilan vidolashadilar. Jon talvalasasidagi dahshatli o'lim qichqirig'i hammamizning boshimizda bor. Sigirlar, qo'ylar, hattoki otlar va itlar ham bunday taqdirdan qochib qutula olmaydilar. Bokser, kuchingiz ketib munkillab qolganingizda Jounz sizni arzimagan pul evaziga hayvonlar uchun qonserva tayyorlaydigan korxonaga sotib yuboradi. Jonivorlar uchun tayyor ozuqaga aylanasiz. Ha, odamlar sizni jallodlik bilan so'yadilar, qattiq va chandr go'shtingiz va suyagingizdan tulki va itlar uchun yemish tayyorlashishadi. Itlar esa qarib qolib, og'izlaridagi tishlari ham bitta qolmay tushib ketgach, bo'ynilariga g'isht boylab cho'ktirib yuboradilar. O'rtoqlar, hayotimizdagi hamma yomonliklar insonlardan, ularning zo'ravonliklaridan kelib chiqayotganligi endi sizlarga ravshan bo'lgandir. O'rtoqlar, agar biz fermamizdan odamlarni quvib yuborsak, olinayotgan hamma mahsulotlar o'zimizniki bo'ladi. Biz bir kechadayoq, boyib ketishimiz va ozodligimizni qo'lga kiritishimiz mumkin. Buning uchun esa jonimizni garovga qo'yib bo'lsa hamki, insonlar davlatini ag'darishimiz kerak bo'ladi. Shundagina bizga baxt qushi qo'lib bokadi. O'rtoqlar, sizlarga yetkazishni zarur deb hisoblagan fikrlarim shulardan iborat edi. Ko'zg'alongning qachon bo'lishini men ham aniq bilmayman. Ehtimolki bir haftadan keyin, ehtimolki yuz yildan keyin ro'y berar. Lekin ko'zlarim bilan oyoqlarim ostidagi poxolni aniq, ko'rib turganim kabi adolatning tantanasiga to'liq ishonaman. Ha, ertami yoki kech adolat, albatta, g'alaba qozonadi. O'rtoqlar, haqiqat g'alaba qilgan kunni o'z ko'zingiz bilan ko'rish sizga nasib qiladi. Mening so'zlarimni kelgusi avlodga, albatta, yetkazing. Bolalaringiz, kelajakni quruvchilar va yaratuvchilar bundan xabardor bo'lishlari juda-juda zarurdir. Toki keyingi avlod ham g'alabaga erishmaguncha kurashni davom ettiraversin. O'rtoqlar, bu yo'lda siz hech qachon ikkilanmang. Sizni to'g'ri yo'ldan adashtirish uchun qilingan harakatlarga aslo ishonmang. Insonlar va hayvonlarning umumiy manfaatlari va qiziqishlari haqidagi uydirmalarga hech qachon qulok solmang. Insonlar va hayvonlar orasida birlikning bo'lishi aslo mumkin emas. Inson va hayvonlar o'rtasidagi monopolistik birlashmalarning ravnaqi haqidagi fikrlarning ham hammasi yolg'on. Inson xudbin va ayyordir. U faqat o'zining o'ylaydi. Hayvon manfaatlari uni hech qachon qiziqitmaydi. Hayvonlar orasida to'la birlik va hamkorlikka erishsakkina, bu kurashda g'olib chiqamiz. Insonlar bizning dushmanlarimiz, hayvonlar esa bizning do'stalarimizdir! Yashasin, hayvonlarning umumiy birligi va hamkorligi!

Hayvonlar keksa mayorning nutqini guldiros qarsaqlar va olqishlar bilan tasdiqlashdi. To'rtta kalamush inlarining og'ziga o'rmalab chiqishib, teshiklardan boshlarini chiqarishib, dumlarini taglariga bosib o'tirgan holda qari mayorning nutqini tinglayotgan edilar. Itlar ularni ko'rib qolib irriladilar. Qo'rqib ketgan kalamushlar inlariga qarab qochishdi.

Mayor jimlik o'rnatish uchun oldingi oyoqlarini ko'tardi:

- O'rtoqlar, - dedi so'ngra, - biz bir muhim masalani hal qilib olishimiz kerak. Siz yaxshi bilasiz. Oramizda quyon, kalamush kabi yovvoyi hayvonlar ham yashashadi. Ularni safimizga qabul qilamizmi yoki yo'q? Ular bizning o'rtoqlarimizmi yoki dushmanlarimizmi? Shu masalaga aniqlik kiritib olishimiz kerak. Hozir shu masalani kun tartibiga qo'yaman. Oyoqlarimizni ko'tarib ovoz beraylik.

Hayvonlar oyoqlarini ko'tarib ovoz berishdi Ularning ko'pchiligi kalamushlarni o'z saflariga qo'shishga rozi bo'lishdi. Faqat uchta it va majlisda ovoz berishni o'ylab topgan keksa mayorning ikki tomonida turgan musho'qlargina qarshi chiqdi. (Keyin ma'lum bo'lishicha, musho'qlar har ikki tomon uchun ovoz berishgan ekan) Mayor nutqini davom ettirdi:

- Boshqa sizga aytadigan aytarli gaplarim yo'q. Faqat bir narsani sizga takror aytaman. Inson va uning barcha harakatlariga qarshi bo'lishdek hayvonlik burchingizni unutmang! Ikki oyoqda yuradiganlar dushmanlaringiz, to'rt oyoqlab yuradiganlar va qanotlari bilan uchadiganlar o'rtoqlaringizdir. Insonlarga qarshi kurashayotganingizda ularga o'xshab qolishdan saqlaning. Hatto ular ustidan g'alaba qozonganingizda ham, odamlarning buzuqliklari va yomon ishlarini o'zlashtirmasligingiz kerak. Insonlarga xos bo'lgan odatlardan hamisha saqlaning!

Hayvonlar hech qachon:

- uylarda yashamasin;
- krovatlarda uxlamasin;
- spirtli ichimliklar ichmasin;
- tamaki chekmasin va pul ishlatmasin;
- savdo bilan shug'ullanmasin.

Yuqoridagi hususiyatlarning hammasi insonning yovvoyi va shaytoniy hususiyatlaridir. Hammasidan ham muhimi shuki, hech bir hayvon ikkinchisi ustidan aslo hukmronlik qilmasin. Ojizlar kuchlilarga qaram bo'lmasin. Aqllilar aqli zaiflarni ezmasin.

Hayvonlarning hammalari bir-birlariga birodardirlar. Shuning uchun bir-birlarini aslo o'ldirmasin. Hamma hayvonlar teng huquqlidir. Endi, o'rtoqlar, kechagi tunda ko'rgan tushim haqida gapirib beray. Ko'rgan tushimni to'laligicha tasvirlab berishdan oqizman. Bu inson zoti qirilib ketganidan keyingi hayot haqidagi tush edi. Bu tush ko'p yillar o'tib, unitilib ketgan bir voqeani yodimga soldi. Onam va boshqa ayol cho'chqalar yoshligimda bir ajoyib qo'shiqni qo'ylashardi. Qo'shiq faqat uch baytdangina iborat bo'lib, ohangi hayvonlarni o'ziga tortib oladi. Bolaligimda bu qo'shiqni men ham ilhom bilan qo'ylardim. Oradan ko'p yillar o'tishi bilan uni unitib qo'yganman. Kechagi ko'rgan tushim esa qo'shiqning so'zlarini ham, qo'yini ham esimga soldi. O'sha ashulaning so'zlari xotiramda tiklandi. Avlod-ajdodlarimiz tomonidan qadimda kuylanib kelgan bu qo'shiqni unitib qo'ygan edik. Hozir men sizlarga o'sha ashulani aytib bermokchiman. Ko'rib turibsizlar, qarib qolganman. Ovozim ham o'z shirasini yo'qotgan. Buning ustiga xirrilab qolganman. Lekin sizlarga o'rgatib qo'yanimdan keyin joyig'a qo'yib qo'ylaysizlar degan umiddaman. Keksa mayor tamog'ini qirib olib "Angliya hayvonlari" deb nomlangan ko'hna qo'shiqni qo'ylay boshladi. O'zi aytganiday, ovozi xirillab chiqardi. Lekin bu bilinmasdi. Chunki shu qadar berilib ilhom bilan aytardiki, hayvonlar to'lqinlanib ketganliklarini ham sezmay qolishdi. Yuraqlari xinidan chiqib ketguday dukillab urardi. Ko'kraqlari ashulaning qo'yig'a mos ravishda ko'tarilib, pastga tushardi. Ashulaning qo'yi klementayn va la kukaracha deb ataluvchi musiqa ohanglarini esga solar va ularning oralig'idagi bir qo'yni paydo qilardi:

Ey buyuk Angliyaning ezilgan hayvonlari!
Ey buyuk Irlandiyaning xo'rlangan hayvonlari!
Ey jahonning haq-huquqi toptalgan hayvonlari!
Hamma hayvon teng hamda adolat mayoq bo'lgan,
Oltin zamon qo'ylangan olov qo'shig'im tinglang!
Hukmron inson mangu yo'qolib, Biz kutgan kunlar albat keladi.

Hosildor yerlarni oyoqqa olib,
Angliya hayvonlari baxtli bo'ladi.
Burnimizdan burundiqlar yechilar,
Belimizdan egar-jabduq olinar.
Xipchinlar ham tushmas hech ustimizga
Tuyoqdagi taqalar mangu zanglanar
Bizniki deb o'ylanmagan boylıklar,
Bug'doylaru arpa, suli ham, pichan,
Makka, jovdar, loviya ham sholilar,
Hayvonlarga nasib bo'lar tamoman.
Ozodlik g'alaba qilgan kunlarda
Angliya yerida quyosh porlaydi.
Suvi ham sut kabi okib tunlarda,
Shabodasi o'ynab gul erkalaydi.
Kurash-la keladi porlok kelajak,
Erk uchun jonimiz qurbon bo'lajak.
Sigirlar, otlar, g'ozlar ham qo'rqalar
Baxtli kunlarga albat yetajak!
Ey buyuk Angliyaning qudratli hayvonlari!
Ey buyuk Irlandiyaning shiddatli hayvonlari!
Ey fermanın mehnatdan qaqshagan hayvonlari!
Hamma hayvon.teng hamda adolat mayoq bo'lgan,
Oltin zamon qo'ylangan jo'shqin qo'shig'im tinglang!
Ashula hayvonlarning qonlarini qaynatib, yovvoyi hislarini ko'zg'atib yubordi. Hayvonlar qo'shiqni o'zlari qo'ylay boshlashdi. Keksa mayor bundan xotirjam bo'lib asta ko'zlarini yumdi. Hayvonlar esa yana-da baland ovoz bilan jo'rlikda qo'ylay boshlashdi. Hattoki fahm-farosati kamrok bo'lgan hayvonlar ham ashulaning qo'yini va uni bir necha baytlarini o'zlashtirib olishdi. Aqlli hisoblangan cho'chqalar va itlar esa ashulani bir zumda yodlab olishib jonu dillari bilan qayta-qayta qo'yladilar. Hayvonlar qo'shiqni bir necha marotaba takrorlanganlaridan keyin esa fermani larzaga keltirib shiddat bilan qo'ylay boshladilar. Sigirlar mu-mulab, itlar vovullab, qo'ylar marab, otlar kishnab, kuchukchalar esa vangillab aytar edilar. Ashula ularning ruhini haddan tashqari ko'tarib yuborgan edi. O'rganib olganlaridan keyin ham 5 marta qaytarib-qaytarib baland ovoz bilan aytishdi. Agar ashula uzilib qolmaganida tun bo'yi ham to'xtamay aytishardi. Yurakni o'ynatib yuboradigan baland va shiddatli ovoz bilan aytilayotgan qo'shiq krovatda uxlab yotgan mister Jounzni uyg'otib yubordi. Mister Jounz fermaga yovvoyi tulki o'rimaladi deb o'ylab yotokxona burchagiga tikka qilib qo'yilgan miltiqni qo'lga olib qorong'ulikqa qarab o'q uzdi. O'qlar molxona devoriga borib tegdi va devorlar orasiga kirib yo'qolib ketdi. Majlis shoshilinch tugatildi va hamma hayvonlar yotish uchun o'z supalariga tarqalishdi. Parrandalar esa qo'ndoklariga uchib chiqishdi. So'ngra bir daqiqa ham o'tmasdan tosh qotib uxlab qolishdi. Butun fermani tun sukunati qoplandi.

Majlis o'tgandan keyin, uchinchi kun kechkurun, uyquga yotgan qari mayor ertalab uyqudan uyg'onmadi. Marhum mevazor bog'ning yoniga dafn etildi. Dafn marosimida o'zi o'rgatib ketgan qo'shiqni hayvonlar mayuslik bilan qo'ylashdi. So'nggi uch oy davomida ular juda serharakat bo'lib qoldilar. Mayorning nutqi yuraqlariga olov tashlab qo'ygan edi. Aqllirop hayvonlar kelajakdagi hayotning rejalarini tuza boshlashdi. Ular rejalar bilan bog'liq vazifalar va vazifalarni bajarishdagi hayvonlik ma'suliyati haqida tinmay uqtirishardi. Mayor tomonidan bashorat qilingan qo'zg'alonning qachon bo'lishini hech bir hayvon bilmadi. Chunki qo'zg'alon boshlanishi uchun ijtimoiy muhitning yetilishi va isyon boshlanishi uchun biron bir to'rtki bo'lishi kerak edi. Lekin qo'zg'alonga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish o'zlarining hayvonlik burchlari ekanligini to'la anglab yetgandilar.

Qo'zg'alonni tashqil qilish va uning mohiyatini hamma hayvonlarga birday yetkazish nihoyatda mashaqqatli vazifa edi. Bu vazifani aqlli hayvonlar-cho'chqalarning zimmasiga yuklatildi. Ferma hayvonlari to'ng'izlardan ikkitasini juda hurmat qilishar, o'zlarining ulug'lari deb sanashardi. Ulardan biri Snoubol, ikkinchisi esa mister Jounz sotish uchun bokuvga qo'ygan Napoleon edi. Napoleon juda bahaybat, kuchli va dadil, shiddatli, qo'rqmas Viktor to'ng'izi bo'lib ferma hayvonlari orasida unga teng keladigani yo'q edi. O'zining ishini yaxshi bilar, shuning uchun ham nimani xohlasa unga erishardi. Ishning ko'zini bilardi. Napoleon ko'p gapirmasdi. Hayvonlar orasida obro'-e'tibori yaxshi edi. Napoleonga qaraganda Snoubol ancha dilkash bo'lib, hayvonlar bilan tez elikishib ketardi. Ulfatchilikni juda yoqtirardi. Tezob bo'lishiga qaramasdan fikri teran, yangiliklar yaratishga o'ch edi. Napoleon fermadagi boshqa to'ng'izlarga qaraganda qat'iyrok edi. Ularning orasida fahm-farosatlisi kichkinagina, lekin semiz Skuiylir degan to'ng'iz edi. Uning yuzlari tashqariga bo'rtib chiqqan bo'lib, ko'zlari yulduzdek yonardi. Harakatlari chaqqon, ovozi o'tkir edi. O'zini nihoyatda aqlli va dono hisoblardi, jimjimador va yaltirok so'zlarni ko'p ishlatardi. Ma'ruza qilayotganida yoki biror muammoni hal etish uchun bahsga kirganida hamisha tebranib, o'z og'irligini bir oyog'idan ikkinchi oyog'iga tashlab turardi. Orqasidagi dumi esa devor soatining toshlari kabi likillardi. Uning bu turishi fikrini boshqa hayvonlarga ma'qullatish uchun qo'llanadigan eng samarali usul edi. Hayvonlar Skuiylir qorani ok deb ishontira oladi deyishardi. Shu uchchala cho'chqa hayvonizm ta'limotining targ'ibotchilari bo'lib, hayvonlar orasida tushuntirish ishlarini olib borishda tinim nimaligini bilishmasdi. Har bir muammoni sinchiklab o'rganishardi. Mister Jounz uyquga ketganidan so'ng haftaning bir necha tunlarida majlislar o'tkazishar va hayvonizm asoslari haqida uzundan uzoq ma'ruzalar qilishardi. Dastlab hayvonlar bu harakatlarga beparvolik bilan qaradilar va ahmoqona savollar bilan ham murojaat qilib turishdi. Ba'zi hayvonlar esa mister Jounz oldidagi hayvonlik burchlari va unga sodiqlik muammolarini ham ko'tarib chiqishar, mister Jounzni o'zlarining yagona xo'jayini deb tan olishardi. Ba'zan hayvonlar muhim muammolar bo'yicha nihoyatda go'llik bilan mulohaza yuritishardi:

- Agar mister Jounz bo'lmasa och qolamiz, bizning qornimizni kim ham tuydirardi. O'lganimizdan keyin qolganlar bilan ishimiz nima? Mister Jounzsiz yashab bo'ladimi? Yoki bu qo'zg'alon-ku, albatta, amalga oshar ekan, unda biz tayyorgarlik ko'rib nima qilamiz. Tayyorgarlik ko'rdik nima-yu ko'rmadik nima? Baribir emasmi? degan savollarni ham berishardi. Cho'chqalar esa bunday fikr yuritish hayvonizm ruhiyatiga mos kelmasligini tushuntirishda juda-juda qiynalardilar. Eng ahmoqona savollar Molli ismli ok ot tomonidan berilardi. U majlislardan birida shunday savol berdi:

- Qo'zg'olondan keyin hayvonlarga shakar beriladimi yoki yo'qmi?

- Yo'q,-deb javob berdi Snoubol qat'iylik bilan baland ovozda. Bizning fermamizda shakar tayyorlash uchun ishlab chiqarish qurollari yo'q. Lekin, o'rtoq, u vaqtda sizga shakar kerak bo'lmaydi. Suli va pichanlar fermada yetarli miqdorda to'planadi va xohlaganingizcha yeyishingiz mumkin bo'ladi. Molli ikkinchi marotaba:

- O'sha paytda sochlarimga lenta taqishim mumkinmi? - deb so'radi.

- Snoubol nihoyatda hayratlandi:

- O'rtoq, - dedi u, -siz yaxshi ko'rib sochlaringizga taqib olgan o'sha lentalar qullikning ramzidir. Nahotki, ozodlik degan muqaddas tushunchaning mohiyatini anglab yetmagan bo'lsangiz!

Molli Snoubolning so'zlariga qarshilik bildirmadi, sukut saqladi. Lekin berilgan javobdan qanoatlanmaganligi shundokqina sezilib turardi.

Cho'chqalar qo'lga o'rgatilgan Muso deb ataladigan qora qarg'a tomonidan tarqatilgan uydirmalarga qarshi kurashishning murakkab ekanligini tushunib turardilar. Gap tashuvchi va ertak aytuvchi bu qora qarg'a mister Jounzning erkato'i edi. U nihoyatda chiroyli so'zlar va o'z fikrini sipolik bilan tushuntira olardi. Eshituvchining diqqatini esa darrov o'ziga jalb qilib olardi. Muso ko'pincha Shakartog' deb atalgan ajoyib o'lka haqida rivoyat to'qirdi. O'lganlaridan keyin hayvon va parrandalarning ruhlari bulutlardan ham yuqorida joylashgan Shakartog' o'lkasiga uchib ketadi deb ishontirardi. Jannat o'lkasida har yakshanba kunlari shakarqand va beda berilishi, ok qand va enger urug'idan qilingan oliy nav tortlar esa oyoqlari ostida o'sib yotishi haqida qiziqarli hikoya aytardi. Ko'pchilik hayvonlar Musoni yoqtirmasdilar. Mehnatdan qochib, afsonalar to'qib va aytib kun ko'rishini xushlamasdilar. Shunga qaramasdan ba'zi hayvonlar Shakarqand tog'i borligiga ishonardilar. Cho'chqalar esa bu ishonchni tarqatib yuborish maqsadida qizg'in bahs olib borardilar. Cho'chqalarning ishonchli va sodiq shog'irdlari Bokser va Klovir edi. Ular cho'chqalarning fikrlarini so'zsiz qabul qilishar, tez o'zlashtirishar va ishontira oladigan dalillar bilan boshqa hayvonlarga tarqatishardi. Ular hech qachon mustaqil fikr yuritishmasdi.

Molxona binosi ichida bo'ladigan tungi yig'inlar hanuzgacha davom etib kelardi. Ular ko'payib, "Angliya hayvonlari" qo'shig'ini jo'rlikda qo'ylash bilan yakunlanadigan bo'ldi. Qo'zg'alon cho'chqalar kutganidan ko'ra ertarok muddatda ro'y beradigan vaziyat yetilib qoldi. Isyonni amalga oshirishda bunday imqoniyat bo'lib qolishini cho'chqalar aslo kutishmagandi.

Mister Jounzning boshiga qora kunlar tushdi. U qobiliyatli fermer bo'lishiga qaramasdan sinib qoldi. Sudlashish jarayonida katta pul yo'qotdi. Og'ir qayg'uga botib, ruhi tushib ketib, o'zini bilmaydigan darajada ichkilikka berildi. Sog'lig'i ham yomonlashib borardi. Kun bo'yi oshxonadagi stulda qimirlamay o'tirib, turli ro'znomalarni o'qir va pivoga bo'ktirilgan non bilan Musoni ovqatlantirardi. Fermadagi bo'layotgan ishlar uni qiziqitirmay qo'ydi. Ishchilari esa nihoyatda insofsiz edi. Mehnat qilishni aslo yoqtirishmasdi. Ferma dalalariga foydasiz o'simliklar ekila boshladi. Binolarning tomlari esa tuzatish va yamashga muhtoj edi. Fermani o'rab turgan to'siqlar qarovsiz holda ag'darilib yotardi. Hayvonlarga beriladigan ovqatlar ham mazza-matrasiz bo'lib, qornilarini to'ydirmasdi.

Iyun' oyig'a kelib pichan o'rimi yaqinlashdi. Yilning eng uzun tuni medsamio'z'iv (medsamio'z'iv tun ma'nosini bildirib, O'zbekistonda 24 iyunga to'g'ri keladi) haftaning shanba kuniga to'g'ri keldi. Shu kuni mister Jounz Vilingdon (Angliya qishloklaridan birining nomi)ga bordi. U yerda joylashgan "Qizil sher" pivoxonasida odatdagidan ko'p ichib qolib ketdi va fermaga qaytib kelolmadi. Ferma ishchilari erta tongda turib sigirlarni sog'ib olishdi. So'ngra quyon ovlagani ketishdi. Ular juda shoshilganliklari tufayli hayvonlarga yem berishmadi. Mister Jounz choshgohga yaqin fermaga qaytib kelib, oshxonadagi divanga

cho'zildi. Yuziga "Jahon axborotnomasi" ro'znomasini yopib olib qattiq uyquga ketdi. Kech tushib, vaqt allamahahal bo'lganligiga qaramasdan hayvonlarga hanuzgacha ovqat berilmagandi. Hayvonlar ochlikdan tokatsizlana boshlashdi. Sigirlardan biri oziq-ovqat saqlanadigan omborxonaga eshigini shoxi bilan itarib ochib yubordi. Ochofotlik bilan o'zini ichkariga urdi. Uning orqasidan boshqa hayvonlar ham omborxonaga bostirib kirdilar. Saqlanayotgan oziq-ovqatlarni ochko'zlik bilan og'izlariga solib kovshana boshlashdi. Hayvonlarning odatdan tashqarigi shovqini mister Jounzni uyqudan uyg'otib yubordi. Quyon ovidan qaytib kelib ahvolni ko'rgan xizmatkorlar qo'llaridagi xipchinlar bilan hayvonlarni urib hayday boshlashdi. G'azablangan ishchilar hayvonlarning oldi-orqasiga qaramay urardilar. Kun bo'yi och qolib ketgan hayvonlarning ham tokatlari tugab, o'zlarini tutolmay qolishdi va odamlarga tashlanishdi. Ularni har tomondan o'rab olib, shohlari bilan suzib, oyoqlari bilan tepa boshladilar. Voqea shu qadar tez ro'y berdiki, uni to'xtatish va boshqarishning aslo iloji bo'lmay qoldi. Ferma ishchilari shoshib qoldilar, o'zlarini yo'qotib, qanday chora ko'rish kerakligini bilmasdilar. To'satdan ro'y bergan bu voqea, mister Jounz va uning xizmatkorlarining har qanday zug'umlariga chidab kelayotgan hayvonlarning g'alayoni ularning esxonasini chiqarib yuborgandi. Bir necha daqiqalar o'tgandan keyingina odamlar o'zlarini himoya qila boshlashdi. So'ngra buning foydasiz ekanligini sezishgach, hamma xizmatkorlar-5 erkak jonlarini saqlab qolish uchungina kichkinagina arava sig'adigan so'qmokdan ferma tashqarisidagi katta yo'l tomon orqa-oldilariga qaramay qocha boshlashdi. G'alaba sururidan zavqlanib ketgan hayvonlar ularni ta'qib qilardilar. Mister Jounz yotokxona derazasidan bo'layotgan voqealarni kuzatib turardi. U tezlik bilan kerakli buyumlarini yig'ishtirib, sumkasiga soldi-da, boshqa yo'l bilan fermani tashlab qochdi. Muso ham qarillaganicha mister Jounzga ergashdi. Mister Jounzning xizmatkorlarini katta yo'lga qadar quvib borishgan hayvonlar besh panjarali temir darvozani ichkaridan berkitdilar. Hayvonlar hali qanday voqea yuz berganini anglab yetmagan edilar. Bu o'sha qari mayor bashorat qilib ketgan qo'zg'alon muvaffaqiyat bilan amalga oshgan edi. To'satdan boshlangan g'alayon natijasida mister Jounzga qarashli ferma hayvonlarning ixtiyoriga o'tgan edi. Jounz va uning xizmatkorlari quvilib "Manor ferma"si "Hayvon ferma"si aylangandi. Dastlab hayvonlar ko'zlari bilan ko'rib turgan bu voqeaga ishonolmadilar. Hayvonlar birorta odam yashirib qolmadimikan degan o'y bilan qattiq shovqin solib, tuyoqlarini yerga zarb bilan urib ferma atrofini aylanib chiqishdi. So'ngra fermadan Jounz hukmronligining oxirgi qoldiqlarini ham yo'qotib yuborish maqsadida ferma ichiga joylashgan binolarga qarab chopdilar. Jugunxonaning eshigini buzib ochishdi. Unda saqlanayotgan suvliq, jilov, jugun, burunduqlar va it bog'laydigan zanjirilar, jallodlik uchun ishlatiladigan kundalar, hayvon so'yuvchi pichoklar hamma-hammasini olib chiqib, ferma ichidagi quduqqa tashladilar. Hayvonlarning erkaqligini yo'qotish uchun ishlatiladigan pichoklar, suvlikni tortib turuvchi arqonlar, otning ko'zlarini to'sib turish uchun boshiga kiygiziladigan tunuka qopqalar, faqat otlar uchun ishlatiladigan burun xaltalari, hayvonlarning haq-huquqini kamsitib, nufuzini yo'qotadigan barcha narsalarni ferma hovlisida to'plangan axlat uyumiga qo'shib yoqib yubordilar. O'zlari juda yomon ko'radigan xipchinlarni ham olovga irg'itdilar. Snoubol insonlarni eslatuvchi hayvonlarning barcha kiyimlarini, jumladan, yakshanba kunlari otlarning yollariga taqib yasatiladigan lentalarini ham o'tga tashladi. "Hamma hayvonlar yalang'och yurishlari kerak",-deb chiyilladi Snoubol baland ovoz bilan. Bu so'zlarni eshitgan Bokser yoz oylari quloklariga pashsha kirib ketmasligi uchun poxoldan qilingan silindr shapkalarni ham boshqa narsalar qatori olovda yoqib yubordi. Bir zumda mister Jounzni eslatadigan hamma narsalar yo'qotildi. Napoleon hamma hayvonlarni molxonaga yig'ib, har biriga ikki hayvon tegishi miqdorida makkajo'xori ulashdi. Har bir itga ikki donadan pechen'e berib chiqdi. So'ngra "Angliya hayvonlari" qo'shig'ini yetti marta aytishib, tungi yig'inni tugatishdi va shu kungacha nasib etmagan orombaxsh uyquga ketishdi. Hayvonlar umrlari bino bo'lib bu qadar laziz uyquni bilmagan edilar.

Hayvonlar ertasiga, odatdagidek, tong saharda uyg'ondilar. Kechagi bo'lib o'tgan g'aroyib voqeani eslashib mamnunlik bilan yaylovga o'tlagani ketishdi. Yaylovning qok o'rtasida atrof ko'rinib turadigan baland tepalik bor edi. Hayvonlar shu tepalikka chopib chiqishib chuqur-chuqur nafas olishdi. Tonggi shafaqning nurlariga cho'milgan holda tabiat manzaralarini zavqlanib tomosha qildilar. Ko'zlarini yashnatib, dillarini yayratayotgan bu mislsiz go'zal tabiat va to'yib o'tlaydigan bu yam-yashil yaylov endi ularning o'zlariniki edi. Axir g'ururlanmay bo'ladimi?! Yuraqlarini hapriqtirib yuborayotgan shodlikdan osmonga sakrashib, muzdek shudringlar ustida yumaladilar. Yoz quyoshini emib, asaldek yetilgan o'tlardan chimdib kovshana boshladilar. O'tlar orasidan bo'rtib ko'rinib turgan kesaqlarni har tomonga tepib, yerning hushbo'y hididan mast bo'ldilar. So'ngra tepalikdan turib "Hayvon ferma"si joylashgan keng maydonni kuzata boshladilar. Pichanzor, haydalgan yerlar, mevazorlar va manzarali oromgohlarni ko'rib hayratda qoldilar. Keng va bu qadar go'zal fermaning egalari o'zlari ekanligiga ishonolmasdilar. Yaylovdan qaytgan hayvonlar mister Jounz yashagan ko'rkam bino eshiklari oldiga kelishdi va ichkariga kirgani botina olmay, nafaslarini ichlariga yutib to'xtadilar. Bir necha daqiqa o'tgandan so'ng Snoubol va Napoleon yelkalarini bilan eshikni itarib ochishdi. Ularning orqasidan boshqa hayvonlar ergashishdi. Ehtiyotkorlik bilan xonadan xonaga o'ta boshladilar. Bir-birlari bilan iloji boricha tovushlarini pastlatib, pichirlashib gaplashishardi. Birdan orqa tomondan bir sigirning ajablanib mulagani eshitildi. Hayvonlar ko'zlari oldida turgan hashamatlarga: yotokxonaning parto'shaklar solingan yumshok karavotlari, pardozi oynasi, ot qillari bilan bezatilgan divan, Bryuseldan keltirilgan patgilamlar va mehmonxonaga devoriga ilingan malika Viktoriyaning litografiya usulida chizilgan suratiga hayratlanib tikilishdi. Zinalardan pastga tushib, ferma hovlisi sahniga chiqqanlarida esa oralarida Moliyning yo'qligini bilib qoldilar. Moliyni mister Jounzning pardozonasidagi oyna stoli ustida turgan xilma-xil rangdagi lentalar olib qolgan edi. Ko'zlari yonib, yuzlari lovullaganicha ikkita ko'k lentani Moliy ikki yelkasiga qadadi. Farosatsizligi shundokqina aks etib turgan yuzini oynaga solib tomosho qilayotgan paytda hayvonlar Moliyni topib oldilar. Uning o'ylamay qilayotgan bu harakatlarini yuziga solib aybladilar. So'ngra hammalari birgalikda pardozonadan pastga tushishdi. Hayvonlar oshxonada osilgan cho'chqa go'shtini dafn qilish uchun tashqariga olib chiqqan edilar. Omborxonadagi pivo bochkasi Bokserning tuyoqlari zarbidan ag'darildi. Boshqa narsalarga tegmadilar. Hammalari yakdillik bilan fermadagi mister Jounz yashagan uyni muzey sifatida saqlashga, hayvonlardan hech birining u yerda yashamasligiga qaror qilishdi. Hayvonlar ovqatlanib bo'lganlaridan so'ng Snoubol va Napoleon ularni yig'ilishga chaqirdi.

- O'rtoqlar, -deb so'z boshladi Snoubol, ertadan boshlab soat 6.30 dan ish boshlanadi. Hozir kunlar uzoq bo'lib qoldi. Bizning oldimizda esa bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar nihoyatda ko'p. Bugun pichan o'rimini boshlaymiz. Boshqa qilinadigan ishlar haqida ham maslahatlashib olishimiz kerak.

Cho'chqalar uch oy davomida mister Jounzning farzandlaridan qolgan, axlat uyumiga tashlab yuborilgan eski imlo kitoblaridan o'qish va yozishni o'rgandilar. Boshqa hayvonlarning ham savodlarini chiqarish zarurligini ta'kidlashdi. Napoleon ok va qora rangdagi bo'yoqlar to'ldirilgan paqirlarni ko'tarib, temir panjaralar bilan beshga bo'lingan katta yo'ldagi darvoza tomon jo'nadi. Boshqa hayvonlar ham uning orqasidan ergashishdi. Yozuvni yaxshi o'zlashtirib olgan Snoubol barmoklari orasiga bo'yoq shyotkasini olib temir panjaraning eng baland qismidagi "Manor ferma" yozuvini qora rangga bo'yadi va uning o'rniga ok rang

bilan "Hayvon ferma" deb yozib qo'ydi. Bu fermaga qo'yilgan yangi nom edi. Bundan buyon ferma shu nom bilan yuritilishi lozim edi. Ular yana ferma ichiga qaytdilar. Snoubol va Napoleon katta molxona devorining tepasiga chiqish uchun hayvonlarni shoti olib kelishga yubordi. Snoubol uch oydan beri o'qish va yozishni o'rganish davomida hayvonizmning asosini 7 ta qoidaga keltirganini tushuntirib berdi.

Bo'ladir в ЪъHayvon ferma"sining O'zgartirish kiritilmaydigan qonun moddalari edi. "Hayvon ferma"sida yashovchilar bu qonun moddalariga amal qilishlari shart edi. Qonun moddalarini yaratishda hamma hayvonlarning tengligiga asoslanish cho'chqalar uchun oson bo'lmagandi.

Snoubol qiyinchilik bilan narvonga chiqib, ishni boshladi. Narvonning bir necha zinalaridan pastda turgan Skuiylir bo'yoq to'ldirilgan paqirchani Snoubolga tutib turar edi. Qonun moddalari katta ok harflar bilan molxona devoriga yozila boshladi. Yozilgan harflarni 30 metr uzoqlikdan turib o'qish mumkin edi:

Ikki oyoqlab yuradiganlar - dushman.

To'rt oyoqlab yuradiganlar va qanotlari bilan uchadiganlar - do'st.

Hayvonlar kiyim kiymasdan yalang'och yurishlari kerak.

Hayvonlar karovatda yotmasin.

Hayvonlar spirtli ichimliklar ichmasin.

Hayvonlar bir-birlarini o'ldirmasin.

Hamma hayvonlar teng huquqlidir.

Qonun moddalari husnixat qoidalariga rioya etilgan holda yozilgan bo'lib, bir harf teskari edi, xolos. Boshqa harflarning hammasi to'g'ri yozilgandi. Snoubol hayvonlarga qonun moddalarini o'qib eshittirdi. Ular savodsiz bo'lganliklari uchun boshlarini qimirlatib ma'qullab ko'yaqoldilar. Aqlliroklari esa moddalarni o'rgana boshladilar. Snoubol qo'lidagi bo'yoq shyotkasini yerga tashlab hayvonlarga murojaat qildi:

- O'rtoqlar, bizni pichanzorlar kutib turibdi. Zudlik bilan pichanlarni yig'ib-terib olishimiz kerak. Jounz va uning xizmatkorlaridan ehtiyot bo'lishimiz va ularning qayerda boshpana topganliklarini ham bilishimiz, albatta, zarur. Shundagina bizning tinchligimiz saqlanadi. Bu bizning sharaf bilan bajaradigan vazifamizdir. Sutlari yelinlariga to'lib ketib qiyalayotgan uch sigir Snoubolning so'zlarini mulab bo'lib yubordi. Ular bir kechayu kunduz davomida sog'ilmasdan, yelinlari yorilib ketguday sutga to'lib, chirsillab ketgandi. Cho'chqalar bir muddat o'ylanganlaridan so'ng cho'chqachalarni paqir olib kelish uchun yubordilar. So'ngra cho'chqalar paqirlarni oyoqlari orasiga joylashtirib, sigirlarning sutlarini shovullatib sog'ib ola boshlashdi. Bir zumda beshta paqir yog'li sut bilan to'ldi. Hayvonlar paqirlardagi oppok sutga va sut ustidagi ko'piklarga qiziqish bilan qaradilar. Shu payt hayvonlardan biri:

- Bu sutlarni nima qilamiz, -deb yubordi.

- Jounz bizning ovqatimizga ishlatardi, - dedi tovuqlardan biri.

- Sut haqida o'yab boshingizni qotirmang, -dedi paqirlar oldida turgan Napoleon baland ovoz bilan. Sut uchun qayg'urmang. Biz hozir dalalardagi hosilni yig'ib olish haqida o'ylashimiz kerak. O'rtoq Snoubol yig'im-terimni boshqaradi. Bir ozdan keyin men ham boraman. O'rtoqlar, pichan yig'im-terimiga olg'a! Bizni pichan kutayapti. Sovuq kunlar boshlanmasdan oldin yig'ishtirib olishimiz kerak. Obi havo bizni kutib turmaydi. Hayvonlar pichan eqilgan ferma yeriga yo'l olishdi va shu zahotiyog o'rimni boshlab yuborishdi

Kechki payt ishdan qaytib kelganlarida esa sutning yo'qolganligini sezishdi.

III- bob

Hosilni yig'ib-terib olish uchun juda qattiq mehnat qilishga to'g'ri keldi. Hayvonlar jonlarini jabborga berib astoydil ishladilar. Mukofotlar ham olishdi. Zero, hosil ham ular mo'ljalidan mo'lrok bo'lgan edi. O'rok va panshaha kabi ish qurollari odamlarga-ikki oyoqlilarga moslashtirilganligi sababli ham hayvonlar anchagina qiynaldilar. Ularni to'rt oyoqlab ishlatishning ham iloji yo'q edi. Hayvonlar nima qilishlarini bilishmasdi. Cho'chqalar bu mashaqqatlarni ham yengib o'tishga yo'l ko'rsatdilar. Hamma hayvonlar aqlli deb hisoblangan cho'chqalar orqasidan ergashishardi. Otlar fermaga qarashli dalalar maydonining hajmini aniqladilar. Ekin eqiladigan yerlar hisobini olishdi. Hayvonlar pichanlarni o'rish, yig'ishtirish, to'plash, raqamlash ishlarini Jounz va uning xizmatkorlariga qaraganda tez va sifatli bajarishdi. Cho'chqalarning o'zlari ishlamadilar. Aqlli bo'lganliklari tufayli ham bajarilayotgan ishlarga rahbarlik qilib turdilar. Bokser va Klovir o'zlarini ixtiyoriy ravishda aravalarga qo'shishdi. Endi ularga suvliq, jagan, arg'amchi va qamchining keragi yo'q edi. Aravaga yuklangan pichanning og'irligidan otlar dala yo'lida zo'rg'a qadam tashlardilar. Cho'chqalar ular orqasidan yurib "Chu, o'rtoq" deyishardi. To'xtashlari kerak bo'lgan paytlarda esa "Trrr, o'rtoq" derdilar. Cho'chqalar hayvonlarning nimjonlariga pichanlarni ag'darib turishni topshirdilar. Hattoki o'rdak va tovuqlar ham jazirama quyosh olovida kun bo'yi ishladilar. Tumshuqlari bilan somon yig'ishtirdilar. Hayvonlar Jounz va uning xizmatkorlari hosilni yig'ib olishga sarflaydigan odatdagi muddatdan ikki kun oldin ishni tugatishdi. Bu yil har yildagiga nisbatan ko'p hosil to'plangandi. Inson hukmronligi davridagidek isrofgarchilikka yo'l qo'yilmadi. Tovular va o'rdaqlar o'tkir ko'zlari bilan daladagi qolib ketgan hamma donlarni cho'qib terib oldilar. Ular sidqidildan ishlardilar. O'g'irlik qilishni xayollariga ham keltirmadilar. Hatto boshqa hayvonlar bilan birgalikda ishlayotgan musho'qlar ham o'g'irlik qilmadilar. Yoz bo'yi fermadagi har bir ish osonlik bilan qiynalmasdan silliqqina bajarildi. Ferma hayoti soat millaridek bir tekisda borardi. Hayvonlar o'zlarida yo'q xursand edilar. Shu davrgacha bu qadar to'kinchilikni orzu ham qilmagandilar. Fermadagi berilayotgan oziq-ovqatlar yetarli bo'lib, uning ustiga nihoyatda mazzali va lazzatli bo'lardi. O'z-o'ziga xizmat qilish tashqil qilindi. Hayvonlar doimo norozi bo'lib ming'irlab yuruvchi egalaridan qutulishgandi. Tekinxo'r va hayvonlarga bokimanda bo'lgan insonlar fermadan quvilganidan so'ng hayvonlarning yemishlari odatdagidan mo'lrok edi. Oldingi davrlarga qaraganda hayvonlar meyoridan ortiq dam olishardi. Bo'sh vaqtlardan qanday foydalanishni bilishmasdi. Ko'p muammolarga duch kelishardi. Ayniqsa, makkajo'xorini yig'ishtirish, uni yanchish, shabadada shopirib donini ajratib olishga qiynaldilar. Chunki fermada makkajo'xori donini ajratib beradigan mashina yo'q edi. Lekin cho'chqalarning aqli, Bokserning kuchi bilan muammolar bartaraf qilinardi. Bokser tortiladigan va itariladigan ishlarni deyarli o'zi bajarardi, bor kuchini ishga solardi. Hamma hayvonlar Bokserga havas qilishar, uning ishlaridan hayratlanishardi. Aslida mister Jounz hukmronlik qilgan paytlarda ham yaxshigina ishlardi. Hozir esa yakka o'zi uchta otning vazifasini bajarardi. Fermadagi barcha og'ir ishlar Bokserning zimmasiga yuklatildi. Tongdan shomga qadar tortardi, sudrardi va itarardi. Har doim ish qaynagan joylarda hoziru nozir bo'lardi. U tongni qo'tlab olgan xo'roz qichqirig'i bilan birga uyg'onar va ish kuni

boshlanmasdanoq ishga shoshardi. "Men ko'proq, va kechagidan ko'ra yaxshiroq ishlashim kerak",-deb uylardi Bokser. Shuning uchun ham oldida ko'ndalang bo'ladigan qiyinchilik va muammolardan qo'rqmasdi. "Ishlash, ishlash va yana ishlash" degan chaqiriqqa og'ishmay amal qilardi. Boshqa hayvonlar ham qarab turishmasdi. Imqoniyat va qobiliyatlariga qarab mehnat qilishardi. Tovuqlar va o'rdaklar hosili yig'ishtirib olingan daladan besh qop makka to'pladilar. Mister Jounz hukmronligi davrida odatga aylanib qolgan janjallashish, qizg'anish, bir-birini suzish, tishlash, tepish kabilar deyarli yo'qolgan edi. Hech kim ularning ishidan norozi ham bo'lmasdi. Moliy ertalab uyqudan uyg'onishga qiynalardi. Boshqalardan ozgina bo'lsa ham kechroq o'rnidan turish maqsadida ishdan ertaroq, qaytib tuyoqlarini tozalab olardi. Mushukning odati ham g'alati edi. Umumiy qoidalarga rioya qilishni istamasdi. Ish boshlanishi bilan yo'qolib qolardi, uni topib bo'lmasdi. Ish tugab hamma hayvonlar daladan qaytib kelganlarida esa hech nima bo'lmaganday sekingina paydo bo'lar va hamisha juda asosli uzr topardi. So'ngra ko'zlarini mo'ltillatib mehr bilan shunday miyovlardiki, uning gapiga ishonmaslikning aslo iloji yo'q edi.

Qari Benyamin qo'zg'alondan keyin ham o'zgarmagandi. Mister Jounz davridagidek juda sekin va qaysarlik bilan ishlardi. Ish buyurilgan paytda hech qachon yo'q demasdi. Lekin shoshilmasdi ham. Qo'zg'alon va uning natijalari haqida o'ylashni yoqtirmasdi. Hayvonlar Jounzning quvilganidan xursand emasmisan deb so'rashardi. U esa beparvolik bilan hamma hayvonlarga qaraganda eshaklarning uzoq umr ko'rishi haqida so'zlardi. Gapining oxirida o'lib yotgan eshak murdasini hali umri bino bo'lib hech bir hayvon ko'rmaganligini qayta-qayta ta'kidlardi. Farosatsizlik va mantiqsizlik bilan berilgan javoblar oldida hayvonlar sukut saqlashga majbur bo'lishardi. Yakshanba kunlari ish bo'lmasdi. Odatda bu kuni hayvonlar dam olishardi. Nonushta qilishgach, biror soatlar chamasi vaqt o'tganidan so'ng tantanalar boshlanardi. Snoubol missis Jounzning yashil ipakdan qilingan eski dasturxonini eski-tuskilar saqlanadigan omborxonadan topib olgandi. Dasturxonning bir chekkasida hayvon shoxi va tuyog'ining oq rangdagi surati bor edi. Dasturxon fermaning bog'iga o'rnatilgan uzun tayoqqa bayroq, sifatida ilindi. Tantanalalar boshlanishidan oldin bayroq baland ko'tarilardi. Ferma hovlisi ustida hilpirayotgan bayroqqa Snoubol g'urur bilan tikilardi va hayvonlarga shunday tushuntirardi:

- O'rtoqlar, "Hayvon ferma"si bayrog'ining rangi yashil.Bu esa Angliyadagi yashil dalalarning ramzidir. Bayroqdagi tuyoq va shox surati esa hayvonlarning yaqin kunlarda tashqil qilinadigan Respublikasining gerbidir. Bayroq ko'tarilishi bilan fermadagi hamma hayvonlar majlis deb ataladigan umumiy yig'ilish uchun molxonaga to'planardilar. Bunday majlislarda kelasi haftaning ishlari rejalashtirilardi. Kun tartibiga qo'yilgan masalalar muhokama qilinib qarorlashtirilardi. Qarorlar har doim cho'chqalar tomonidan chiqarilardi. Boshqa hayvonlar esa qarorni qay yo'sinda tasdiqlashni va qanday ovoz berishni o'rganardilar. Snoubol va Napoleondan boshqa hayvonlar qabul qilinayotgan qarorlarning mazmuni bilan qiziqishmasdi. Ikkala cho'chqa muhokamada faollik ko'rsatishardi. Ular har doim qizg'in bahslashar, tortishishar va hech qachon kelisholmasdi. Biri taklif bersa, ikkinchisi rad etardi. Buni hamma hayvonlar sezib turardi. Hatto mevazorning orqa tomonini nafaqaxo'r hayvonlar uchun dam olish bog'iga aylantirish, shuningdek turli hayvonlarning nafaqaga chiqish yoshi haqidagi muhokamalarda ham bir qarorga kelolmasdilar. Majlislarni "Angliya hayvonlari" qo'shig'ini jo'r bo'lib qo'ylash bilan tugatishardi. Tushlikdan keyin esa hayvonlar hordiq chiqarishardi.Cho'chqalar hayvonlarning buyumlari saqlangan omborxonani shtab-kvartiraga aylantirishgandi. Kechqurunlari ferma uyidan olib kelgan kitoblarni o'qishar hamda temirchilik, duradgorlik kabi hunarlarni o'rganishardi. Snoubol hayvon qo'mitalarini tashqil qilish bilan shug'ullana boshladi. U ishlab charchamas, butun kuch-quvvatini shu ishga sarflar edi. Tovuqlar uchun tuxum ishlab chiqarish qo'mitasi, sigirlarga dum tozalash ittifoqi, yovvoyi o'rtoqlar uchun qo'lga o'rgatish qo'mitasi (kalamush va quyonlarning qo'lga o'rganishi nazarda tutilgan edi), qo'ylar uchun jun oqartirish harakati kabi uyushmalarni tuzdi. Shuningdek savod chiqarish darslarini ham boshlab yubordi. Snoubol tomonidan tuzilgan qo'mitalar deyarli o'zlarini oqlamadi. Ayniqsa, yovvoyi o'rtoqlarni qo'lga o'rgatish qo'mitasi ko'p faoliyat ko'rsatolmadi. Qisqa muddat ichida tugatildi. Yovvoyi hayvonlar yashash tarzini o'zgartirmadilar, aksincha, ko'rsatilgan moddiy yordam va hurmatdan foydalanib qoldilar. Uning o'rniga musho'qlarni qo'lga o'rgatish qo'mitasi tuzildi. Bu qo'mita ham bir necha kun faollik bilan ishladi. Qo'mita a'zolari tomonidan tomda o'tirgan musho'qlar va musho'qlarga yaqin kelgan chumchuqlar orasidagi munosabatni yaxshilash masalasi ko'rildi. Hamma hayvonlar va parandalarning teng huquqliligi, bir-birlariga o'rtoq ekanliklari ta'kidlanib, tomga chumchuqlarning ham erkin qo'na olishlari haqida qaror qabul qilindi. Lekin chumchuqlar musho'qlar bilan o'rtoqlasholmadilar. Chunki bu qarorga ishonish qiyin edi. Savodsizlikni tugatish ishlari qizg'in borardi. Bu sohadagi muvaffaqiyatlar sezilib turardi. Kuzga qadar fermadagi hamma hayvonlar yozish va o'qishni turli darajada o'zlashtirib oldilar. Cho'chqalar hamma hayvonlardan ko'ra yaxshiroq yozishar va o'qishardi, bu sohada ilg'orlik qilishardi. Itlar o'rtacha o'rgandilar. Lekin ular yetti qoidadan boshqasini o'qishga qiziqishmasdi. Myuriyel itlardan ozgina tuzukroq o'qirdi. Ko'pincha axlatlar ichidan topib olgan ro'znoma parchalarini boshqalarga o'qib berish bilan shug'ullanardi. Benyamin cho'chqalar kabi o'qishni yaxshi o'zlashtirdi. Lekin o'rgangan narsasini yozish va o'qishga bo'yni yor bermasdi, tanballik qilardi. Klovir esa butun alifboni o'rgandi, lekin so'zlar tuzib yozolmasdi. Bokser A, B, V, G, D harflarini o'rganaoldi, xolos. U tuyoqlari bilan yerga A, B, V, G, D harflarini berilib chizardi. Bu mashg'ulot bilan band bo'lgan kezlari qo'loqlari dikkayib ketardi, boshi likkillardi. Alifbodagi bu besh harfdan keyingilarini eslashga bor kuchi bilan harakat qilardi. Lekin hech xayoliga keltira olmasdi. Bir necha marta Ye, Yo, J va 3 ni yozishga urinib ko'rdi. Lekin bu harflarni o'rgangunga qadar avvalgi 5 harf - A, B, V, G, D yodidan ko'tarilardi. U o'zi uchun besh harfni o'zlashtirishning o'zi yetarli ekanligini tushundi va o'rganishni to'xtatishga qaror qildi. Bokser o'rgangan harflarni esidan chiqarib qo'ymaslik uchun har kuni bir-ikki marta ularni yerga yozardi. Moliy esa ismini yozish uchun ishlatiladigan to'rtta harfdan boshqasini o'rganishni istamasdi. Payrahalardan harflarning shaklini yasab, ismini yozardi. Gullar bilan atrofni yasatardi. So'ngra uning atrofida aylanib zavqlanardi, shakllarga va gullarga huzur qilib tikilardi. Fermadagi boshqa hayvonlar ham besh harfdan boshqasini o'rganolmadilar. Tentakroq, fahmi-farosati yetarli bo'lmagan hayvonlardan qo'ylar, tovuqlar, o'rdaklar yetti qoidani ham o'zlashtira olmadilar. Snoubol o'ylab ko'rib, yetti qoidaning bittasini kamaytirish mumkin ekanligini, ya'ni qonunning birinchi va ikkinchi moddalarini birlashtirish mumkin ekanligini o'rta tashladi. Moddalar qayta ko'rib chiqilib, qo'yidagi holatga keltirildi:

To'rt oyoqlilar-do'st, ikki oyoqlilar - dushman.

"Bu, - dedi Snoubol, - hayvonizmning eng muhim asosidir. Buning mohiyatini qaysi bir hayvon chuqur anglay olsa, insonning ta'siridan qutulishi shunchalik oson bo'ladi". Avval qushlar bu fikrga qo'shilmadilar. Chunki ularning ham faqat ikki oyoqlari bor edi. Lekin Snoubol bu moddaning to'g'ri ekanligini asoslab berdi:

- O'rtoqlar, - dedi Snoubol, qushning qanoti uchish, odamlarning qo'llari esa ushlab uchun yaratilgan. Odamlarning hayvonlardan farqlanib turadigan yagona tomoni ham qo'lidadir. Odamlar hayvonlarga qiladigan hamma yomonliklarni qo'li bilan amalga

oshirishadi, narsani qo'li bilan yaratadi. Qushlarning qanotlari esa faqat uchish uchungina xizmat qiladi. Shuning uchun ham qushlarning qanotlarini oyoq kabi qabul qilishingiz kerak. Qushlar Snoubolning uzundan uzoq va jimjimador, balandparvoz so'zlarining ma'nolarini anglamadilar. O'zlarini tushunganday ko'rsatishib, qonunning yangi moddasini qabul qilishdi. Barcha hayvonlar xayrixohlik bilan moddalarni o'rgana boshladilar. Molxona devoriga yozilgan yetti modda ustiga ko'zga ko'rinadigan yirik harflar bilan "To'rt oyoqlilar-do'st, ikki oyoqlilar - dushman" deb yozib qo'yishdi. Hamma hayvonlar bu moddani yod olishdi. Ayniqsa, bu modda qo'ylarga yoqib qoldi. Fermadagi dalalarda o'tlab yurganlarida boshlarini tez-tez ko'tarib "To'rt oyoqlilar - do'st, ikki oyoqlilar dushman" deb jo'rlikda marardilar. Soatlar davomida bu mashg'ulotni davom ettirishar va bu mashg'ulotdan charchashmasdi.

Napoleon Snoubol shug'ullanayotgan qo'mitalar ishi bilan qiziqmadi. Uning o'ylashi bo'yicha, Snoubolning qo'mitalari katta yoshdagi hayvonlar va ularning manfaatlari uchun mo'ljallangandi. Yoshlarning ma'lumot olishlariga esa e'tibor qaratilmagandi. Pichan hosili yig'ib-terib olinganidan keyin Jesiy va Blubel to'qqizta laychani tug'ib berishdi. Napoleon kuchukchalar emchakdan chiqqanlaridan so'ng onalaridan ajratib olib, ularning tarbiyasi bilan shaxsan o'zi shug'ullana boshladi. Kucho'qlarni omborxonada tomi ustidagi narvon bilan chiqiladigan cherdak ichiga qo'ydi. Laychalar o'sha yerda o'sa boshlashdi. Hatto fermadagi hayvonlar ularning borligini ham unitib qo'yidilar.

Fermadagi sigirlardan sog'ib olinayotgan sutlarning qayerga ishlatilayotganligi qattiq sir tutilardi. Keyinchalik esa hayvonlarning o'zlari ham bunga e'tibor bermay qo'yishdi. Sutlar cho'chqalarning ovqatlari uchun ishlatilardi. Mevazordagi maysalar ustida to'kilib yotadigan olmalarni hayvonlar teng baham ko'rishardi. Cho'chqalar olmalarni yig'ib olish va omborxonaga keltirishga buyruq berishdi. Bu voqea hayvonlar orasida norozilik keltirib chiqardi. Cho'chqalar hayvonlar orasida uyg'ongan norozilikni yo'qotish uchun tushuntirish ishlarini boshlab yubordilar. Bu harakatga Napoleon va Snoubol ham qo'shildi. Skuiylir tushuntirish ishlarini olib borish uchun safarbar qilindi:

O'rtoqlar, - derdi u, - cho'chqalar va ishlarni o'zlari yoki o'zlariga imtiyoz yaratish uchun qilishyapti deb o'ylamang. Aslida, biz, cho'chqalar, sut va olmani yoqtirmaymiz. Bizning yagona maqsadimiz salomatligimizni saqlab qolishdir. Sut va olmalar tarkibida cho'chqalarni sog'lomlashtiruvchi kuchli moddalar bor. O'rtoqlar, bu fanda ilmiy jihatdan asoslangan. Biz, cho'chqalar, esa, o'zingizga ma'lum, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi hayvonlarmiz. "Hayvon ferma"dagi hamma ishlarni tashqil qilish esa, gardanimizga yuklatilgan. Biz kechani kecha kunduzni kunduz demay farovon yashashingiz uchun xizmat qilamiz. Ha, bizning sut ichishimiz va olmani tanovul qilishimiz o'zimiz uchun emas, sizlar uchundir. Agar sog'ligimiz yomonlashib hayvoniy burchimizni bajarishda pand beradigan bo'lsa, nima bo'lishini tasavvur eta olasizlarmi?! Nazarimda, tasavvur eta olmaysizlar! O'rtoqlar u holatda Jounz "Hayvon ferma"sig qaytib keladi! Ha, Jounz qaytib keladi! Albatta, sizlarning orangizdagi hech bir hayvon Jounzning qaytib kelishini istamasa kerak!

Skuiylir nihoyatda ta'sirchanlik bilan so'zlardi. Dumini likillatib u tomondan bu tomonga olib borib kelardi. Jounzning qaytib kelishini hayvonlarning istashmasligi Skuiylir uchun tuyoqlarining ostidagi yerni bosib turganday ayon edi. Shu sababdan ham buni alohida ta'kid bilan gapirardi. Bu esa hayvonlar orasida tushuntirish ishlarini olib borishning ishonchli va sinalgan usuli edi. Shunday qilib cho'chqalarning sog'lig'ini saqlab qolishining zaruriyat ekanligi hayvonlarga ayon bo'ldi. Hayvonlar bunga ishonishdi. Sut va olmalar faqatgina cho'chqalar uchun ishlatilishiga rozi bo'lishdi.

IV- bob

Yozning oxirlariga kelib "Manor ferma"sida ro'y bergan voqea atrofdagi fermalarga tarqaldi. Snoubol bilan Napoleon boshqa fermadagi hayvonlarni o'zlariga qo'shilishga unday boshlashdi. Boshqa fermalarda yashayotgan hayvonlarga qo'zg'alongning dasturi va uni amalga oshirishning o'ziga xos yo'llarini o'rgatish uchun kaptarlar uchirildi. Ayniqsa, "Angliya hayvonlari" qo'shig'ini o'rgatish kaptarlarning asosiy maqsadi bo'lishi kerakligi obdan uqtirildi. Fermadan quvib yuborilgan mister Jounz esa ko'p vaqtini Vilingdondagi "Qizil sher" pivoxonasida o'tkazayotgan edi. Pivoxo'rlarga o'z fermasidan o'zining hayvonlari quvib yuborganliklari haqida alam bilan gapirardi. Vahshiylik ketgan hayvonlarning adolatsizliklari haqida tinimsiz so'zlardi. Pivoxonaga yig'ilgan dehqonlarning ayrimlarini unga rahmi kelardi. Lekin ular mister Jounzga yordam berishni o'ylashmasdi ham. Ba'zi pivoxo'rlar esa mister Jounzning fojiasidan foyda izlashardi. "Hayvon ferma"sining yaqinida "Foksvud" deb nomlangan ferma joylashgan edi. Ferma egasi Pilkington nihoyatda ma'suliyatsiz va uning ustiga landovur odam bo'lib, fermadagi ishlarga e'tiborsizlik bilan qarardi. Atrofidagi fermerlar bilan kelisholmasdi. Mister Jounzni haydab yuborgan hayvonlar bilan ham munosabati yomon edi. Ko'p vaqtini asosan baliq ovlash bilan o'tkazardi. Ov qilishni juda yaxshi ko'rardi. Yilning to'rt fasliga xos ov mashg'ulotlari bilan shug'ullanish uning doimiy ishi edi. Natijada kattagina maydonni egallagan ferma qarovsiz holatga kelgandi. Fermaning bog'lari va mevazorlari chakalakzorlarga aylanib ketgandi. Yaylovlar yangilanmasdi. Yaylovlar atrofidagi to'siqlar bo'zilgandi. Umuman aytganda, qarovsiz qoldirilgan fermaning axvoli xarob edi. "Hayvon ferma"si yaqinidagi fermalardan yana biri yer maydoni kichikroq bo'lgan "Pinchfyld" fermasi bo'lib, uning holati yaxshigina edi. Ferma egasi Fredrik uddaburonligi qattiqqo'lligi bilan nom chiqargandi. Sud jarayonlarida hamisha yutib chiqishi bilan mashhur edi. Savdo ishlarida ham usta, o'zi bilan muomala qiluvchi sherigini qat'iy fikrga egaligi va dadiligi bilan lol qoldirardi. Pilkington Fredrik bilan hatto umumiy manfaatlari yo'lida ham kelisholmasdi. Ular doimo qattiq janjallashib yurishardi. Lekin har ikkalalari ham "Hayvon ferma"sida ro'y bergan voqeadan juda qo'rqishardi. Fermalaridagi hayvonlarning xabar topishlarini va muhokama qilishlarini qattiq nazorat ostiga olishgan edi. Fermani hayvonlar boshqara olishlariga Fredrik ham, Pikingtin ham shubha bilan qarardi. "Hammasi ikki haftadan keyin tugaydi. Buzoqning yugurgani somonxonagacha", - deyishardi ular. "Hayvon ferma"si degan nomga toqat qilolmasdilar. Bu ferma haqida gap ketgan paytlarda hanuzgacha "Manor ferma" deb atashardi. "Manor ferma"da hayvonlar bir-birlari bilan urushmokdalar, ular orasida ocharchilik boshlangan degan xabarlarini tarqatishardi. Lekin vaqt o'tgan sari hayvonlarni bu ma'lumotlarga ishonishga majbur qilishlari befoyda ekanligini sezib qolishardi. Shuning uchun hayvonlar orasida avj olayotgan voqealar, ya'ni hayvonlarning hayvonxo'r va odamxo'rliqi, bir-birlariga qizdirilgan taqa bilan azob berayotganlari, ayollarni esa o'rtada ekanligi haqidagi xabarlarini tarqatisha boshlashdi. Odamlar hayvonlar qo'zg'alongning tabiati qonunlariga ziddligini ta'kidlashardi. Hayvonlar esa bu xabarlariga ishonishmasdi. Odamlarni quvib yuborib, ularning ishlarini o'zlari bajarayotgan hayvonlar va "Hayvon ferma"sida ro'y berayotgan voqealar haqidagi soxta xabarlar ovozi tezlik bilan atrof fermalardagi hayvonlar orasida yoyilib borardi. Yil bo'yi qo'zg'alonglar sharpasi fermalar bo'ylab kezib yurdi. Qo'lga o'rgangan buqalar yovvoyilashdi, qo'ylar esa to'siqlarni buzishardi, sigirlar paqirlarni tepishardi, otlar panjaralar ustidan sakrab o'tishdan bosh tortishib, to'siqlar oldida to'xtashib, xurpayib olishar va ustlariga minib olgan odamlarni irg'itib yuborishardi. "Angliya hayvonlari" shitob bilan yashin

tezligida boshqa fermadagi hayvonlar orasida tarqalib borardi. Insonlar ashulani eshitganlarida toqat qilolmasdilar, tepa sochlari tikka bo'lib ketardi. Qo'shiqning bemaza ekanligi, so'zlari o'rinsiz ishlatilganligini isbotlashga harakat qilishardi. Axlatga irg'itib yuboriladigan mag'zavaga o'xshagan ashulani qanday qilib hayvonlar maroq bilan kuylashayotganlariga aqlari bovar qilmayotganligi haqida kuyinishib gapirishardi. Agar fermadagi hayvonlar aytishayotganini sezib qolishadigan bo'lsa darhol to'xtatishib, ayovsiz kaltaklashardi. Lekin hayvonlar orasida tezlik bilan yoyilib borayotgan ashulani ham to'xtatishning iloji yo'q edi. Qushlar to'siqlar ustida xushtak chalib chug'urlashardi, kaptarlar qayrag'och daraxtlarining ustiga qo'nib olib huv-huvlashardi. Hatto temirchilik ustaxonasidagi tovushlar va cherkovning qo'ng'iroqlarining tovushlari ham qo'shiq ohangiga moslashtirilgan edi. Odamlar hayvonlarni sehrlab olgan bu qo'shiqni eshitganlarida ertangi kunlari haqida bashorat qilinayotganday qo'rqib ketishardi. Oktabr' oyining boshlari edi. Hayvonlar makkajo'xori poyalarini o'rib, bir joyga to'plab, navlarga ajratayotgan edilar. Kaptarlar guruhi "Hayvon ferma"si hovlisiga uchib kelib, bezovtalik bilan yerga qo'ndilar. Ular Jounz va uning xizmatkorlari, Foksvud va Pinchfiyld fermasida ishlovchi olti odam "Hayvon ferma"sining beshga bo'lingan temir panjarali darvozasiga kelib tutashuvchi arava yo'lidan kelayotganliklari haqidagi xabarni keltirgandilar. Odamlarning oldida qo'lidagi miltiqni mahkam ushlab, shaxdam va dadil qadamlar bilan Jounz kelayotgandi. Boshqa odamlarning qo'llarida esa tayoqlari bor edi. Ular "Hayvon ferma"sidagi qo'zg'alonna bostirish uchun kelayotganliklarini hayvonlar bilishardi, lekin bu kutilmagan voqea edi. Ular mudofaaga tayyorlanishga majbur bo'ldilar. Fermadagi uylarning biridan Yuliy Sezar o'z qo'shinlarini qanday boshqarganligi haqidagi kitobni topib olib mutoala qilgan Snoubol ferma mudofaasining rahbari edi. U shitob bilan harakat qila boshladi. Qat'iy va keskin buyruqlar berdi. Bir necha daqiqalar ichida hayvonlar o'z o'rnilarini egalladilar. Odamlar fermaga yaqinlashib qolganlarida Snoubol birinchi hujumni boshladi. Hamma kaptarlar (jami 35ta kaptar bor edi) odamlar ustidan uchib, axlatlarini to'ka boshladi. Odamlar o'zlarini himoya qilish uchun qo'llarini boshlariga soyabon qildilar. Shu payt to'siqlar orqasida yashirinib yotgan g'ozlar tezlik bilan chiqib, ularning boldirlarini cho'qiy boshladi. Bu Snoubol tomonidan qo'llangan yengil harbiy usul edi. Odamlar tayoqlari bilan g'ozlarni haydashdi. Snoubol ikkinchi hujumni boshladi. Myuriyel, Benyamin va hamma qo'ylar odamlarning yo'llarini to'sib, boshlari va shoxlari bilan suzishdi. Benyamin odamlar atrofida aylanib, kichik tuyoqchalari bilan odamlarning duch kelgan joyiga tepardi. Odamlar ham bo'sh kelishmasdi. Hayvonlarni tayoqlari bilan urib, nahal qoqilgan etiklari bilan tepardilar. Hayvonlar Snoubolning chekinish belgisini bildiruvchi chiyillagan tovushini eshitishlari bilanoq hayvonlar ferma ichkarisiga orqalari bilan qaytdilar. Odamlar g'alaba shuuridan mast bo'lib baqirib yuborishdi va tartibsiz ravishda hayvonlar orqasidan quva boshladilar. Snoubol kutgan voqea yuz berayotgan edi. Odamlar ferma ichkarisiga olib kiruvchi darvoza oldiga yetay deganlarida pistirmada turgan uch ot, uch sigir va cho'chqalardan boshqa hamma hayvonlar ularning orqa tomonida paydo bo'ldilar. Snoubol hujum qilishga ishora berdi. Chekinayotgan hayvonlar birdaniga orqaga qaytdilar. Bir zumda hayvonlar odamlarni orqa va old tomonidan o'rab olishdi va darhol hujum boshlashdi. Snoubolning o'zi esa Jounzning ustiga bostirib kela boshladi. Jounz miltigini Snoubolga to'g'irlab turib otdi. Snoubolning orqasini yalab o'tib, qonli iz qoldirdi. Uning orqasidagi qo'y ag'darilib ketdi. Vazni to'qson besh kilogramm bo'lgan Snoubol zarb bilan kelib Jounzni tepib yubordi. U uyilib yotgan axlat ustiga uchib tushdi. Miltig'i qo'lidan chiqib o'zidan nariroqqa otilib ketdi. Oyoqlarini osmonga ko'tarib turib Bokserning bor ovozi bilan kishnashi juda dahshatli edi. U musullariga bor kuchini to'plab turib taqa qoqilgan bahaybat tuyoqlari bilan odamlarga hamla qilardi. Uning birinchi zarbasi Foksvud fermasida xizmat qiluvchi otboqarning boshiga tushdi. Otboqar ko'lmak suvga chalqanchasiga ag'darilib, nafasi ichiga tushib ketdi. Buni ko'rib turgan boshqa odamlarning yuragi orqasiga tortib ketdi va tayoqlarini qo'llaridan irg'itib yuborib orqa-oldilariga qaramay qochishdi. Ular qo'rquvdan o'zlarini yo'qotib, dag'-dag' titrardilar. Hayvonlar qochayotgan odamlarni ta'qib qilardilar. Har bir hayvon o'z xolicha odamlardan qasos olishardi. Shoxli hayvonlar suzar, tepar, tishlar va odamlarni tuyoqlari ostiga olib ezig'ildirdilar. Shoxlari esa odamlar tanasining ichiga botib kirardi. Hattoki tomda o'tirgan mushuk ham bir odam ustiga to'satdan sakradi va o'tkir tirnoqlarini uning buyniga botirdi. Odam baqirib yubordi. Odamlar вѢъHayvon fermaвѢksi hovlisidan qochib, katta yo'lga chiqib, sharmandalarcha chekinib borardilar. G'ozlar galasi esa ularga yetib olib, g'a-g'alashib oyoqlarini cho'qiy boshlashdi. Odamlar jon-jahdlari bilan qochishdi.

Bokser ferma hovlisidagi iflos ko'lmak suv ichida yotgan oshxona xizmatchisining tanasini qimirlatib ko'rdi. Tirikligini bildiruvchi biror nishon ko'rinmadi. Oyoqlari Jounz edi.

- O'lmasligi kerak edi, - dedi Bokser alam bilan. Tuyoqlarim ostiga qachon taqa qoqilganini unitib ham qo'ydim.
- Hissiyotga berilmang,- dedi Snoubol o'rtoqlarcha uning yelkasiga qo'lini qo'yib. Uning yarasi hanuzgacha ochiq edi, qon chakkillab tomib turardi. Urush urush-da,-deb davom etdi Snoubol. U qurbonsiz bo'lmaydi. Ko'pincha urushning o'qiga yaxshi hayvonlar duch kelishadi. Men esa o'limni, hattoki odamlar o'limini ham xohlamayman. Shu payt hayvonlar orasidan qaysi biridir "Moliy qayerda?! U yo'q-ku!" - deb so'radi. Haqiqatdan ham ular orasida Moliy ko'rinmasdi. Odamlar Moliyni yarador qilganliklari yoki uni o'zlari bilan asir tushirib olib ketganliklari haqidagi vahimali o'ylar hayvonlarni bezovta qilardi. Moliyni qidira boshladilar. Uni otxonadagi supa ustiga o'rnatilgan oxur ichidagi pichan orasiga boshlarini suqib olgan holda topdilar. Miltiq tovushlaridan vahimaga tushgan Moliy otxona ichiga qochib kirib yashirinib olgan edi. Hayvonlar Moliyni topib, ferma hovlisiga qaytganda ko'lmak ichida yotgan oshxona xizmatchisi yo'q bo'lib qolgan edi. Hushiga kelib qochib ketgan edi. Hayvonlar yovvoyi ehtiros ichida bir-birlariga so'z bermay jang payti ko'rsatgan qahramonliklari haqida shovqin solib gapira boshlashdi. So'ngra qo'lga kiritilgan g'alabani nishonlash tantanalarini boshladilar. Ferma hovlisidagi bayroqni baland ko'tarishdi. "Angliya hayvonlari" qo'shig'ini bir necha marotaba takrorladilar. So'ngra jang payti o'q tegib shahid bo'lgan qo'yni ko'mish marosimini o'tkazishdi. Marosimda Snoubol qisqagina nutq so'zladi. вѢъ вѢъHayvon fermaвѢksini saqlab qolishimiz uchun jonimizni ham fido qilishga tayyor turishimiz kerakвѢk,- deb nutqini tugatdi. Qo'yning qahramonligi boshqa hayvonlar uchun ibrat bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Qo'yning jangda shahid bo'lish sabablariga alohida urg'u berdi. Qo'y dafn etilgan qabr boshiga buta ekishdi.

Keyingi kun o'tkazilgan majlisda hayvonlar bir ovozdan "Qahramon hayvon" harbiy ordenini ta'sis etish haqidagi qarorni tasdiqlashdi. Snoubol bilan Bokser bu ordenning dastlabki laureatlari bo'lishdi. Bronzadan qilingan bu orden mister Jounz hukmronligi vaqtida yakshanba va bayram kunlari otlarni bezatish uchun ishlatilardi. Hayvonlar uni omborxonadan topgan edilar. Jangda halok bo'lgan qo'yga esa o'limidan so'ng 11 darajali вѢъQahramon HayvonвѢk ordenini berishdi. Bo'lib o'tgan jangni abadiylashtirish ustida ham ko'p tortishishdi. Nihoyat "Molxona janggi" deb nomlashga qaror berishdi (Jang bo'lib o'tgan ferma hovlisi yaqinida molxona joylashgan edi). Hayvonlar mister Jounzning miltig'ini loy ichidan topib olishdi. Fermada miltiq o'qlari saqlanishini bilishardi. Uni qidirib topdilar. Miltiqni bayroq o'rnatilgan yog'och tagiga o'rnatishga qaror qilindi. Miltiq yil davomida ikki marta otiladigan bo'ldi. Birinchi marotaba "Molxona janggi"ning yilligini nishonlash maqsadida oktabr' oyining 12-kunida, ikkinchi marotaba esa qo'zg'alon g'alabasini bayram qilish sharafiga yilning eng uzun kunida osmonga qarata o'q

uziladigan bo'ldi.

V- bob

Qish yaqinlashgan sari Moliyy ko'p tashvishlana boshladi. Deyarli har kuni ishga kech qolib borardi. Har safar uxlab qolganligini aytib uzr so'rardi va butun tanasining zirqirab og'riyotgani haqida shikoyat qilardi. Lekin ishtahasi karnay edi. Turli bahonalar bilan ishdan erta ketardi. Farosatsizligi shundoqqina sezilib turgan yuzini ko'lmak suvga solib uzoq-uzoq tikilib qolardi.

Hayvonlar orasida Moliyning qilmishlari haqida turli mish-mishlar ham yurardi. Kunlardan bir kun ferma hovlisida dumini o'ynatib aylanib yurgan Moliyini somon kovshayotgan Klovir imlab chaqirdi:

- Moliyy, - dedi u, mening sizga aytadigan jiddiy gapim bor. Bugun sahar payti вЂњHayvon fermaвЂќsi bilan "Foksvurd" fermasi oralig'iga qo'yilgan to'siq oldida sizni ko'rdim. Men uzoqroqda edim. Lekin to'siqning orqa tomonida mister Pilkington ishchilaridan biri turganini sezdim. U siz bilan nima haqidadir gaplashardi. Hatto burningizni sillashiga ham ruhsat berdingiz. Tinchlikmi, Moliyy?! Nima gap?!

- Tuhmat qilmang! Bunday voqea ro'y bergani yo'q,-dedi Moliyy tuyoqlari bilan tepsinib turib.

- Moliyy, yolg'on gapirmang! Tumshug'ingizni haqiqatdan ham sillatmaganman deb qasam icha olasizmi?-dedi Klovir.

- Gapingiz to'g'ri emas,-dedi Moliyy ko'zlarini yerga tikkan holda. U Klovirning ko'zlariga qaray olmasdi. Moliyy Klovirning oldida uzoq turolmay yaylovga o'tlagani ketdi. Klovirning kallasida esa bu voqeani boshqalarga aytisammi yoki yo'qmi degan fikrlar g'uj'g'on o'ynay boshladi. U otxonaga kirib Moliy yotadigan supaga solingan somonni tuyog'i bilan ag'darib ko'rdi. Somon tagiga bir necha oq qand va har xil rangdagi lentalar yashirilgan edi. Bu voqeadan uch kun o'tgandan so'ng Moliy yo'qolib qoldi. Hayvonlar uning qayerda ekanligini uzoq vaqt bilisholmadi. Bir necha hafta o'tgandan keyin esa kaptarlar Vilingdonning bir chekkasida Moliyini ko'rganliklari haqida xabar keltirdilar. U pivoxona yonida to'xtab turgan qizil va qora rangga bo'yalgan chiroyli aravaning shotilari orasida turardi. Shaxmat nusxa matodan shim kiyib olgan va nihoyatda semirib qorinlari osilib ketgan, chertsa yuzlaridan qon tomadigan bir mayor Moliyning tumshug'ini silardi va unga oq qand berardi. Moliyning tanasidagi mo'ylarning yaqindagina qirtishlanganligi sezilib turardi. Sochlariga qizil lenta bog'langan edi.

Moliyning hayotidan mamnunligi sezilib turardi. Bu xabarni eshitgan fermadagi hayvonlar Moliyning nomini ikkinchi marta tilga olmay qo'ydilar.

Yanvar' oyida obi-havo juda qattiq keldi. Yer temir-metindek muzlagan, dalada ishlashning hech iloji yo'q edi. Katta molxonada ketma-ket majlislar o'tkazila boshladi. Kelasi yili olinadigan hosilning rejaları cho'chqalar tomonidan tuzilardi. Cho'chqalar fermada ro'y berayotgan siyosiy voqealarni nazardan qochirmasdilar. Hayvonlar bu tartibga ko'nikishgandi. Cho'chqalar tomonidan chiqarilgan qarorlar ko'pchilik hayvonlar tomonidan tasdiqlanishi shart edi. Hayvonlarning o'ziga ham qarorlar ustida bosh qotirmasliklari yoqib tushardi. Lekin Snoubol bilan Napoleon hech bir masalada kelisha olmas edi. Ular o'rtasidagi kelishmovchiliklar kuchayib borardi. Agar ulardan biri fermaning ekin eqiladigan maydoniga arpa ekishni taklif qilsa, ikkinchisi buni albatta rad etib suli ekish foydali ekanligini isbotlardi. Agar biri dalaning tuprog'i faqat karam ekish uchungina yaraydi desa, ikkinchisi bu yerga umuman ekin ekib bo'lmaydi, yerga oldin ishlov berish kerak, derdi. Har ikkalasining ham tarafkashlari bo'lib majlislar janjalga aylanib ketardi. Bir masala qayta-qayta muhokama qilinaridi. Snoubol hayvonlarning aqlini o'g'irlyadigan chiroyli nutqlari bilan ko'pchilikni ishontira olardi. Ammo Napoleon ovozi to'plashda uddaburonlik qilardi. Qo'ylar unga yaxshigina yordam berardi. Ular tortishuvni diqqat bilan kuzatib, Napoleonning fikrlarini doimo quvvatlab turardilar. Qo'ylar Snoubolning nutqlarini eng muhim va ta'sirchan joylarida uzib qo'yib вЂњIkki oyoqliklar -dushman, to'rt oyoqliklar -do'st" deb marashardi. Bu bilan boshqa hayvonlarning diqqatlarini o'zlariga tortishardi.

Snoubol Jounzning uyidan "Fermer va molboqar" jurnalining eski sonlaridan birini topib olgan edi. Uni qayta-qayta o'qirdi.

вЂњHayvon fermaвЂќsini rivojlantirish uchun turli rejalar tuzardi. Ferma yerlari atrofiga zovurlar qazish va mog'orlab ketgan ovqat qoldiqlarini qayta ishlatish haqida foydali maslahatlar berardi. Hayvonlarning axlatini ferma hovlisida qoldirish qo'shimcha ish kuchini va mehnatni talab qilishini asoslardi. Hayvonlar axlatlarini dalalarga o'zlari tashlashlari haqida kompleks reja tuzdi va uni hayotga tadbiq qilishga urina boshladi. Snoubol tomonidan taklif qilinayotgan takliflarni Napoleon tan olmasdi. Ularning o'rniga o'zining loyihalarini ham bermasdi. U haddan tashqari bosiq edi. Aftidan kimnidir yoki nimanidir kutayotganga o'xshardi. Ular orasidagi shamol tegirmoni haqidagi tortishuv, ayniqsa, juda keskin bo'ldi. Snoubol quriladigan shamol tegirmoni uchun hayvonlar turadigan joydan uzoqroq, bo'lgan kichkinagina bir tepalikni taklif qildi. Tepalikni o'rganib chiqib, shamol tegirmoni qurilishi uchun shu joyning qulayligini isbotlab berdi. Quriladigan shamol tegirmoni dvijok yordamida ishlab, hayvonlar yotadigan supalarga yorug'lik berishi hamda qish oylarida hayvonlar yotadigan binolarni isitishi ko'zda tutilgan edi. Snoubol shamol tegirmonining bug'doyni unga aylantirishi, elektr mashinalari yordamida sigirlarni sog'ish haqida to'lqinlanib gapirardi. Ferma Jounz hukmronligi davrida ham ibtidoiy mashinalar bilan ishlardi. Hayvonlar Snoubol va'da qilayotgan mashinalar haqida eshitmagan ham edilar. Shuning uchun ham hayrat bilan qo'loq solishardi. Yaylovda o'tlab yurib qilingan suhbatlar davomida Snoubol hayvonlarni lol qoldirardi. Kelgusida yaratiladigan turli elektr mashinalarini tasvirlab berib hayvonlarning aqlini shoshirardi. Oradan yetti hafta o'tganidan keyin shamol tegirmonining loyihasi tayyor bo'ldi. Snoubol shamol tegirmoni loyihasi bilan bog'liq mexanikaga oid bilimlarini mister Jounzga qarashli bo'lgan uch kitobdan o'rganardi. Har bir erkak o'z oilasi zaruriyatidan kelib chiqib ming bir hunarni bilishi kerak deb hisoblardi. Ayniqsa, g'isht terish qo'lidan kelmaydigan birorta ham hayvon bo'lmasligi kerak deb o'ylardi. Shamol tegirmonining loyihasini chizish uchun mister Jounz davrida yangi tug'ilgan qo'zilarni parvarishlash uchun ajratilgan xonani tanladi. Xonaning poli tekis edi. Shuning uchun ham ish kabinetiga aylantirgandi. Snoubol xonada kun bo'yi qolib ketardi. O'qiyotgan kitobining kerakli sahifasining bir tomoniga tosh bostirib qo'yardi, ikkinchi sahifasini esa panjalari orasiga olardi. Ikkinchi oyog'i bilan esa polga chizilgan loyihani mukammallashtirib borardi. Dumi esa devor soatining toshlari kabi u yoqdan bu yoqqa borib kelardi. Ba'zan boshini ko'tarib xursandchilik bilan "eh" deb yuborardi. Bora-bora shamol tegirmonining tishlari va parraklari loyihada mukammallashtirib borardi. Chigalliklar yechila borib shamol tegirmonining loyihasi xona polining yarmidan ko'pini egallab oldi. Boshqa hayvonlar chizmalarga umuman tushunmas edi. Shunga qaramay chiziq'larga qiziqsinishib obdan tikilishardi. Boshlarini chayqab hayratlanishardi. Loyihaning tayyor bo'lishini esa intiqlik bilan kutardilar. Hech bo'lmaganda kuniga bir marta hayvonlar aqli Snoubolning chizma chizishini tomosho qilish uchun kelishardi. Hatto hech nimaga aqli yetmaydigan tovuqlar va o'rdaklar ham loyihalarga qiziqishardi. Hayvonlar bo'r bilan chizilgan chizmalarni bosib olmaslik uchun ehtiyotkorlik bilan qadam tashlashardi. Faqat Napoleon kelmasdi, xolos. Napoleonning shamol tegirmoni qurilishiga qarshi ekanligini hamma hayvonlar bilishardi. Uning o'zi buni oshkora aytgan edi. Shunga qaramasdan kunlardan bir kuni kutilmaganda loyihani tekshirib ko'rish bahonasi bilan Snoubol ishlayotgan xonaga kirib keldi. Atrofni

sinchiklab qarab chiqdi. Loyihani ham yaqin kelib kuzatib chiqdi. So'ngra burnini bir necha marta tortib ko'zlarining kiri bilan Snoubolga ma'nodor nazar tashladi va birdaniga oyoqlarini ko'tarib turib loyiha ustiga siyib yubordi. So'ngra lom-mim demasdan orqasiga qaytib ketdi.

Fermadagi hayvonlar allaqachon ikki guruhga ajralib ketgan edilar. Ular shamol tegirmoni loyihasi va uning qurilishi haqida baqirib-chaqirib janjallashishardi. Snoubol qurilishning og'irligini inkor qilmasdi. Toslarni kesish, ulardan poydevor va devorlar ko'tarish oson ish emasligini tan olardi. Qurilish uchun yelkan, generator va kabellar kerakligini ta'kidlard, lekin ularni qayerdan sotib olishni aytmasdi. Hatto hayvonlar astoydil mehnat qilsalar qurilishni bir yilda tugatish mumkinligini va buning uchun esa hayvonlar haftaning har uch kunida hashar qilishi kerakligini ma'lum qilardi.

Napoleon oziq-ovqatni ko'paytirish, ishlab chiqarishni kuchaytirish haqida qayg'urardi. Agar fermadagi hamma kuch shamol tegirmoni qurilishi uchun sarflanadigan bo'lsa, hayvonlar och qolishi muqarrarligini qayta-qayta ta'kidlard. Snoubol esa chiroyli nutqlari va chaqiriqlari hamda hayvonlar aqlini o'g'irlyadigan shiorlari bilan haftaning uch kunida hashar yo'li bilan ishlashlariga rozi bo'lib ovoz berishga undardi. Napoleon esa oxurlaringizni yem va tertlarga to'liq bo'lishi va oziq-ovqatlarningizning serobgarchiligi uchun oyoqlaringizni ko'taring derdi. Xullas, hayvonlar ikki lagerga bo'lingandilar. Ular orasida faqat Benyamingina betaraf edi. Uning nazarida, oziq-ovqatni ko'paytirish ham, shamol tegirmonini qurish ham fermadagi hayvonlar hayotini yaxshilashga yordam bermasdi. Shamol tegirmoni qurilsa ham va qurilmasa ham turmush bir tekisda davom etib, umr o'taveradi, shamol tegirmoni qurilishi yaxshilikka olib bormaydi deb o'ylardi.

Hayvonlar shamol tegirmoni qurilishidan tashqari "Hayvon ferma"ning himoyasi ustida ham bosh qotirishardi. Insonlar "Molxona janggi"da mag'lub bo'lishgan bo'lsa ham xohlagan paytlarida yana hujum boshlashlarini bilishardi. Birdan bostirib kelib fermani Mister Jounzga olib berishlari tabiiy hol edi. Buni har qadamda kutish mumkin edi. Hayvonlar buning o'ziga xos sabablari borligini sezib turishardi. Insonlar ustidan g'alaba qozongan hayvonlar haqidagi xabarlar yer yuzi hayvonlari orasida tezlik bilan tarqalib borardi. Fermalardagi hayvonlarning tinchi buzilib borayotgandi. Ular ham insonlarga qarshi qo'zg'alon ko'tarish harakatiga tushib qolishgan edi. Mudofaa muammosini hal etishda ham, odatdagidek, Napoleon Snoubol bilan kelisholmasdi. Napoleon qurollar sotib olib, hayvonlarni qurol ishlatishga o'rgatishni muhim deb hisoblard. Snoubol esa yer yuzidagi fermalarda yashovchi hayvonlar orasida targ'ibot ishlarini olib borish uchun kaptarlarni safarbar qilishga ko'proq ishonardi. Kaptarlar yordamida qo'zg'alonga undashning afzalliklari haqida jo'shib va'z aytardi. Yer yuzidagi mavjud fermalarning hammasida qo'zg'alon ko'tarilib, g'alaba qozonadigan bo'lsa, himoyani o'z-o'zidan keragi bo'lmaydi deb tushuntirishga harakat qilardi. Hayvonlar, avval, Napoleonn tinglashardi, so'ngra Snoubolga quloq solishardi. Lekin qaysi biri haq ekanligini ajratolmasdilar. Shuning uchun ulardan qaysi birining nutqi ta'sirchan bo'ladidigan bo'lsa o'sha yoqqa qarab og'ib ketishardi. Aravani ot qaysi tomonga tortadigan bo'lsa o'sha tomonga qarab yo'l olishardi.

Nihoyat, Snoubol shamol tegirmonining loyihagini tugatganligini e'lon qildi. Uning qurilishi haqidagi masalani hayvonlar orasida ovozga qo'yish vaqti ham yetib keldi. Masala yakshanba kuni o'tkaziladigan majlisda hal etiladigan bo'ldi. Hayvonlar katta molxonaga yig'ilishdi. Shamol tegirmoni haqida gapirish uchun Snoubolga so'z berishdi. U shamol tegirmonining qurilishini himoya qilib, salobat bilan ta'sirchan ma'ruza qila boshladi. Qo'ylar marashib, uning so'zini tez-tez bo'lib turishardi. So'ngra Napoleon o'rnidan turib shamol tegirmoni haqida Snoubol aytgan gaplar safsata ekanligini tushuntira boshladi. So'ngra hayvonlarni ovoz bermasliklarini so'rab darhol o'tirdi. U nihoyatda qisqa gapirdi. O'zini bu masalaga beparvodek tutardi. Birdan Snoubol sapchib oyoqqa turdi. Qo'ylar maray boshlashdi. Snoubol qo'ylarning tovushini bosib tushadigan baland ovozda gapira boshladi. Shamol tegirmonining qurilishiga ovoz berishlariga undab, o'z fikrlarini asoslay boshladi. Ovoz berishda teng ikki guruhga ajralib ketgan hayvonlar Snoubolning maroqli va chiroyli ma'ruzasi ta'siriga berila boshladilar. Snoubol "Hayvonlar ferma"ning kelajagi haqida kuyib-yonib gapirardi. Hayvonlarning ko'zi o'ngida kelajakdagi farovon hayot manzaralari tiklanardi. Qo'l mehnatini hayvonlar yelkasidan ko'tarib yuboradigan, elektr quvvati bilan ishlaydigan mashinalar yaratilishi haqida va'da berardi. Faqat hozirda hayvonlar ko'rib turgan somon maydalovchi mashinalar emas, balki yer haydovchi traktorlar, hosil yig'uvchi kombaynlar, xashaklarni bosib mahkam bog'lovchi va donlarni navlarga ajratuvchi texnikalarning yaratilishi haqida bashorat berardi. "Hatto,-derdi u,- elektr quvvati yordamida hayvonlarni jarohlik yo'li bilan davolash mumkin. Undan tashqari, elektr nurlari yordamida har bir hayvon supasiga yorug'lik uzatilishi, issiq va sovuq suvlarning olib borilishi, xonalarning isitilishi haqida so'zlardi. Hayvonlar butun xotirlarini jamlagan holda diqqat bilan quloq solishardi. Ularning yuzlaridan Snoubolga xayrixoh, ekanliklari sezilib turardi. Ularning shamol tegirmoni qurilishi uchun ovoz berishlariga shubha ham qolmagan bo'lardi.

Kutilmaganda Napoleon sakrab o'rnidan turib ketdi. Ko'zlarini o'qraytirib g'azab bilan Snoubolga qaradi va hayvonlar shu paytgacha eshitishmagan vahimali ovoz bilan chiyilladi. Tashqaridan esa hayvonlarni dahshatga soladigan xurish eshitildi. So'ngra bronza ko'zli bo'yinbog' taqqan 9 it harbiycha qadam tashlab molxonaga kirishdi va to'g'ri Snoubolga qarab yurdilar. Itlar tishlarini g'ijirlatib, g'azabga mingan holda irrilab, o'zining ustiga bostirib kelayotganligini ko'rgan Snoubol qo'rqib ketganidan shoshib qoldi. Lekin tezda hushini yig'ib olib molxona eshigidan qochib chiqishga ulgurdi. Itlar uning orqasidan quviy boshlashdi. Yuz berayotgan voqeani ko'rib hayvonlarning tillari aylanmay qoldi. Qo'rqanlaridan dag'-dag' titrashib, ularni so'zsiz kuzatishardi. Lekin Snoubol ferma tashqarisidagi katta yo'lga tutashib ketgan yaylov bo'ylab yugura boshladi. U itlar kabi tez yugurolmasdi. Lekin chopog'on itlar ham uni tutisholmasdi. Itlar yetay-etay deb qolganlarida Snoubolning oyoqlari qayrilib yerga yuz tuban ag'darilib tushdi. Itlarning tutib olishlari aniqqa o'xshardi. Snoubol o'rnidan jon holatda turib yana oldinga intildi. Itlar yana yaqinlashib qolishdi. Hatto ulardan biri Snoubolning dumini tishlab olishiga ozgina qoldi. Dumini darhol o'ziga tortib olib bor kuchi bilan qocha boshladi. Itlar tutib olay deganlarida "Hayvon ferma" sini o'rab olgan to'siqning teshigidan o'tib ketdi. Snoubol itlarga ko'rinmay qoldi. Jazavasi quzib ketgan itlar bir zum jim qolishdi. So'ngra orqalariga qaytdilar. Dadil va og'ir qadamlar bilan molxona binosiga qaytdilar. Avvaliga hayvonlar dahshat soluvchi itlarning qayerdan kelib qolganligini anglasholmadi. Lekin kucho'qlar terisini qoplab olgan junlarning rangidan va ularning sumbatidan Jesiy va Blyubelning laychalari ekanligini tushunishdi. Ularning yoshlari katta bo'lmasa ham bahaybat ko'rinardilar. Bo'ridek shiddatli va qo'rqinchli bo'lgan bu itlarni Napoleonning atrofida aylanib yurishganini hayvonlar ko'rishgandi. Itlar avvallari mister Jounzning oldida dumlarini likillatib qanday erkalangan bo'lsalar Napoleonning oldida ham shunday erkin harakat qilishardi. Hayvonlar buni sezib turishardi. Napoleon qari mayor nutq so'zlagan polning baland qismiga chiqdi. Hayvonlarni bir-bir ko'zdan kechirib, bir oz to'xtaldi. So'ngra bugundan boshlab yakshanba kunlari majlislar bo'lmasligini e'lon qildi. Shuncha paytdan beri majlislar uchun hayvonlarning juda ko'p vaqtlari sarf bo'lganligini aytib taassuflandi. Bundan keyin "Hayvon ferma"sidagi barcha muammolarni cho'chqalardan tashqil topgan maxsus qo'mita hal qilishligini e'lon qildi. Bu maxsus qo'mitaga Napoleon rahbarlik qilardi. Qo'mita a'zolari masalalarni hal qilish uchun alohida yig'ilishardi. Qabul qilingan qarorlarni fermadagi hayvonlarga yetkazish bilan

shug'ullanishardi. Hayvonlar har yakshanba kuni chaqirilardi. Lekin ular Napoleon bilan harbiychasiga salomlashishar va "Angliya hayvonlari" qo'shig'ini kuylashar, so'ngra qabul qilingan qarorlarni eshitishardi. Snoubolning fermadan haydalishi ular orasida norozilik tug'dirgan bo'lsa ham buni tillariga chiqarishga hayiqishardi. Agar oldingi majlislarda bo'lganidek munozaralar bo'lib turganida e'tirozlarini bildirishga imqoniyat topishardi. Afsuski, hayvonlar endi u imqoniyatlarini yo'qotib bo'lgandilar. Bokser nihoyatda notinch edi. Boshini qimiratib, sochlarini silkitib, quloqlarini dikkaytirib fikrlarini bir joyga to'plashga va bo'lib o'tgan voqeani tushunishga harakat qilardi. Lekin Snoubolning haydalisiga aytarli sabab topolmasdi. Majlis voqealarini xayolida qayta-qayta tiklardi. O'sha majlis o'tkazilgan kuni oldingi qatorda o'tirgan to'rtta yosh cho'chqa bo'lib o'tgan voqeani ma'qullamaganliklarini bildirishib chiyillashdi. Ular birdaniga baravariga o'rnilaridan turishib, bir-birlariga so'z bermay, baravariga gapira boshlashdi. Shunda Napoleonning atrofini o'rab o'tirgan itlar xavf solib irrilashdi. Cho'chqalar darhol jim bo'lishib, joylariga o'tirishdi. Qo'ylar "To'rt oyoqliklar do'st, ikki oyoqliklar dushman" deb maray boshlashdi. Chorak soat davom etgan muhokama shu tarzda yakunlangandi.

Snoubol haydalgandan keyingi yakshanbada Skuiylir cho'chqalar qo'mitasi qabul qilgan qarorlar bilan hayvonlarni tanishtirdi: - O'rtoqlar,-deb so'z boshladi Skuiylir,- O'rtoq Napoleon mashaqqatli va og'ir vazifani bajarishni o'z ustiga olayapti Bu bilan fermaning iqtisodini mustahkamlash qo'zg'alon g'alabasi bergan ozodlikni qo'limizda saqlab qolish uchun o'zini fido qilmoqda. Men sizlarni ishontirib aytamanki, Napoleon yelkasiga olayotgan bu ma'suliyat talab qiluvchi ish, haqiqatan ham, qurbonlik talab qiladigan mehnatdir. O'rtoqlar, rahbarlikni rohat va farog'at deb o'ylamang. Aksincha, "Hayvon ferma"sini boshqarish uchun chuqur bilim, shijoat va ma'suliyat kerak bo'ladiki, hayvonlarning teng huquqligini Napoleonchalik tushunadigan va uni himoya qiladigan hayvon oramizdan topilmaydi. Haqiqatda, sizlarning mustaqil fikrlashlaringizni ko'rib o'rtoq Napoleon nihoyatda xursand bo'ladi. Lekin, o'rtoqlar, afsuski, ba'zan chalkashliklar orasida o'ralashib qolganligizni bilmay qolasiz. O'zingiz tanangizga yaxshilab o'ylab ko'ring. Shoshma-shosharlik bilan chiqarilgan noto'g'ri xulosalar bizni xarob etishi mumkin. Jiddiy o'ylab ko'rganimizdan keyingina bir fikrni aytishga o'rganishimiz kerak. Ya'ni yetti o'lchab bir kesmasak, bo'lmaydi, o'rtoqlar! Axir Snoubol tomonidan o'rtaqa tashlangan shamol tegirmonining qurilishi tinka-madorimizni quritib yuborishi haqida o'ylab ko'rdingizmi?! O'ning yorug'ida ham ishlashimizga majbur qilayapti. Bu esa hayvonlar huquqini hurmat qilmaslik ekanligini bilasizmi? Bu jinoyat qilish bilan barobardir. Ha o'rtoqlar, Snoubolning qilmoqchi bo'lgan ishlarining hammasi jinoyat edi. U hayvon manfaatlarini himoya qilmaydigan va o'zi haqidagina qayg'uradigan jinoyatchi edi. Agar Snoubolga ergashganimizda ahvolimiz nima bo'lishini tasavvur qila olasizmi! Yo'q, tasavvur eta olmasiz! Bizning holimizga maymunlar yig'lardi

- "Molxona janggi"da mislsiz qahramonlik ko'rsatgan edi,-dedi past ovoz bilan qaysidir hayvon.

- Qo'zg'alon g'alabalarini saqlab qolishimiz uchun qahramonlikning o'zi kamlik qiladi,-dedi Skuiylir. Hozirgi kunimizda sodiqlik haqida o'ylashimiz kerak. Bugungi kunda "Hayvon ferma"sini boshqarayotgan rahbarga bo'ysunish juda muhim. Shuni aytish kerakki, "Molxona janggi"da Snoubolning ko'rsatgan xizmatlariga berilgan baho nihoyatda oshirib yuborilgan. O'rtoqlar, hozir intizom, temir intizom kerak! Intizom bugungi zaruriyatdir! Bir noto'g'ri yoki yanglish qo'yilgan qadam dushmanlarimiz bo'lgan ikki oyoqli insonlarning qaytib kelishiga yo'l ochadi. O'rtoqlar, sizlar esa, albatta, Jounz va uning xizmatchilarining qaytib kelishini istamaysiz! Hayvonlar bahsni to'xtatdilar. Chunki Jounz va uning xizmatkorlarining fermaga qaytib kelib, o'zlarining ustidan hukmronlik qilishlarini xohlashmasdi. Agar deb o'ylashardi hayvonlar, yakshanba kunlari bo'ladigan majlislar Jounzning qaytib kelishi uchun yo'l ochadigan bo'lsa, ularni to'xtatish kerak. Bokser hayvonlarning xayoliga kelgan bu fikrlarni shunday ifodaladi:

- O'rtoqlar, Agar o'rtoq, Napoleon shunday deb aytayotgan bo'lsa, bunga ishonavering Shu kundan boshlab Napoleonning so'zlarini tasdiqlash Bokserning doimiy shioriga aylandi. Uning "Men ko'proq va yaxshiroq ishlashim kerak" degan shiori yoniga "Napoleonning hamma so'zlari haqiqat" degan yana bir shior qo'shildi. Bokser keyingi hayoti davomida har ikkala shiorga amal qilgan holda yashay boshladi.

Qishki sovuqlar ketib, obi havo bir oz yumshadi. Ferma dalalarida bahorgi ishlar boshlab yuborildi. Snoubolning shamol tegirmoni loyihasi chizilgan xona mahkam berkitildi. Bu bilan chizmalarning yo'qolib ketmasligining oldi olingan edi. Yakshanba kuni soat o'nlarda hayvonlar molxonaga yig'ilishdi. Ular kelasi hafta uchun beriladigan topshiriqlarni olishlari kerak edi. Shu kuni mevazor chekkasiga dafn etilgan qari mayorning qabri ochildi. Bosh suyagining skleti olinib, bayroq osilgan tayoq tagidagi to'ngak yoniga qo'yildi. Hayvonlar yig'inlar o'tkaziladigan molxona binosi ichiga kirishayotganlarida baland qilib ko'tarilib, havoda hilpirayotgan bayroq ostidan o'tishar, bosh suyagi chig'anog'i qo'yilgan bayroq, ostidan uzoqroq yurib, unga izzat-hurmat ko'rsatishga majbur bo'lishdi. Majlisning tartibi o'zgargan edi. Napoleon, Skuiylir va iste'dodli shoir deb tan olingan Minimos uchalarini minbarga chiqib o'tirishdi. Ularning atrofini 9 ta yosh it doira bo'lib o'rab olishdi. Ular orqasida esa xuddi xor kapellalaridagi ashulachilar qatori kabi boshqa cho'chqalar o'tirishardi. Ularning orqasidan boshqa hayvonlar joy olishdi. Hamma hayvonlarning diqqati minbarda savlat solib o'tirgan uch cho'chqaga karatilgandi. Napoleon bir haftalik topshiriqlarni keskin va qat'iy ohangda yo'g'on ovoz bilan tushuntirdi. So'ngra "Angliya hayvonlari" qo'shig'ini bir marta kuylashganlaridan keyin tarqalishdi.

Snoubol fermadan haydalganining uchinchi yakshanbasida Napoleon shamol tegirmonining qurilishini boshlash haqida buyruq berdi. Buni eshitgan hayvonlar hayron bo'lishdi. Napoleonning o'z qarorini o'zgartirish sababini bilolmasdan aqlari shoshib qoldi. Ular lol qolib bir-birlariga qarardilar. Napoleon ishning murakkabligi va qiyinchiliklari haqida mufassal gapirdi. Hatto qurilishga sarflanadigan mablag' hisobiga hayvonlarga beriladigan oziq-ovqatning miqdori kamayishi mumkinligini aytib ularni ogohlantirdi. Shamol tegirmonining loyihasi mukammal tayyorlangandi. Uning ustida maxsus tuzilgan cho'chqalar guruhi uch hafta davomida tinimsiz ishladi. Ishchi guruhi shamol tegirmoni qurilishiga bir yil sarflanishi haqidagi o'zining xulosasini berdi. Skuiylir bo'lsa hayvonlar orasida o'zining tushuntirish ishlarini boshlab yubordi. U kechqurunlari hayvonlar qonini qizitib yuboradigan otashin nutqlarni so'zlardi:

- O'rtoqlar,-deb murojaat qilardi u. Hurmatli rahbarimiz o'rtoq Napoleon shamol tegirmoni qurilishiga hech qachon qarshilik qilgan emaslar. Aksincha, uni himoya qilishgandi. Snoubolning go'daklar boqiladigan xona poliga chizilgan loyihasi asli hurmatli rahbarimiz Napoleon tomonidan yaratilgandi. Snoubol uni o'g'irlab olgan edi. Shamol tegirmonining qurilishi haqidagi g'oya ham dastlab o'rtoq Napoleon tomonidan ko'tarilgandi. Shu payt hayvonlar orasida o'tirgan qaysi bir hayvon:

- Nima uchun o'rtoq Napoleon shamol tegirmoni qurilishiga qarshilik qilgandi?- deb so'rab qoldi.

- O'rtoqlar,-deb javob bera boshladi Skuiylir,- bizning rahbarimiz o'rtoq Napoleon xushyor, epchil va uddaburon. U ro'y beruvchi voqealarni oldindan ko'ra olgani hamda Snoubolning yashirin harakatlarini sezganligi uchun ham shunday qilgan edi. Asl haqiqatni ochib, Snoubolning dushmanligini fosh etish maqsadida shamol tegirmonining qurilishiga qarshilik qilishgandi. Bizning

g'alabamizni ko'rolmagan Snoubol xavfli dushmanimiz edi. Ta'sirchan va chiroyli ma'ruzalari bilan o'zining asli maqsadini niqoblab olgandi. "Hayvon ferma" sini ichidan turib tashqi dushmanlarimiz bilan hamkorlikda qo'poruvchilik ishlarini olib borishga tayyorgarlik ko'rayotgandi. Dono rahbarimiz o'rtoq Napoleon esa buni sezib turardi. Shu bois ham shamol tegirmonining qurilishiga o'zini qarshidek qilib ko'rsatgandi. Bu Snoubolning dushmanligini fosh etish va bo'ladigan ko'ngilsiz ishlarning oldini olish uchun qilingan ishlardan biri edi. Buni harbiylar va siyosatchilar taktika deb ataydilar. Skuiylir oxirgi jumlaning uch marotaba baland ovoz bilan takrorladi va dumini likklatib, maroq bilan ayyorona kuldi. Hayvonlar bu so'zning ma'nosini aniq tushunmasalar-da Skuiylirning so'zlaridagi ishonitirish quvvati ularning aqllarini o'g'irlab, muhokama qilish hofizasini yo'qotdi. Uning ustiga itlardan uchtasi tahdid solib irriladi. Natijada Skuiylirning fikrlari hayvonlar tomonidan so'zsiz qabul qilindi.

VI- bob

Hayvonlar yil bo'yi qul kabi ishladilar. Ularning yotishida ham turishida ham halovat yo'q edi. Buning ustiga berilayotgan ovqat ham qornilarini to'ydirmasdi. Shunga qaramay hayvonlar juda xursand edilar. Shikoyat qilishni xayollariga ham keltirishmasdi. "Hayvon ferma" sining kelajagi uchun jonlarini ham qurbon qilishga tayyor turardilar. Ular amalga oshirishayotgan ishlarga ma'suliyat bilan qarashar va kelasi avlodning farovon yashashi uchun bo'larni zaruriyat deb hisoblashardi. Hayvonlar bahor va yoz oylari haftasiga 60 soatlab ishladilar. To'rt soatgina uxlash uchun vaqt berilardi. Hattoki Napoleon yakshanba kunlarini ham tushlikdan keyin ish vaqti deb qaror qilganida norozilik bildirmadilar. Ular uchun ishlash ko'ngilli edi. Buning ustiga ishga kelmagan hayvonlarning yemishi kamaytirilardi. Hayvonlar chiqarilgan qarorlarga asosan ish joylarida boshqa vazifalar bilan ham shug'ullanishlari lozim edi. Shamol tegirmoni qurilishi bilan band bo'lgan hayvonlarning yig'im-terim ishlariga e'tibori susaydi. Natijada bu yilgi hosil o'tgan yillardagiga qaraganda pasayib ketdi. Bu yil hosil allaqachon yig'ib olinganiga qaramasdan yerlar hanuzgacha haydovsiz yotardi, keyingi yil olinadigan hosil uchun yerlarni tayyorlash ishlari o'lda-jo'lda yotardi. Ekish uchun urug' ham tayyorlanmayotgandi.

Bu yil qishning og'ir kelishini oldindan sezish mumkin edi. Shamol tegirmoni qurilishi ham kutilmagan qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgandi. ВЪНЪHayvon fermaВЪksi hovlisida ohaktosh qoni bor edi. Hojatxonadan esa juda ko'p miqdorda qum va sement topildi. Qurilish materiallari tayyorlangan bo'lishiga qaramasdan hayvonlar ishni boshlay olishmasdi. Bunga to'sqinlik qiluvchi muammolar talaygina edi. Ayniqsa, qurilish uchun ishlatiladigan toshlarni kesish va ularni qanday kattaliklardagi bo'laklarga bo'lish hayvonlarni o'ylantirardi. Fermada bolg'a, temir va lomdan boshqa asbob-uskunalar yo'q edi. Ular odamlarning ishlatishi uchun mo'ljallangan bo'lib, hayvonlar oyoqlari bilan tuta olmasdilar. Hayvonlar bir necha haftalar davomida qiynalib ishladilar. Ishlarining hech unumi bo'lmasdi. Shunda qaysidir hayvon yangi taklifni o'rtaq tashladi. Yerning tortishish qonunidan foydalanish kerakligini aytib qoldi. Bu taklifni hayvonlar quvvatladilar. Tosh qonida ulkan toshlar juda ko'p edi. Ularni sudrash uchun ham katta kuch kerak bo'lardi. Sigirlar, otlar, qo'ylar, ya'ni oldingi oyoqlari bilan narsa tuta oladigan barcha hayvonlar (eng qiyin va keskin daqiqalarda hatto cho'chqalarning o'zlari ham bunga qo'shilishardi) arqon bilan bog'langan katta toshlarni qiyalikdan ohak qoni tepasiga sudrashardi. Tepalikdan olib chiqilgan toshlar keyin pastga yumalatib yuborilardi. Pastlikka zarb bilan tushgan toshlar bo'laklarga bo'linardi va maydalangan toshlarni sudrash oldingiga nisbatan osonroq bo'lardi. Ularni shamol tegirmoni qurilishi mo'ljallangan yerga otlar, aravalar bilan tashishlari mumkin bo'lardi. Hattoki Benyamin ham eski aravalarga o'zlarini qo'shdilar. Qo'ylar katta-katta tosh bo'laklarini kuchlarining boricha sudrashardi.

Yozning oxirgi kunlariga kelib shamol tegirmoni qurilishi toshlar bilan ta'minlangandi. Cho'chqalarning yetakchiligi va nazorati ostida nihoyat qurilish ishlari boshlandi. Lekin ish juda sekinlik bilan borardi. Qurilish ishlari bilan shu vaqtga qadar shug'ullanishmagan, tosh urish, loy qilish, devor tiklash kabi hunarlarga malakalari yetishmasdi. Ba'zi qo'ylar faqat bir toshni tepalikka sudrab chiqish bilan ish kunini tugatar edi. Ba'zan esa tepalikdan tashlab yuborilgan tosh maydalanmay qolib, kun bo'yi qilingan mehnat samarasiz ketardi. "Shamol tegirmoni" qurilishidagi hech bir ishni Bokser bajarib bo'lmasdi. Nihoyatda baquvvatligi va kuchliligi ishni bir oz siljitardi. Uning kuchi boshqa hamma hayvonlarning kuchi bilan teng edi. Hayvonlar arqonga bog'langan ulkan toshlarni qiyalik bo'ylab tepalik tomon tortayotganlarida, ba'zan tosh pastlikka sirg'ana boshlardilar. Shunday paytlarda Bokser darhol yordamga shoshardi. Yakka o'zi bor kuchi bilan arqonni tepalikka tortardi. Nishablikdan tepalikka qarab tortilayotgan toshga hayvonlar hayrat bilan qarardilar. Bokserning hansirab nafas olishi, ko'kraklarining dam bosganday ko'tarilib tushishi, tuyoqlarini og'ir ko'tarib qadam bosishi, muskullarning zo'riqish natijasida bo'rtib chiqishi, butun tanasini reza-reza terlar bilan yuvilishi hayvonlarning havasini keltirardi. Bu holatni tomosho qilib zavqlanishardi. Ba'zan Klovir kuchni meyoridan ortiqcha sarflashning zararliligi haqida gapirib Bokserni ogohlantirardi. Lekin Bokser bunday gaplarga quloq solishni xohlamasdi. Uning o'ziga xos nuqtai nazari mavjud edi. Bokser hamisha tinimsiz mehnat qilish, hayrat va shijoat, ma'suliyat bilan ishlash kerak deb o'ylardi. U Napoleonnini juda hurmat qilardi. Har qanday masalalarda uning haq ekanligiga ishonardi. O'z oldida ko'ndalang bo'lgan muammolarni yuqoridagi e'tiqodlariga asoslanib osongina hal etardi. Bokser har kuni boshqa hayvonlarga qaraganda qirq minut erta uyg'otardi. Xo'roz bilan kelishib olgandi. Xo'roz uni uyg'otish uchun alohida qirq minut oldin qichqirardi. Bokser boshqa hayvonlardan oldinroq, tosh qoniga borib, ish boshlardilar. Maydalab qo'yilgan toshlarni yo'lq'iz o'zi qurilayotgan shamol tegirmonining yoniga tashirdi.

Hayvonlar butun yoz davomida kunlarini ko'ngilli o'tkazdilar. Ularning bosh qashishga ham qo'llari tegmadi. Ishlari juda ko'p va og'ir mehnat talab qilardi. Ovqat esa mister Jounz davridagiga qaraganda kam berilardi. Shunga qaramay hayvonlarning kayfiyatlarini juda baland edi. Fermadagi umumiy ahvolni yomon deb bo'lmasdi. Hayvonlar faqat o'zlari haqidagina o'ylashga odatlandilar. Endi odamlarni boqish haqidagi muammolar ularni qiziqitirmasdi Fermada muvaffaqiyatsizliklar juda ko'p bo'lishiga qaramay, hayvonlar tushkunlikka tushmasdilar. Chunki ular farovon kunlar, to'kin-sochinlik haqida berilgan va'dalarga umid bog'lashar, shuning uchun ham astoydil mehnat qilishardi. Ayniqsa, dalalarni yovvoyi o'tlardan mirishkorlik bilan tozalashardi. Har qanday berilgan topshiriqni aniq, puxta, mukammal bajarardilar. Bu xususiyatlar, ya'ni topshiriqni ma'suliyat bilan bajarish hissi hattoki odamlarda ham topilmasdi. Hayvonlar yaylovlarda yetishtirilayotgan hosilni o'g'irlashni xayollariga ham keltirishmasdi. Shuning uchun yaylovlar va mevazorlarni inson hukmronlik qilgan davrdagidek to'siqlar bilan o'rashning ham hojati yo'q edi. Natijada juda ko'p mehnat va mablag'ni talab qiladigan to'siqlar va panjaralar muammosi hayvonlarni o'ylantirmadi.

Yoz oyining oxirlariga kelib hayvonlar oldidagi muammolar ko'payganidan ko'paydi. Ayniqsa, parafin moyining iplari, itlar uchun biskvit, taqalar tayyorlash uchun temir kabilar suv bilan havoday zarur bo'lib qoldi. Ularni fermaning o'zida tayyorlashning imqoni yo'q edi. Dalalarga ekin ekish uchun urug'lik va turli ximiyaviy o'g'itlar ham kerak edi. Ish asboblari ham yetishmas edi. Shamol

tegirmoni qurilishi uchun kerakli ayrim mexanizmlarni ham chetdan olib kelish zaruriyati tug'ildi. Bularni qayerdan, qanday olib kelishni hayvonlar bilishmasdi. Shuning uchun ham ular jiddiy o'ylay boshladilar. Yakshanba kunlari bo'ladigan majlislarning birida Napoleon haftalik vazifalar bilan hayvonlarni tanishtirish bilan birga ferma hayotiga yangi bir qonunni tadbiiq etmoqchi ekanligini e'lon qildi. Bu qo'shni fermerlar va shahar bilan savdo-sotiq aloqalariga kirishish haqidagi qaror edi. Bu qarorning qabul qilinishi "Hayvon ferma"sida savdo-sotiqni rivojlantirish uchun emas, balki ferma hayvonlarining ehtiyojini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan edi. Shu yilning o'zidayoq Napoleon pichan raqamlari va bug'doydan olingan hosilning bir qismini sotishga fermerlar bilan shartnoma tuzishga majbur bo'ldi. Shamol tegirmonining qurilishini tezlatish uchun bir oz pul jamg'arishi kerak edi. Shuning uchun fermadagi hayvonlarning yemishi uchun kerak bo'ladigan tuxumlarni ham Vilingdonda sotishni rejalashtirdi.

- Tovuqlar, -dedi Napoleon, - bu qarorni, albatta, qabul qilishlari va olib borilayotgan shamol tegirmonining qurilishiga tuxum tug'ishni ko'paytirish bilan o'z hissalarini qo'shishlari kerak. Hayvonlarni qarorning bir nozik nuqtasi o'ylantirayotgan edi. Agar bu qarorga amal qilinadigan bo'lsa, insonlar bilan o'zaro munosabatga kirishga majbur bo'lishardi. Ayniqsa, insonlar bilan bo'ladigan pulli muomalalar, savdo-sotiq qilish haqidagi fikrlar ularni bir oz cho'chitardi. Hayvonlarning ba'zilar mister Jounz quvilgandan keyin qabul qilingan qonunning "Insonlar bilan aloqa qilmaslik" haqidagi moddasini esladilar. Ayrimlari esa xayollariga shunchaki bir keltirib qo'ya qoldilar. Napoleon v Ёњ Yakshanba kunlari o'tkaziladigan majlislarni tugatishv Ёќ haqidagi qarorini e'lon qilganida e'tiroz bildirgan to'rtta yosh cho'chqalarning ovozlari hayvonlar e'tibor berishmadi. Itlarning jahl bilan irrilashlari ularning ovozlari o'chirdi. Keyin odatdagiday qo'ylar "To'rt oyoqlilar - do'st, ikki oyoqlilar - dushman" deb baland ovoz bilan maray boshladilar. Shu bilan bir zungina davom etgan e'tiroz bostirildi. Nihoyat Napoleon jimlikni saqlash uchun oldingi oyoqlarini ko'tardi. Qaror munosabati bilan ayrim masalalar ustida kelishib olish zaruriyati tug'ilganini aytdi.

Hayvonlarning to'g'ridan to'g'ri odamlar bilan aloqaga kirishmasliklari ogohlantirilib, qaror moddasiga amal qilish kerakligi haqida uzundan uzoq gapirdi. So'ngra bu muammoning ma'suliyatini o'zi bo'yniga olishga va'da berdi. Vilingdonda yashaydigan advokat Vimper insonlar bilan bo'ladigan savdo-sotiq muomalalarida vositachilik qilishga yollanganini, har dushanba kuni "Hayvon ferma"siga kelib, zaruriy masalalar bo'yicha maslahatlashishga rozilik berganligini aytdi. Napoleon odatdagiday o'zining nutqini v Ёњ "Hayvon ferma"si abadiy yashasin!v Ёќ degan shior bilan tugatdi. Hayvonlar "Angliya hayvonlari" gimnini birgalikda aytishganidan so'ng tarqalishdi.

Skuiylir hayvonlar orasida yurib qaror haqidagi fikrlarga quloq soldi. Bu qarorga qarshilik ko'rsatish befoyda ekanligini tushuntirdi. E'tiroz bildirishning hojati yo'q ekanligini aytib, ularni tinchlantirdi. Snoubol tomonidan tarqatilayotgan yolg'on-yashiq gaplarga e'tibor bermasliklarini ta'kidladi. Qabul qilingan qarorga ikkilanib qarayotgan ayrim hayvonlarning shubhasini tarqatib yuborishga harakat qilardi:

- O'rtoqlar, qarorning matni bilan ming afsuski, o'zlaringiz tanisha olmaysizlar, agar qaror matnini o'qib chiqqa olsangiz edi, butun haqiqatni, ya'ni uning maqsadi va mohiyatini anglab yetardingiz. Hozir esa qarorning ma'nosini tush kabi g'ira-shira tasavvur eta olasiz. O'rtoqlar, siz menga ishonib, haqiqat shu qarorda, uning hayotga tadbiiq qilinishida hayajon bilan aytilgan bunday so'zlardan so'ng hayvonlardagi ishonchsizlik asta-sekin yo'qolib borardi.

Haftaning har yakshanba kunlari mister Vimper kelishuvga binoan fermada paydo bo'ladi. U pixini yorgan mug'ombir va tulkiday ayyor edi. U hamisha sochlarini bakenbort qilib tarab yurar va asosan advokatlik, kichik biznes bilan shug'ullanardi. U v Ёњ Hayvon fermav Ёќsiga vositachi kerakligini, xizmat haqi ham ko'ngildagiday bo'lishini boshqalardan ko'ra oldinroq ilg'ab oldi. Bu esa uning fahmi-farosati o'tkirligidan dalolat berardi. Hayvonlar mister Vimperning fermaga kelib ketishiga qo'rqinch bilan qarardilar. Vimper ham ehtiyotkorlik bilan muomalada bo'lardi va o'zini haddan tashqari sipo tutardi. Fermada ro'y berayotgan voqealarga aslo aralashmasdi. Hayvonlar ikki oyoqlab yuradigan insonga buyruq berayotganlaridan lazzatlanishar va o'zlarining xizmatlarini qildirashayotgani uchun ich-ichlaridan mag'rurlanishardi. Hayvonlarning o'zlariga bo'lgan ishonchlari tobora ortib borardi. Odamlar bilan bo'ladigan navbatdagi shartnomalarga tayyorlanishardi. Shunga qaramay hayvonlar insonlar bilan hamma sohalarida munosabatlarga kirishishni istashmasdi. O'zlari zarur deb topgan masalalar bo'yichagina aloqaga kirishmoqchi edilar.

Insonlar v Ёњ Hayvon fermav Ёќsida bo'layotgan voqealardan bexabar edi. "Hayvon ferma"si borligini bilardilar, xolos. Bu fermaga nisbatan esa nafratlari kuchli edi. Nafratlari esa kundan kunga g'azabga aylanib borardi. Insonlar "Hayvon ferma"sining sinib, o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketishiga diniy oyatlar va tushunchalarga ishonishgani kabi ishonishardi. Ular olib borayotgan shamol tegirmonining qurilishini muvaffaqiyatsizlik bilan tugashini bashorat qilardilar. Odamlar pivoxonalarga to'planib "Hayvon ferma"sida qurilayotgan shamol tegirmoni haqida uzoq bahslashishardi. Shamol tegirmoni qurilishi bilan bog'liq xabarlariga asoslanishib, uning vayron bo'lishi yoki bitkazilgandan keyin umuman ishlay olmasligini isbotlashishardi. Lekin, aksincha, "Hayvon ferma"sidagi ishlar bir tekisda borardi. Odamlar vaqt o'tgan sari hayvonlarning ish boshqarishiga va irodalarining mustahkamligiga tan bera boshladilar. Ularda hayvonlarga nisbatan hurmat tuyg'usi asta-sekin uyg'onib borardi. Odamlar nihoyat fermaning nomini ham v Ёњ Hayvon fermav Ёќsi deb atashga ko'nikishdi. Bu hayvonlar tomonidan olib borilayotgan ishlarining ma'qul deb topilayotganining dastlabki alomatlaridan biri edi. Lekin odamlar o'zlari boshqarib kelgan v Ёњ Manor fermav Ёќsiga hurmatsizlik qilisholmasdi. Har holda endi mister Jounzga yordam berishning befoyda ekanligini tushunib yetishdi. Mister Jounz ham fermaga qaytib borishdan umidini uzib, mamlakatning bir chekkasiga ko'chib ketdi. Advokat Vimper kelgunga qadar "Hayvonlar ferma"ning tashqi dunyo bilan aloqasi yo'q edi. Napoleonning v Ёњ Foksvudv Ёќ fermasining boshlig'i mister Pilkington hamda Pinchfiyl fermasining boshlig'i Fredrik bilan savdo-sotiq qilayotganligi haqidagi ovozlari tarqaldi.

Cho'chqalar fermadagi mister Jounz yashagan uyga ko'chib o'tib, o'sha yerda istiqomat qila boshlashdi. Dastlab qabul qilingan qonunning "Odamlar kabi yashamaslik" moddasi hali odamlarning xayolidan ko'tarilmagandi. Yana Skuiylir jonbozlik ko'rsatib, targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirdi. Odamlar bilan savdo-sotiq olib borishning zaruriyat ekanligiga qanday ishontirgan bo'lsa, xuddi shunday yo'llar bilan qonunda v Ёњ Odamlar kabi yashamaslikv Ёќ moddasining bo'lmaganligi haqida tushuntirish ishlarini olib borardi.

- Fermaning eng asosiy tayanchi cho'chqalardir, - dedi Skuiylir. Chunki ularning aqllari boshqa hayvonlarnikiga qaraganda o'tkirroqdir. Fermani asosan ular boshqarmokda. Ayniqsa, boshlig'imiz (yaqindan boshlab Skuiylir Napoleonga nisbatan boshliq degan so'zni ishlata boshlagan edi) hamma qatori cho'chqaxonadagi supada emas, balki alohida uyda yashashi kerak, dono rahbarimiz Napoleon fermani boshqarishdagi muammolarni hal etish va qilinadigan ishlar haqida chuqurroq mulohaza qilish, o'ylash va fikrlashi uchun tinch, shovqin-suronsiz joy, albatta, kerak. Hurmatli boshlig'imiz bunga munosibdir, o'rtoqlar!

Cho'chqalar endi supalarga qoqilgan oxurda emas, mister Jounzning oshxonasida ovqatlanish boshlashdi. Ular mehmonlar qabul

qilinadigan katta xonada dam olardilar. Krovatlarda uxlardilar. Ko'z oldilarida bo'layotgan voqealarni ko'rgan hayvonlar tobora hayratlanishib borishardi. "Napoleon har doim to'g'ri yo'l tutadi", -derdi Bokser. Lekin shu zahotiyoyq "Hayvonlarning krovatlarda uxlashi mumkin emas" ligi haqidagi qaror Klovirning yodiga tushdi. Klovir hayvonlar yashaydigan molxonaning qonun moddalri yozilgan devori yoniga bordi. Devorga yozilgan qonun moddalarini o'qishga harakat qildi. Lekin alifbodagi hamma harflarni o'rganmagandi, shuning uchun o'qiy olmadi. Myurielidan devorga yozilgan qonuning to'rtinchi moddasini o'qib berishni iltimos qildi. "Hayvonlaring krovatlarda uxlashi mumkin emas"liklari haqidagi qonun moddasida nima deb yozilganini aniq bilmoqchi bo'ldi. Myuriyel qiyinchilik bilan harflarni bir-biriga urishtirib o'qidi:

"Hech bir hayvon krovatda choyshablar bilan uxlamagan va uxlamasin" deb o'zgartirilgan edi. Dastlab qonun qabul qilinganida choyshablar haqida so'z borligini eslay olishmadi. Lekin "Devorda yozilgani to'g'ri bo'lishi kerak, men ehtimol adashayotgandirman" - deb o'yladi. Shu payt uning yoniga ikki-uch itlar qurshovida Skuiylir keldi va olib borilayotgan hamma ishlar reja asosida amalga oshirilayotganini ta'kidladi:

- O'rtoq, biz, cho'chqalarning uylardagi krovatlarda uxlayotganimiz haqida eshitdingizmi? Xo'o'sh, qani ayting-chi, nima uchun uxlashimiz mumkin emas? Qonuniing "Hayvonlarning krovatlarda uxlamaslik"lari haqidagi moddasi mavjud ekanligini eslay olasizmi? Menimcha, yo'q! Qonun bunday bo'lgan emas, bo'lmaydi ham. Bu fakt, ha, o'rtoq, bu fakt. Krovatlar faqat uxlash uchungina yasalgan. Hayvonlar yashayotgan ferma binolari ichidagi siz uxlaydigan, somon to'shalgan supachalar ham aslida krovat. Qonunda esa krovatlarda emas, balki inson tomonidan kashf etilgan choyshablarda ma'n etilgan. Ferma uyidagi krovatlarga to'shalgan choyshablarni olib tashladik. Faqat ko'rpalar ustidagina uxlayapmiz. Krovatlar uxlash uchun juda qulay, lekin biz, hayvonlarga moslashtirilmagan. Biz, cho'chqalar, doimo aqliy mehnat bilan shug'ullanamiz. Shu sababdan ham bizning dam olishimizga alohida e'tibor berilishi kerak. Biz qanchalik yaxshi hordiq chiqarsak, shunchalik yaxshi fikrlaymiz. O'rtoqlar, albatta, bizning zo'riqib ishlashimiz natijasida charchab, sog'lig'imizni yo'qotishimizni, natijada bizga topshirilgan vazifalarni bajarolmay qolishimizni istamaysiz. Axir Jounzning qaytib kelishini hech bir hayvon xohlamaydi. Skuiylirning hayajon bilan aytgan oxirgi jumlası hayvonlarni hushyor tortirdi. Ferma uyidagi krovatlarda cho'chqalarning uxlashi haqida boshqa og'iz ochishmadi. Bir necha kundan keyin esa cho'chqalarning boshqa hayvonlardan bir soat keyin uyqudan uyg'onishlari e'lon qilinganida hech bir hayvon ajablanmadi. Buni odatdagi hodisa sifatida jimgina qabul qilishdi.

Kuz oyi yetib kelganida hayvonlar nihoyatda charchab qolishdi. Lekin shunga qaramay ularning kayfiyatları ko'tarinki edi. Bu yil og'ir kelgandi. Tinmay mehnat qilishganiga qaramay don mahsulotlarining bir qismi sotilganidan keyin ham qish uchun yetarli ozuqa to'planmagan edi. Lekin shamol tegirmoni qurılıshi hamma qiyinchiliklarni unittirardi. Hosil dalalardan allaqachon yig'ishtirilib olinganiga qaramay havo quruq, yog'in-sochin yo'q edi. Hayvonlar shamol tegirmoni qurılıshida astoydil mehnat qilishardi. Buning ustiga ferma atrofını katta toshlar bilan bir metr balandlikda o'rab olish rejalashtirilgan edi.

Hayvonlar oyoqlari yerga tegmay ishlashardi. Ertangi kundan katta umid bog'lashardi. Hatto oydin tunlarda Bokserning o'zi bir-ikki soat ishlardi. Dam olish paytlari qurılıshi yarimlab qolgan shamol tegirmoni atrofıga to'planishardi. Tegirmonning bitgan qismidagi devorlarga tikilishib, uning silliq va mustahkamligidan zavqlanishardi. Atroftida aylanishib qo'shiqlar aytishardi. Faqat qari Benyamıngina shamol tegirmoni qurılıshida jonkuyarlik bilan ishlamasdi. Buni yashirish uchun вЂњYaxshi ot keyin chopadıvЂќ degan maqolni tez-tez takrorlardı. Atrofdagi yuz berayotgan voqealarga beparvolik bilan qarab: вЂњBu dunyo o'tkinchi, hech bir hayvonga vafo qilmaydi" ,-derdi.

Kuzning noyabr' oyi janubiy g'arbdan esayotgan kuchli shamollar bilan boshlandi. Qum bilan sementni shamol uchirib keta boshladi. Shu sababli sementli loy tayyorlashning hech iloji yo'q edi. Qurılıshdagi ishlar to'xtadi. Shamol borgan sari avj olardi. Hatto fermadagi uylar poydevorları bilan birgalikda tebranardi. Bo'ron binolarning tomlariga qoqilgan tunuka va shiplarni uchirib ketdi. Tovuqlar dahshat ichida qichqirshardi. Boshqa hayvonlar tovuqlarning qichqiriqlaridan uyg'onib ketishdi. Go'yo ularning tushlarida multiq otılgan edi. Cho'chib uyg'ongan hayvonlar yashayotgan binolaridan tashqariga otilib chiqishdi. Bayroq hamisha hilpirab turadigan yog'och ag'darilib tushgan edi. Mevazor yaqinidagi qayrog'och daraxti ildiz-pildizi bilan yerning ustiga chiqqan holda ko'tarilib yotardi. Yanada dahshatliroq bo'lgan bir ko'rinish ularning aqlu hushini uchirib yubordi. Hayvonlarning umidsizlik bilan hayqirgan tovushları fermani larzaga keltirdi. Ne ko'z bilan ko'rsinlarki, qurilayotgan shamol tegirmoni tag-tugi bilan vayron bo'lgan edi. Hayvonlar shamol tegirmoni tomon chopdilar.

Napoleon hamma hayvonlarning oldida uchib borardi. Uning bu qadar tezlik bilan chopganini hech bir hayvon shu paytgacha ko'rmagan edi. Ilgarilari u hamisha shoshilmasdan, xotirjam qadam tashlardı. Napoleon yetib kelib shamol tegarmonining poydevorigacha buzilib yotganini ko'rdi. Ne-ne mashaqqatlar bilan keltirilgan toshlar qurılısh maydonida sochilib yotardi. Bularni ko'rgan Napoleonning hushi boshidan uchib, tili og'zida aylanmay qoldi. So'ng shamolda to'planib qolgan toshlarga alam bilan tikildi. Napoleon to'satdan yerni iskay boshladi. Unga qaytadan jon kirganday bir-ikki qadam oldinga yurdi. Dumi qilich kabi taranglashib, u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi. Bu uning qattiq o'ylanayotganidan dalolat berardi. Birdan u to'xtadi. Uzoq, jimlikdan so'ng:

- O'rtoqlar, -deb so'z boshladi past ovoz bilan, bu vayronagarchiliklarning sababchisini bilasizmi? Tunda yashirincha kelib qo'poruvchilik qilgan dushmannıng kimligini fahmlayapsizmi? Bu Snoubol!!! - deb momoqaldiroqday ovoz bilan baqirdi Napoleon. Snoubol bu ishni g'arazli niyat bilan qilgan! Biz tuzgan rejaların amalga oshishini istamasdan ishlarimizga to'sqinlik qilgan. Oramizdan sharmandalarcha quvilgani uchun qasdini olmoqchi bo'lgan. Ha, u sotqin, o'rtoqlar! Ha, u haqiqiy dushmanimiz, o'rtoqlar! Kechasi ilonday o'rmalab kelib, yil bo'yi qilgan mehnatimizni yer bilan yakson qildi. U hayvonlarning dushmani. O'rtoqlar, shu bugun men Snoubolni o'linga hukm qilaman. Uning jinoyatlari eng og'ir jazoga loyiqdir. Snoubolni tiriklayin tutib kelgan har qanday hayvonga 11 darajali "Qahramon-Hayvon" ordenini va bir yarim qop olmani mukofot tariqasida topshiraman. Bu mukofot adolat uchun kurashgan, kurashda jonbozlik ko'rsatgan, haqiqat uchun jonini ham ayamagan hayvonga beriladi. Hayvonlar hayratdan dong qotib qolishgandi. Bo'lgan ishlar uchun Snoubolning aybdorligiga aqları bovar qilmasdi. Lekin shu damdan boshlaboq Snoubolni tutib kelish yo'llari haqida o'ylay boshlashdi. Hayvonlar shamol tegirmoni qurilayotgan tepalik atrofını tekshira boshladilar. Uzoqdan cho'chqa izlarını ko'rishdi. Izlar bir necha metr joydagına bor edi, xolos. Keyin ko'rinmay qolgandi. Tuyoqlar bilan ezilgan maysalar izlarni fermani o'rab turgan to'siqlar tomon ketganligini ko'rsatar edi. Napoleon bosilgan maysalarni hidlab ko'rib, Snoubolning izlari ekanligini tasdiqladi. Izlarni qayta-qayta tekshirib ko'rishdi. Snoubol Foksvud fermasidan kelgan bo'lsa kerak degan taxmin bildirildi.

"-O'rtoqlar, -deb xitob qildi Napoleon, shu bugundan boshlab biz yana qayta ish boshlaymiz. Shamol tegirmonining qurılıshini to'xtatmaymiz. Yomg'ir yog'sa ham qor va bo'ron bo'lsa ham, hattoki osmondan tosh yog'ib tursa ham shamol tegirmonining qurılıshini davom ettiramiz. "Hayvon ferma"si uchun xoinlik qilgan Snoubolga bizni osonlik bilan yengib bo'lmasligini ko'rsatib

qo'yamiz. O'rtoqlar, oldimizga qo'yilgan maqsadlardan chekinmasligimiz kerak. Ularni amalga oshirishimiz shart! Oldinga qarab olg'a, o'rtoqlar! Yashasin, shamol tegirmoni! Yashasin, "Hayvon ferma"si!

VII- bob

Qahraton qish kirib keldi. Bo'ronli obi havodan keyin izg'irinli kunlar boshlandi. Qor erinmay maydalab yog'ardi. Tunlari nihoyatda ayoz, yerlar metinday qotib, dalalardagi o't-o'lanlar ham muzlab qolgan edi. Qahraton sovuq fevral' oyiga qadar davom etdi. Fevral' oyida havoning sovuq bo'lishiga qaramasdan hayvonlar shamol tegirmonining qurilishini boshlab yubordilar. Ular "Hayvon ferma" sida bo'layotgan voqealarni odamlar chetdan kuzatib turganliklarini, agar shamol tegirmonining qurilishi to'xtab qoladigan bo'lsa, bundan dushmanlarning quvonishlarini ham bilishardi. Odamlar hayvonlarning ishlariga g'araz bilan qarardilar. Shamol tegirmonining vayron bo'lganligi haqidagi xabarlar yolg'on ekanligini bildirish maqsadida Napoleon xiyla ishlatdi. Shamol tegirmoni devorlarining qalinligini oshirmoqchi bo'ldi. Bu bilan odamlar shamol tegirmonining devorlarini mustahkamlash uchun devorlarni hayvonlarning o'zlari buzishib qaytadan qurishayapti degan xulosaga kelishlari kerak edi. Shuning uchun oldingi yarim metr qalinlikdagi devorlar o'rniga ikki metr qalinlikdagi devorlar olina boshladi. Buning uchun esa yana qo'shimcha toshlar yig'ishtirilishi kerak edi. Tosh qoni esa qalin qor ostida qolib, u yerda ishlashning hech iloji yo'q edi. Keyingi kunlarda qor yog'ishi to'xtab, obi havo bir oz yurishdi. Hayvonlar qiynalib bo'lsada bir oz ishlashga harakat qilishardi, urinishlar evaziga ish o'ta sekinlik bilan siljirdi. Hayvonlar ilgaridek ishtiyoq bilan mehnat qilishmasdi. Kayfiyatlar tushkun edi. Har kuni sovuqda ishlashga majbur bo'lishar, qorinlari esa ovqatga to'ymasdi. Faqat Bokser va Klovirgina umidsizlanmas edilar. Skuiylir esa sharaflil mehnat, uning mashaqqatlari va quvonchlarini haqida tinmay nutq so'zlardi. Hayvonlar Bokserning kelajakka bo'lgan ishonchi, umidi hamda bugun kechagidan ko'ra yaxshiroq ishlashim kerak degan shioridan ozgina bo'lsa ham ilhomlanardilar. Ayniqsa, uning ishlab charchamasligi hayvonlarga madad berib turardi.

Yanvar' oyiga kelib to'plangan oziq-ovqatlar ozayib qoldi. Berilayotgan makkajo'xori ulushlari keskin kamaytirildi. Uning o'rniga muzlab qolgan kartoshkalar berila boshladi. Kartoshkalar dalaning o'zida to'plangan holda qolib ketgan edi. Ular qoplariga solinib ustma-ust taxlangan bo'lishiga qaramasdan qorning tagida qolib, ayozli tunlarda muzlagan edi. Qoplar sovuqni o'tkazmaydigan darajada qalin emas edi. Shuning uchun kartoshkalar muzlab, qorayib ketgan edi. Bir qop kartoshkadan faqat bir necha donasinigina ishlatish mumkin edi. Quruq somondan boshqa yegulik hech vaqo yo'q edi. Hayvonlarning yuzlari burushib ketgandi. Kayfiyatlar tushkun edi. "Hayvon ferma" sidadagi bo'ladiyotgan voqealarni tashqi olamdan yashirish kerak edi. Odamlar esa shamol tegirmonining inqirozidan ilhomlanib yangi-yangi yolg'onlarni to'qishardi. Yer yuzidagi fermalar bo'ylab "Hayvon ferma" sidadagi yashayotgan hayvonlarning ochlik va kasallikdan qirilib ketayotganligi, bir-birlarini ayovsiz o'ldirayotganligi, hayvonxo'rlik va bolaxo'rlik avj olganligi haqidagi mish-mishlar tarqaldi.

ВЪНHayvon fermav Ёksidadagi haqiqiy ahvol boshqa fermalarga ma'lum bo'lib qolsa, natijasi yomon bo'lishini bilardi. Shu sababdan "Hayvon ferma" sidadagi yashash sharoitining yaxshiligi haqida odamlarda taassurot uyg'otmoqchi bo'ldi. Bu niyatni amalga oshirish uchun mister Vimpeldan foydalanishga qaror qildi. Har haftaning boshlarida kelib-ketib yurgan mister Vimpel bilan hayvonlar orasida deyarli aloqa bo'lmasdi. Napoleonning ko'rsatmalariga ko'ra hayvonlar mister Vimpelning oldida asosan fermadagi to'kin-sochinlik haqida gaplashadigan bo'lib qolishdi. Ayniqsa, o'zlariga berilayotgan ulushlarning ko'paytirilgani haqida tinmay so'zlashardi. Napoleon hayvonlar yotadigan binolar ichidagi supalarga qoqilgan oxurlarning ichini qum bilan salkam to'la qilib to'ldirishga buyruq berdi. Qumning ustiga esa oxurlarni to'ldirib g'alla to'kib qo'yishdi. Napoleon mister Vimpelni ataylab bino ichidagi supalarga qoqilgan don to'la oxurlar orasidagi olib o'tardi. Mister Vimper yem to'la oxurlarni ko'ra va aldanganligini sezmasdi. Fermadan chiqib Napoleon mo'ljalaganday, hayvonlarning ovqatdan kamchiligi yo'q ekanligi haqida xabar berardi. "Hayvonlar ferma" sida bo'layotgan ocharchilik haqidagi gaplarning bekorligini tasdiqlardi.

Yanvar' oyining oxirlariga kelib g'alla sotib olish zaruriyati sezilib qoldi. Napoleon ferma hovlisida kamdan kam ko'rinardi. U to'rt tomonidan jahldor va kuchli itlar bilan qattiq qo'riqlanayotgan uyida tunu kun o'tirardi. Ferma hovlisiga chiqqan paytlarida bo'risifat olti it atrofini o'rab olardi. Napoleon salobat bilan salmoqli qadam tashlar, hayvonlarning birortasi unga yaqinlashmoqchi bo'lganida itlar tishlarini ko'rsatib irrillardi. Odatda Napoleon yakshanba kunlari ertalab ko'rinmasdi. Bir cho'chqa uning buyruqlarini Skuiylirga, Skuiylir esa boshqa hayvonlarga yetkazardi.

Yakshanba kunlarining birida Skuiylir tuxum tug'ishga kelgan tovuqlarga o'z tuxumlarini zudlik bilan topshirish haqidagi yangi qarorni e'lon qildi. Napoleon Vimper orqali har haftada to'rt yuztadan tuxum sotishga shartnoma tuzgandi. Tuxumlarga to'lanadigan narx esa Napoleon kutgandan ko'ra yuqoriroq edi. Agar bundan foydalanilmay qolsa, issiq kunlar boshlanib, tuxumga to'lanadigan narx pasayib ketardi. Ferma hayvonlari uchun sotib olinadigan g'alla va don mahsulotlarining puli sotilgan tuxumlar hisobidan to'lanishi mo'ljalangan edi. Bu qarorni eshitgan tovuqlar vahima bilan baqir-chaqir qilishdi. Bu "qurbonlik" fermaning oyoqqa turishi va hayvonlarni qishdan eson-omon olib chiqish uchun kerakligi haqidagi tushuntirishlariga qaramay ko'payishlari uchun issiq, pana, ishonchli joylar tayyorlayotgan edilar. Hozirgi tuxumlarini tortib olish kelgusi avlodlariga qiron solish bilan tengligini anglab turardilar. Jounz quvilgandan beri "Hayvon ferma" sida atigi bir martagina norozilik bildirib to'polon qilingan edi. Lekin u darhol bostirilgandi. Hozir ham tovuqlar tomonidan tayinlangan uch yosh rahbar Napoleon qaroriga tovuqlarning qarshiligini bildirishdi. Qolgan tovuqlar fermada o'rnatilgan yog'ochlarning ustiga chiqib olishib, bor ovozlari bilan qichqirishardi. Yog'ochlar ustida turib tuxumlarini tug'ib yuborishdi. Yerga tushgan tuxumlar chil-parchin bo'lardi. Napoleon tezlik bilan chora ko'ra boshladi. Tovuqlarga berilgan jazolar rahmsizlik bilan amalga oshirildi. Avvalo tovuqlarga tuxum tug'ishni to'xtatishga buyruq berdi. So'ngra berilayotgan ozuqa tegishi ham to'xtatildi. Tovuqlarga yordam bergan hayvonlarga o'lim jazosi e'lon qilindi. Hayvonlarga ularning o'ng va chap tomonida joylashgan Foksvud va Pinchfiyld fermasi tomonidan Snoubolning yashirilganligi haqidagi xabarlar yetib keldi. Bu vaqtga kelib Napoleonning boshqa fermalar bilan munosabati ancha yaxshilangan edi. Ferma hovlisida ko'p yillardan beri saqlanayotgan yog'ochlar bor edi. Ular quruqshab ketgandi. Mister Vimpel yog'ochlarni sotishga maslahat berib, mister Pilkington bilan mister Fredrik sotib olishga roziligini aytdi. Napoleon ham yog'ochlarni sotishga ko'ngandi. Lekin fermerlardan qaysi biri bilan aloqa qilishni bilmasdi. Fredrik bilan aloqa qilib bo'lmasdi. U o'z fermasida "Hayvon ferma" sining dushmani bo'lgan Snoubolni yashirganligini bilardi. Pinchfiyld bilan savdo muomalasiga kirishay deb turganda Snoubolning aynan Pinchfiylda ekanligi haqida xabar topdi.

Bahorning iliq kunlarida "Hayvon ferma" sida vahimalik voqealar yuz bera boshladi. Snoubol zulmat qoplagan tunda "Hayvon ferma" sig'a o'rmlab kelib zarar yetkazardi. Makkajo'xori o'g'irlar, sut to'ldirilgan paqirlarni og'darar va tuxumlarni sindirardi. Hayvonlar tunlarni uyqusizlik bilan o'tkazshardi. Vahima bilan tong otirishardi. Snoubol urug' ekilgan dalalarni ayovsizlik bilan toptardi. Meva daraxtlarining po'stlog'larini g'ajib tashlardi. Fermadagi bo'layotgan har bir ko'ngilsiz voqea Snoubol bilan

bog'lanardi. Hayvonlar hatto derazaning ko'zi singanida ham, zovurlardagi suvlar xas-xashak tushib to'silib qolganida ham Snoubolning kelib ketganligi haqida gapirishardi. Hatto molxona eshigining kaliti yo'qotib qo'yilganida ham Snoubol kelib kalitni quduqqa tashlab yuborganiga hayvonlar ishongan edilar. Kalitni don solingan qopning tagidan topib olganlarida ham Snoubol va kalit haqidagi gaplar to'xtamasdi. Bunga hamma hayvonlar ishonishardi. Sigirlar yarim tunda qattiq uyquga ketganlarida Snoubol supalariga o'rmalab kelib sutlarni sog'ib ketayotganligi haqida yakdillik bilan gapirishardi. Kalamushlarning Snoubolga yordam berayotganlari haqida ovozarlar tarqaldi. Napoleon fermada ro'y berayotgan voqealarni tekshirishga buyruq berdi. O'zi esa shaxsan itlar qurshovida ferma atrofini o'ralgan to'siqlarning ichki va tashqari tomonidan aylanib tekshirdi. Boshqa hayvonlar esa Napoleonga hurmat ko'rsatish maqsadida anchagina masofa oraligida unga ergashishardi. Napoleon ba'zan to'xtab, Snoubolning izlarini aniqlash uchun yerni iskardi. U molxonani, tovuqxonani, sabzavotlar turadigan omborxonani, ekinlar eqiladigan yer maydonini, xullas, fermaning har bir burchagini sinchkovlik bilan jiddiy iskab chiqdi. Deyarli hamma joydan Snoubolning izlarini topdi. Napoleon burnini yerga qadab turib bir necha marta chuqur nafas olib yerni hidlardi-da, so'ngra dahshatli ovoz bilan baqirardi. "Snoubol! U bu yerda bo'lgan! Uning isini aniq bilayapman!". "Snoubol" degan nomni itlar eshitishib qonlari qaynab ketardi, kurak tishlari ko'rinadigan darajada og'izlarini ochishib vovullashardi. Hayvonlar butunlay vahimada qolgan edilar. Ularga Snoubolning nomini eshitish- dan ham qo'rqardilar. Uning ustiga har xil ovozalarning tarqalishi hayvonlarni bezovta qilardi. Skuiylir hamma hayvonlarni yig'di. Uning yuzlarida vahimali ifoda qotib qolgan edi. O'rganib chiqilgan masala bo'yicha axborot bermoqchi ekanligini jiddiy turib e'lon qildi:

- O'rtoqlar,-dedi Skuiylir, og'irligini goh, u oyog'iga, goh bu oyog'iga tashlab turib asabiy tovush'da, - atrofimizda nohush voqealar bo'layotganligi hammamizga ma'lum. Bularning hammasi Snoubol tomonidan uyushtirilgan fitnalardir. U Pinchfiyld fermasining sohibi Fredrikka sotilgan. Ular hamkorlikda "Hayvon ferma"sig'a hujum qilish uchun tayyorgarlik ko'rishayapti. O'rtoqlar, biz egalik qilayotgan fermani qo'limizdan tortib olib, yana ustimizdan hukmronlik qilishmoqchi. Buning uchun ular allaqachon hujum rejasini tuzib chiqishgan, Snoubol rahbarlik qiladi. Undan ham yomonroq bir masalaga e'tiboringizni tortmoqchiman. Snoubolning hujumi umumbayvoniy manfaatlar uchun emas, balki o'zining shaxsiy manfaati tufayli qilinayotgan harakatdir. Bu ishga uni majbur qilgan ahmoqona mag'rurligi ekanligini anglab yetishingiz kerak. Snoubolning shu darajaga kelib qolishi sabablarini bilasizmi? Yo'q, bilmaysiz! Snoubolning hamisha Jounz bilan hamkorlik qilib kelganligini, Snoubol Jounzning hayvonlar orasidagi josusi bo'lganligini unutilgan qog'ozlar ichidan topilgan yangi hujjatlar asosida aniqlangan yangi dalillar isbotlamoqda. O'rtoqlar, qo'limizdagi mavjud ko'p muammolarni oydinlashtirish uchun yordam bermoqda. "Molxona janggi"da biz hayvonlarning mag'lub bo'lishimizga Snoubol tomonidan jiddiy harakat qilinganligi ma'lum bo'lib qolmoqda. Sizlar, buni albatta sezgan bo'lishlaringiz kerak. Hayriyatki, uning urinishlari befoyda ketib, bu ayovsiz jangda g'olib chiqdik. Hayvonlar Skuiylirning gaplarini eshitayotgan quloqlariga ishonishmasdi. Ular dong qotib qolgan edilar. Bu eshitayotgan xabarlar oldingilariga qaraganda ming barobar yomonroq edi. Shamol tegirmonini vayron qilishdagi Snoubolning "xizmatlariga" hayvonlar endigina ishonishayotgandi. Bunisi esa oshib tushdi. Berilgan ma'lumotlarni o'zlariga singdirishlari bir muncha qiyin bo'ldi. Chunki "Molxona jangi"da Snoubolning yag'riniga o'q tegib, og'ir yarador bo'lganligini ular hali unutmagandilar. Jang maydonidan chekinmay odam-dushmanlarga qarshi qahramona kurashgan Snoubol hayvonlarni ruhlantirib yuborgan edi. Jang maydonidagi manzaralarni xayollarida tikladilar. Yo'q, Snoubolning josus bo'lganligiga ishonish qiyin edi. Ko'z oldilariga keltirgan manzaralarda Snoubolning shubhalantiruvchi biror harakati ko'rinmasdi. Bokserning kallasi g'ovlab ketdi. Miyasida javob topish mushkul bo'lgan savollar g'ujg'on uynay boshladi. Tuyoqlarini ko'ksining ostiga bosib, ko'zlarini mahkam yumib, yotib olgan holda zo'r berib o'ylanardi. Fikrlarini tartibga solishga harakat qilardi. NihoyatB :

- Bunga ishonmayman. Aytildigan gaplar asosli emas,-dedi Bokser. Snoubol "Molxona janggi"da botirlik bilan kurashgan edi. Buni o'z ko'zlarim bilan ko'rganman. Uning ustiga birinchi darajali "Qahramon Hayvon" ordeni bilan mukofotlangan edi-ku! -dedi Bokser. Hamma hayvonlar Snoubolning yag'rinidan qon oqqanligini ko'rganmiz.

- Bu o'zaro kelishishi natijasi bo'lgan, - dedi Skuiylir. Aslida Jounzning o'qi uning orqasini yalab o'tgan, xolos. Agar sizlar ozgina bo'lsa ham o'qishni bilib savodgingizni chiqargan bo'lganingizda kelishuv hujjatini ko'rsatgan bo'lardim. O'zingiz uni o'qib ko'rib, bu gaplarga ishonch hosil qilardingiz. Hujjatlardagi kelishuvga binoan yaralanish keskin daqiqalarda chekinib vaqtinchalik fermani hayvonlarga qoldirish uchun berilgan belgi edi. Bu fitna haqiqatdan ham o'zini oqlagandi. O'rtoqlar, aslida qahramonlik ko'rsatgan hurmatli rahbarimiz Napoleon bo'lgan. Aks holda Snoubol g'alaba qozongan bo'lardi. Bo'lib o'tgan voqealarni bir eslab ko'ring. Jounz va uning xizmatkorlari fermaga bostirib kelishganida Snoubol ularga qarshi chiqish o'rniga aylanib qochib qoldi. Ba'zi hurmatli hayvonlarimiz ham unga ergashgan edilar. Jangning keskin daqiqalarida dono rahbarimiz o'rtoq Napoleon hayvonlardagi qo'rquvni yengishga yordam bergan. "Insonlarga o'lim!" deb hayqirib oldinga tashlanib, o'tkir tishlarini Jounzning oyoqlariga botirgandi. O'ylaymanki, albatta, bu voqea esingizdan chiqmagan! Xotirangizda hali uzoq vaqt saqlanib qoladi!"- dedi Skuiylir, og'irligini u oyog'idan bu oyog'iga tashlab turib Skuiylir jang manzaralarini mufassal, ipidan ignasiga qadar tasvirlab Napoleonning jangda ko'rsatgan qahramonliklarini hayvonlar xayolida tiklashga harakat qilardi. Uning so'zlarini eshitib turgan hayvonlar tasdiq alomatini bildirib boshlarini qimirlatdilar. Go'yo voqealarni g'ira-shira eslaganday qilib o'zlarini ko'rsatadilar. Lekin har holda jang maydonini aylanib qochib borayotgan Snoubolni yodlariga tushirishdi. Bokser hech tushunolmay qiynalardi, shuning uchun sal ozgina noqulaylik bilan:

- Snoubolning jang maydonida sotqinlik qilganiga ishonolmayapman, - dedi.

"Hayvon ferma"sidagi keyingi paytlarda ro'y bergan voqealarda haqiqatdan ham dushmanlik qilingan bo'lishi mumkindir.

"Molxona janggi"da esa botir safdosh va qahramon jangchi bo'lganiga ishonmasdan ilojim yo'q.

- Rahbarimiz o'rtoq Napoleon, - deb so'zlay boshladi Skuiylir sokin va qa'tiylik bilan baland ovozda, - qo'zg'alon haqida har xil fikr va xulosalar surilmasdan ilgariyoq Snoubol Jounzning josusi bo'lganligini aytgan edilar. Mening esimda turibdi, ha.

- Bu boshqa gap, - dedi Bokser. Agar o'rtoq Napoleon shunday deyayotgan bo'lsa bu juda to'g'ri va asosli fikrdir. O'rtoq Napoleon hamisha haq va to'g'ri gapni aytadilar.

- Ha, bu asosli fikr, - dedi Skuiylir Bokserga dadil qarab. Uning ko'zlari bir yonib o'chgan yulduzday sovuq yaltirab ketdi. Bir daqiqa jimlikdan so'ng:

- O'rtoqlar, - dedi,-biz juda hushyor bo'lishimiz kerak. Oramizda Snoubolning mahfiylari borligini, ular bizning qatorimizda o'tirganligini hech bir hayvon inkor etolmaydi. Skuiylir fermadagi hayvonlarning hushyor bo'lishlari lozimligini yana bir bor ta'kidlab, ularni qattiq ogohlantirdi.

Oradan to'rt kun o'tgach, tushlikdan so'ng Napoleon hamma hayvonlarni ferma hovlisiga yig'ishga buyruq berdi. Hayvonlar to'planib bo'lganlaridan so'ng, Napoleon o'z uyidan chiqdi. U ko'ksiga ordenlarini (yaqindagina o'zini-o'zi birinchi darajali

"Qahramon Hayvon", ikkinchi darajali "Qahramon Hayvon" ordenlari bilan mukofotlagan edi) taqib olgandi. Uni to'qqizda katta va bahaybat it o'rab olgandi. Itlar hayvonlarning suyak - suyaklarigacha titroq soluvchi tovush bilan irrillardilar. Hayvonlarning etlari seskanib ketdi. Qo'rquanlaridan bir-birlarining pinjiga suqilishdi. Hozir qandaydir dahshatli voqea yuz berishini kuta boshlashdi. Napoleon yig'ilganlarni qonga to'lib ketgan qahrli ko'zlari bilan bir-bir kuzatib chiqdi va o'tkir chiyillagan tovush chiqardi. Itlar jon -jahtlari bilan oldinga sakradilar. To'rt yosh cho'chqaning quloqlaridan tishlab, sudrashdi. Og'riq zo'ri va dahshatdan chiyillayotgan cho'chqalarni Napoleonning oyoqlari ostiga keltirib tashladilar. Ularning quloqlaridan qon oqardi. Itlar qon lazzatini tuyib yanada vahshiyilashdi. Cho'chqalar o'zlarini aybdor deb o'ylashib qo'rquvdan titrashardi. Napoleon o'z gunohlarini ixtiyoriy ravishda buynilariga olishga cho'chqalarni undadi. Ular Napoleonning "Yakshanba kunlari majlislarini bekor qilish" haqidagi qaroriga e'tiroz bildirgan to'rtta yosh cho'chqalar edi. Cho'chqalar Snoubol fermadan quvilgandan buyon yashirin aloqa qilganliklarini, shamol tegirmonini vayron qilishda hamkor ekanliklarini, "Hayvon ferma"sini mister Fredrikga o'tkazishga rozi bo'lganliklarini tan olishdi. Shuningdek, Snoubolning Jounz hukmronligi davrida josus bo'lganligini, buni uning o'z og'zidan eshitganliklariga iqror bo'lishdi. To'rt yosh cho'chqa hamma "jinoiatlarini" bo'yinlariga olganlaridan so'ng itlar darhol o'tkir tishlarini ularning kekirdaklariga botirib, boshlarini uzib tashlashdi. Napoleon hayvonlar yuragiga vahshat soluvchi ovoz bilan sotqinlik qilgan hayvonlar ularning orasidan yana topilishini e'lon qildi. Tuxumlar bilan bog'liq bo'lgan tovuqlarning "o'zboshimchaliklari"ga rahbarlik qilgan uch tovuqni itlar tishlab olib keltirishdi. Bu tovuqlar choshgoh paytlari yig'inlar o'tkazib Napoleonning buyruqlariga qarshi chiqishga undaganligiga qolgan tovuqlar guvohlik berishdi. Ular ham rahmsizlik bilan bo'g'izlandilar. Keyin esa bir g'oz o'tgan yil hosilidan olti dona makkajo'xori zo'g'atarlarini o'g'irlab tunda yeganligiga iqror bo'ldi. Snoubol tomonidan ongi zaharlangan bir qo'y esa suv ichiladigan quduqqa siyib yuborganiga, yana bir qo'y Napoleonning g'oyalariga o'zini bag'ishlagan va sidqidildan xizmat qilgan ikki qo'y hamda tumov kasalligidan azob chekayotgan bir qo'chqorni olov atrofida aylantirib o'ldirganiga iqror bo'ldi. Hammalari o'ldirildi. Jinoiatlarni bo'yinga olish va jozolash uzoq vaqt davom etdi. Murdalar Napoleon oyoqlari ostiga tashlanaverdi. Havo Jounz quvilganidan beri hayvonlarga notanish bo'lib qolgan qon hidi bilan og'irlashdi. Uch it to'satdan Bokserga tashlandi. O'ziga qarab uchib kelayotgan itlardan birini ushlab oldingi tuyoqlari ostiga oldi. It jon achchig'ida vangilladi Qolgan ikki it esa dumlarini qisib orqaga chekinishdi. Bokser tuyoqlari ostida yotgan itni o'ldiraymi yoki o'ldirmaymi degan ma'noda Napoleonga ko'z tikdi. Napoleonning rangida rang qolmagan, yuzi o'lgan cho'chqaning yuziga o'xshab ko'karib ketgan edi. "Itni qo'yib yubor", - deb keskinlik bilan buyruq berdi. Bokser tuyoqlarini ko'tardi. Ko'k rangdagi xol-xol dog'lari bo'lgan it uning oyoqlari tagidan sudralib chiqdi. Hamma hayvonlar voqeani qanday tugashini sabrsizlik bilan kutishardi. Oraga og'ir sukunat cho'kdi. Itlar va cho'chqalardan tashqari yuragini oldirib qo'ygan hamma hayvonlar tarqala boshlashdi. Ular zo'r-bazo'r sudralib borishardi. Qo'rqqanlaridan titrab-qaqshardilar, o'zlarini nihoyatda himoyasiz va g'arib sezishardi. Snoubol bilan hamkorlik qilgan hayvonlarning xiyonatkorligi va ulardan ayovsiz qasos olinganligidan boshlari qotgan edi. Ular qonli voqealarni juda ko'p boshlaridan o'tkazgan bo'lib, lekin bunaqasini birinchi bor ko'rib turishlari edi. Hayvonlar o'zlarini-o'zlari jazolab, o'ldirayotgan edilar. Mister Jounz fermadan quvilgandan beri hayvonkushandalik bo'lmagandi, hattoki zararkunandalik qilgan kalamushlar ham o'ldirilmagandi. Hayvonlar yarmi tugatilgan shamol tegirmoni joylashgan tepalikka o'rmlab chiqdilar. Muzlab borayotgan tanalarini isitish uchun bir-birlarining pinjiga kirdilar. Klovir, Myuriyel, Benyamin va sigirlar, qo'ylar, g'ozlar, tovuqlar - hammalari shu yerga to'planishdi. Faqat hamma hayvonlarni yig'ishga buyruq berilishidan oldin yo'qolib qolgan mushuk ko'rinmasdi, xolos. Bir necha daqiqalar o'tsa ham hech qaysi hayvondan sado chiqmasdi. Bokserning oyoqlari tanasini arang ko'tarib turardi. Asablarining tarang tortilganligi yuzida aks etardi. Uzun qora dumi devorga osilgan soatning toshlari kabi u yoqdan bu yoqqa borib kelardi. Birdaniga zaif tovushi bilan gapira boshladi:

- Men hech narsani tushunmayapman, fermamizda shunday voqealar ro'y berayotganiga ishongim kelmaydi. Hammasiga o'zimiz aybdormiz, hamma voqealar mas'uliyatsizligimiz tufayli kelib chiqdi. Kamchiliklarimizni tugatishimiz kerak. Faqat ishlash, ishlash va yana ishlash bilangina aybimiz va gunohlarimizni yuvishimiz mumkin. Ertadan boshlab men barvaqtoq turib bir soat oldin ish boshlayman. Bokser salmoqdor qadamlar bilan tosh koniga qarab yurdi. To'plab qo'yilgan toshlardan ikki hayvonga mo'ljalanganini birlashtirib turib, shamol tegirmoni tomon sudray boshladi. Hayvonlar esa Klovir atrofiga o'rmlab kelib, unga yopishib oldilar. Ular yotgan baland tepalikdan atrof kaftdek ko'rinib turardi. Hayvonlarning ko'pchiligi tabiatni zavq bilan tomosho qila boshlashdi. Katta yo'lga tutashib ketgan yam-yashil yaylovlar, pichan dalalari, to'ntarib qo'yilgan ko'k-ko'k osmonga o'xshab ketuvchi suv to'ldirilgan hovuz va haydalgan yerlar juda go'zal edi. O'zlari ekib parvarish qilgan, hozir bo'yi cho'zilib qolgan bug'doylar, mo'ridan buralib-buralib chiqayotgan tutunlar, molxonaning qizil tunika qoqilgan tomlari ertaklardagiday sehrli edi. Bu kun bahorning musaffo va ko'rkam kunlaridan biri edi. Yer ustida sollanib turgan maysalar va ferma atrofidagi to'siqlar quyosh nurida tovlanardi. Hayvonlar uchun hech qachon tabiatning manzaralari bu qadar go'zal va orombaxsh bo'lib tuyilmagan edi. Zavqlarini uyg'otadigan fermani o'zlariniki ekanligi yodlariga tushib hayratlandilar. Tepalikdan pastga qarab, tikilib turgan Klovirning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. Yuragi to'lib ketganligidan gapirolmasdi. Axir fermadagi inson hukmronligini ag'darib yuborishdan maqsadlari bu emas edi-ku!. Axir qirg'in-barotlar bo'lishini orzu qilmagan edilar!. Nega shunday bo'ldi?!. Nega begunoh hayvon qonlari daryodeki oqmoqda?!. Axir ozod va baxtiyor kunlar kelishi va to'kin-sochinlik, farovonlik bo'lishi uchun kurashgan edilar-ku!. Qari mayor qo'zg'alonga da'vat etganida bunday xunrezliklar haqida ogohlantirmagandi. Axir keksa mayor hamma hayvonlar ochlik va xipchinlardan ozod bo'lib teng huquqli bo'lgan, har bir hayvon qobiliyatiga qarab ishlovchi, ehtiyojiga yarasha kun ko'ruvchi, kuchlilar ojizlarni, mayor nutq so'zlagan tunda Klovir oyoqlari bilan yetimlarni himoya qilgani kabi, himoya qiluvchi hayvon jamoasining bunyod bo'lishi haqida so'zlagan edi-ku!. Nahotki, ularning o'rniga aql bovar qilmaydigan qatag'onlik voqealari ro'y berayotgan bo'lsa! Nahotki har bir hayvon erkin fikr yuritilmaydigan, har bir burchakni jallod boltasi kabi tishlarini ko'rsatib irrilayotgan itlar qo'riqlaydigan, anglab olishga aqlning kuchi yetmaydigan, qilmagan gunohlariga hayvonlarning o'zlari iqror bo'ladigan, hayvonlar do'stlarini ham sotib yuboradigan, har bir hayvon yaqinlaridan ham hadiksiraydigan zamon kelgan bo'lsa?!. Klovirning dilida isyonkorlik yo'q edi, qoni ham qasos o'ti bilan ko'pirmasdi. Cho'chqalarga bo'ysunmaslik haqidagi fikrlar o'yini ham yo'q edi. Hattoki hozirgi ahvolimiz Jounz davridagiga nisbatan va boshqa fermadagi hayvonlar ko'rayotgan kundan yaxshiroq o'yarlardi. Jounzning fermaga qaytib kelmasligi uchun xuddi shunday qonli voqealar zaruriyatidir deb o'yarlardi. Klovir "Hayvon ferma"sining g'oyalariga sodiq edi. Butun kuchi boricha jon-dili bilan ishlardi. Berilgan buyruqlarni so'zsiz bajarardi. Napoleonning rahbarligini to'laligicha tan olardi. Boshlariga eng og'ir kunlar tushgan paytlarda ham Klovir va boshqa hayvonlar kelajakka umid bilan qarab yashadilar va ishladilar, Jounz va odamlarning o'qlariga ko'ksilarini tutib berdilar, shamol tegirmonini ko'rdilar - hammasi bugungi ro'y berib turgan voqealar uchun emas edi. Klovirning boshida shunga o'xshash fikrlar g'ujg'on o'ynardi, lekin bularning hammasini ifodalash uchun so'zlar topa olmasa-da butun vujudi

bilan his etib turardi. Nihoyat, hamma-hammasini o'zida mujassam etuvchi "Angliya hayvonlari" qo'shig'ini boshlab yubordi. Boshqa hayvonlar Klovirga qo'shilishdi. Gimni uch marta qaytarishdi. Uni salmoq bilan kuylashardi. G'am-g'ussaga to'lib ketgan ovoz bilan kuylashdi. Ohangini haqiqiy san'atkorlar kabi joyiga qo'yib kuyladilar. Avvallari hech qachon bu qadar berilib kuylamagandilar. Qo'shiq uchinchi marotaba kuylanib tugashi bilanoq muhim bir fikrni aytmoqchi bo'lganday Skuiylir ikki it qorovulligida hayvonlarga yaqinlashdi. O'rtoq Napoleonning maxsus qaroriga asosan "Angliya hayvonlari" gimnining bekor qilinishi va uni kuylash ma'n etilganligini e'lon qildi. Hayvonlar taajjublanishdi.

- Nega? Nima uchun? - hayrat bilan so'radi Myuriel.

- O'rtoq, "Angliya hayvonlari" qo'shig'i hozirgi kunimizda biz uchun kerak emas, - dedi o'ta jiddiylik bilan Skuiylir. Bu gimnda qo'zg'alonchilar harakati ifodalangan edi. Qo'zg'alon amalga oshdi, maqsadlarimiz ro'yobga chiqdi. Sotqinlarning qatl etilishi bizning maqsadimiz yo'lidagi qilingan oxirgi va eng so'nggi harakat bo'ldi. Tashqi va ichki dushmanlarimiz mag'lub bo'lishdi. "Angliya hayvonlari" gimnida kelajakda bunyod etilishi kerak bo'lgan mukammal hayvonlar jamoasi ishtiyiqi ifodalangan edi. Hozirga kelib bizning orzularimiz amalga oshib, ana shunday hayvonlar jamoasi vujudga keldi. Ravshan ko'rinib turibdiki, endi bu gimn o'zini oqlamay qo'ydi. Hayvonlar nihoyatda qo'rqib turgan bo'lishlariga qaramay e'tiroz bildirishmoqchi bo'ldilar. Lekin odatdagiday, qo'ylar marashni boshlab yuborishdi: Ikki oyoqlilar - dushman, to'rt oyoqlilar - do'st". Qo'ylar marashni tugatishgandan keyin esa muhokamaga o'rin qolmagan edi. Bu voqeadan keyin "Angliya hayvonlari" gimni kuylanmadi. Uning o'rni shoir Minimosning:

Hayvon fermasi, Hayvon fermasi!

Mendan senga zarar yetmasin!

degan so'zlar bilan boshlanuvchi gimni yaratildi. Yakshanba kunlari ertalab "Hayvon ferma"si hovlisida bayroq baland ko'tarilganidan keyin shu gimn kuylana boshladi. Lekin hayvonlar nazarida uning so'zlari ham, ohangi ham oldingi gimnga teng kelolmasdi. Bu gimndan negadir hayvonlarning ko'ngli to'lmasdi.

VIII- bob

Bo'lib o'tgan voqealardan keyin bir necha kun o'tgach, hayvonlar bir oz o'zlariga keldi. Qonli voqealar dahshati ham unutilganday bo'ldi. Shundagina ularning eslariga dastlab chiqarilgan Qonunning oltinchi moddasi tushib qoldi. Oltinchi moddada "Hayvonlar bir-birlarini o'ldirmasin" deb yozilgan edi. Hayvonlar qatag'on voqealari Qonunga to'g'ri kelmasligini anglab turardilar. Lekin hech bir hayvonning ovoz chiqarib aytishga yuragi dov bermasdi. Klovir Qonunning oltinchi moddasini Benyamindan o'qib berishni iltimos qildi. Benyamin siyosiy voqealarga aralashishni xush ko'rmasdi. Ayniqsa, har xil uyushmalardan o'zini tortib yurardi. Shuning uchun Klovirning iltimosini bajarishdan bosh tortdi. Klovir Myurielni chaqirdi. U oltinchi moddani o'qib berdi: "Hayvonlar bir-birlarini sababsiz o'ldirmasinlar" deb yozilgandi. Negadir moddadagi "sababsiz" degan so'zning mavjudligi hayvonlarning xayolidan ko'tarilgan edi. Bu so'zning borligini hech eslariga keltirisholmasdi. Hayvonlar qonunning yodlashib olgan 6-moddasini "sababsiz" degan so'z bilan to'ldirish kerakligini tushundilar. Shundagina Snoubolga hamkorlik qilgan sotqin hayvonlarning o'ldirilishi qonunga zid emasligini anglash osonlashardi.

Bu yil o'tgan yildagiga nisbatan hayvonlar unumli ishladilar. Shamol tegirmoni devorlarini ikki barobar qalinlikda qaytadan tiklash ularning ishlarini ko'paytirib yuborgan edi. Qornilari hanuzgacha ovqatga to'ymasdi, doim och-nahor ishlardilar. Yakshanba kuni bo'ladiyig' inlarda Skuiylir uzundan uzun qog'ozni oyoqlari bilan ushlaganicha turli xil oziq-ovqatlarning 200%, 300% yoki 500%ga ko'paytirilganini o'qib eshittirar edi. Hayvonlarning boshlarini aylantirib yuboradigan adog'i ko'rinmaydigan raqamlarni keltirib fikrini isbotlardi. Hayvonlar bu ro'yxatlarga ishonardilar. Ishonmaslikka esa ularning asoslari yo'q edi. Chunki qo'zg'alongdan oldingi sharoitlar va yashash tarzi haqida aslo eslolmasdilar. Har holda u davrlarda oxiri ko'rinmaydigan va boshni g'ovlatib yuboradigan raqamlar bilan ifodalangan ma'lumotlar bo'lmasdi. Lekin yaxshi boqishardi.

Hamma buyruqlar Skuiylir va boshqa cho'chqalar orqali beriladigan bo'ldi. Napoleon bir haftada bir martagina hayvonlarga ko'rinardi. Endi itlar guruhining o'zi bilangina yurmasdi. Qotor boshida boshini g'oz ko'tarib harbiycha qadam tashlab borayotgan xo'roz ham bo'lardi. Napoleon so'zlashidan oldin xo'roz "ku-ku-rey-ku" deb tovushining boricha qichqirardi. Napoleon fermadagi uyida boshqa cho'chqalardan alohida yashardi. O'ziga xizmat qiladigan ikki it bilan birga mehmonxona shkafida turuvchi qimmatbaho va chiroyli idishlarda (u ovqatlanadigan servizning nomi "otlar musobaqasi" deb nomlanardi) ovqatlanardi.

Yil davomida "Hayvonlar fermasi" hovlisida uch marotaba katta yig'in o'tkazilib, osmonga qarab o'q uzilardi. Birinchi tantana Napoleonning tug'ilgan kunida, ikkinchisi esa qo'zg'along g'alabasi munosabati bilan o'tkazilardi.

Uchinchisida esa "Molxona janggi" g'alabasi nishonlanib, bayram qilindi. Napoleonga "bizning rahbarimiz va yo'lboshchimiz o'rtoq Napoleon" deb murojaat qilinadigan bo'lgandi. Kunlar o'tgan sari cho'chqalar Napoleonning "hayvonlar otasi", "insoniyatga dahshat soluvchi", "qo'yxona himoyachisi", "gudoklar do'sti" kabi sifatlarini kashf etardilar. Ayniqsa, Napoleonning donoligi, yuragining oliyjanoblighi, hamma hayvonlarga, boshqa fermalarda qullik va jaholat ostida yashovchi baxtsiz hayvonlarga bo'lgan chuqur muhabbati haqida Skuiylir ko'z yoshlarini oqizib, mehri jo'shib so'zlardi. Erishilayotgan muvaffaqiyatlar va bugungi ozod hamda baxtli hayot uchun Napoleonga minnatdorchilik bildirib, uni sharaflash odat tusiga kirib borar edi. Tovuuqlar o'rtoq Napoleon rahbarligida olti kunda beshta tuxum tug'dim deb g'urur bilan gapirardilar. Yoki sigirlarning hovuzdan suv ichib: "O'rtoq Napoleonga katta rahmat, suv juda shirin va rohat baxshida etadigan muzdek ekan, mazza qildik", - deb aytishganini eshitish mumkin edi. Fermadagi hayvonlarning Napoleonga bo'lgan umumiy munosabati shoir Minimosning "O'rtoq Napoleon" nomli she'rida quyidagicha ifodalandi:

Yetimlar otasi-yu baxtimiz quyoshisiz,

To'kin-sochin fermaning ishonchli posbonisiz.

Sizga tik qarab bo'lmas, nigohingiz kuydirar,

"Hayvon ferma" sining qudratli sarbonisiz,

O'rtoq Napoleon.!

Hayvonlarga borliqni o'zingiz berguvchisiz,

Rizqu ro'zin har kuni ulashguvchi o'zingiz,

Taglariga, hattoki, somonni solguvchisiz
Hayvonlar tinchligini qo'riqlovchi o'zingiz,
O'rtoq Napoleon!
Fermamizda yashovchi har bir cho'chqa bolasi,
G'oyangizni diliga quyib sodiq o'sadi.
Farzandlar orasida aslo bo'lmas olasi,
Go'daklarning dastlabki chiyillashi bo'ladi,
O'rtoq Napoleon!

Napoleon she'rni o'qib ko'rib juda xursand bo'ldi. Molxonaning devoriga yozilgan Qonun moddalarining ro'parasiga she'rni chiroyli qilib yozdirdi. She'rning tepasiga esa Napoleonning Skuiylir tomonidan oq bo'yoq bo'yoq bilan ishlangan portreti qoqildi. Napoleonning advakat Vimper orqali Fredrik va Pilkington bilan bo'lgan munosabati hanuzgacha noaniq edi. Fermadagi yog'ochlar hali ham sotilmagan, Fredrik ham, Pilkington ham tezroq sotib olish uchun harakat qilishardi. Fredrik va uning xizmatkorlarining vЉБHayvon fermavЉБksiga hujum qilish va shamol tegirmonini buzib yuborish uchun tayyorgarlik ko'rayotganliklari haqida habarlar bor edi. Napoleon Fredrikning vЉБHayvon fermavЉБksiga g'ayirliigi bor, shu sababli ham shamol tegirmonini vayron qilmoqchi deb o'ylardi. Snoubolning esa Pinchfiylid fermasida ekanligini bilishardi. Yozning o'rtalarida uch tovuq vahshiyona o'ldirildi. Ular Snoubol bilan yashirincha aloqa bog'lab uning topshirig'iga binoan Napoleonni o'ldirmoqchi bo'lganliklariga iqror bo'lishgan edi. Hayvonlar orasida shunga o'xshash vahimali gaplar yurardi. Napoleon hayotining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ehtiyot choralari ko'rildi. Tunda, Napoleon uxlagan paytlarda, to'rt it uyning to'rt tomonidan turib qo'riqlay boshladi. Yosh Pinkay nomli cho'chqaga bakovullik vazifasi yuklatildi.

Napoleonning Pilkington bilan yog'ochlarni sotishga kelishganligi ma'lum bo'ldi. Pilkingtonning ham Napoleon singari Foksvud fermasi bilan aloqasi yaxshi emas edi. Pilkington Napoleon bilan boshqa mahsulotlarni ham ayirboshlash rejasini tuzayotgan edi. Advokat Vimpir ular orasida vositachilik qilayotgan bo'lishiga qaramasdan o'zlarining oralarida bir-biriga nisbatan xayrixohligi ham bor edi. Lekin Pikingtin hayvon bo'lmaganligi sababli Napoleon unga to'liq ishonolmasdi. Fredrikdan esa qo'rqardi. Ayniqsa shamol tegirmoni qurilishi tugallanay deb qolganida Fredrikning yashirin hujumga tayyorlanayotganligi haqidagi xabarlar ko'payib qolganligi uni cho'chitardi.

Fredrik "Hayvon ferma" sig'a hujum qilish maqsadida 20 ta harbiylarni tayyorlayotganligi hamda fermaning vasiqasini qo'lga kiritish uchun shahar boshliqlari va politseylarni sotib olganligi ma'lum edi. Fredrikning hayvonlarga nisbatan qilayotgan rahmsizliklari haqidagi dahshatga to'lib-toshgan hikoyalari Pinchfiylid orqali yetib kelayotgan edi. Qarib qolgan otni urib o'ldirgani, sigirlarni och qoldirgani, itni pechkaga solib yoqib yuborgani, kechqurunlari xo'rozlarni urishtirayotgani va xo'rozlarning panjalari orasiga metaldan qilingan o'tkir tig'ni bog'lagani kabilarni eshitganlarida hayvonlarning qonlari qaynab ketardi. Ayniqsa, xo'roz urishtirilganida g'olib chiqqanining o'z mag'lubini o'ldirishi ularning nafratini oshirardi. Hayvonlar Fredrik fermasiga hujum qilib, insonlarni quvib yuborib, hayvonlarni ozod qilish uchun cho'chqalardan ruxsat so'rashardi. Skuiylir tezoblik qilishdan o'zlarining tiyishlarini maslahat berib, o'zlaricha harakat qilmasliklarini qayta-qayta ta'kidlardi.

Napoleonning harbiy tajribasiga suyanishga da'vat qilardi Fredrikka nisbatan hayvonlarning nafrati kundan kunga ortib borardi. Yakshanba kunlarining birida Napoleon ferma hovlisidagi yog'ochlarni Fredrikka sotish hatto xayoliga ham kelmaganligini aytdi. (Shu paytgacha Napoleonning keng fe'lligiga hayvonlar tan berishayotgan edi. Endi esa o'z dushmani bo'lgan Fredrik bilan ham yaxshi munosabatda bo'lishiga qoyil qolardilar.) Boshqa fermalardagi hayvonlarning qo'zg'alon ko'tarishlariga tayyorlash maqsadida kaptarlar safarbar qilindi. Ularning Foksvud fermasiga qo'nishlari ma'n etildi. Hayvonlarning "Insonlarga o'lim" degan shiori "Fredrikka o'lim" tarzida o'zgartirildi.

Yozning oxirgi kunlariga borib Snoubol tomonidan yetkazilayotgan zararlardan yana biri fosh etildi. Ekilgan bug'doylar yovvoyi o'tlar orasida qolgan edi. Snoubol tunda kelib, bug'doy urug'ini yovvoyi o'tlar urug'i bilan aralastirib quygani kashf etildi. Bu fitnaga aralashgan g'ozlardan biri aybiga iqror bo'lib, Skuiylir oldida zaharli mevani ogziga solib, o'z-o'zini o'ldirdi. "Hayvonlar Snoubolning 1 darajali "Qahramon Hayvon" ordenini olmaganligini hozir bilishadi,-dedi Skuiylir. Bu faqat Snoubolning o'zi tomonidan tarkatilgan mish-mish, safsata edi. Afsuski, ko'p hayvonlar bu yolg'onga ishonib qolishdi. Aslida Snoubol jangda qo'rqoklik qilgan edi. Xuddi shu sababli ham u qoralangan. O'rtoqlar, u hech qanday orden-porden olgani yo'q edi". Hayvonlar Skuiylirning so'zlarini sarosima bilan tinglardilar. Skuiylir Snoubolni eslab xato kilmaganligini sezdi. Ichki mag'rurlik bilan boshini yanada baland ko'tarib:

- Siz uning jangdagi haqiqiy xolatidan bexabarsiz. Shuning uchun ham yanglishasiz va uni qahramon deb o'ylaysiz,-dedi Ko'z kirib qolgan edi. Hosil yig'im-terimi hayvonlarning tinkasini kuritib borardi. Ish kaynagandan kaynardi. Shamol tegirmonining qurilishi asosan tugatildi. Lekin uni ishga tushirish uchun ayrim kerakli asboblarni sotib olish kerak edi. Vimpir bu masalada muzoqara olib borardi. Hayvonlar shamol tegirmonining qurilishida tajribasizlik qilib ibtidoiy qurilish asboblardan foydalangan edilar. Snoubol fitnalari tufayli ro'y bergan kungilsizliklarga qaramay ish muljallangan muddatda tugadi. Hayvonlar xoldan toygan edilar. Lekin ogyr mashaqqatlar va qiyinchiliklar evaziga erishgan mehnat maxsulini ko'rib kuvonardilar. Kungillari togday ko'tarilib ketgan hayvonlar o'zleri yaratgan ulkan asarlari atrofida qo'shiq aytib aylanishardi. Shamol tegirmoni ko'zlariga juda chiroyli ko'rinardi. Devorlari ham oldingisiga Karaganda ikki baravar kalin edi. Uni osongina vayron qilib bo'lmasdi. Endi uni bo'zish uchun portlatuvchi moddalar kerak edi.

Hayvonlar shamol tegirmonining gurillab ishlayotganligini ko'rganlarida boshlaridan o'tkazgan hamma qiyinchiliklarni unutdilar. Mashaqqatli mehnat va ishdan kungilni sovutadigan voqealar ustidan golib chiqqanlarini xis etib turardilar. Yuraqlari entika boshladi. Hayotlarida katta o'zgarish ro'y berganligini tushunib yetishdi. Hayvonlar shamol tegirmoni atrofida aylanib irgiy boshladilar, qo'shiqlar aytib, raksga tushdilar.

Napoleon itlar kurshovida, xo'roz boshchiligida bitkazilgan shamol tegirmonini kurish uchun keldi. Hayvonlarning erishgan muvaffaqiyatlari bilan shaxsan tabrikladi. Hamda shamol tegirmonini "Napoleon tegirmoni" nomi bilan yuritishni e'lon qildi. Oradan ikki kun utgach, hayvonlar molxona binosiga maxsus yig'ilish o'tkazish uchun chakirildi. Ferma hovlisidagi yog'ochlarni Fredrik sotib olganligini Napoleon e'lon qilganida hayvonlar xayron bo'lib qoldilar. Ertaga Fredrik yuborgan aravalar ularni olib ketishini ma'lum qildi. Napoleonning Pilkington bilan do'stligi majburiy do'stlik edi. Aslida Fredrik bilan yashirin kelishuvlari bor edi. Bu kelishuv Foksvud bilan bo'lgan munosabatni sindirgan edi. Pilkington haqida bir-biridan tashvishli axborotlar olib kelayotgan kaptarlarga Pinchfiylid fermasini tark etish buyrug'i berildi. "Freydrikka o'lim" shiori "Pilkingtonga o'lim" deb o'zgartirildi. Napoleon Fredrik tomonidan hujum uyushtirilayotgani va hayvonlarga nisbatan kilinayotgan vahshiyliklar haqidagi

xabarlarining asossiz ekanligiga bayonot berdi. Ularning Snoubol tomonidan tarkatilgan bulmagur ovozarlar ekanligini aytdi. Snoubolning Pinchfiyld fermasida yashiringanligi haqidagi xabarlarini tarkatish orqali Napoleon ma'lum maqsadni ko'zda to'g'andi. Aslida Snubol Foksvud fermasida boy-badavlat yashayotganligini bilardi. Uning ko'p yillar davomida Pilkingtonda pensioner bo'lganligi Napoleonga ma'lum bo'lsa-da, buni bilmaslikka olardi. Chunki fermaning xavfsizligi uchun shunday qilish zarurligini bilardi. Cho'chqalar Napoleonning uddaburonligidan xursand bo'ladirdilar. Napoleonning Pilkington bilan "do'st"ligi yog'och baxosini 12 funt sterlingga ko'targan edi. "Rahbarimiz o'rtoq Napoleonning ajoyib sifatlaridan biri, -dedi Skuiyir uning Fredrikka ham ishonmaganligididir". Fredrik sotib olayotgan yog'ochlar haqini chek bilan tulamokchi bo'ldi. Yog'ochlar uchun 5 funt pul birligidagi tulovni talab qildi. Fredrik bu pulni oldindan tulagan va pul shamol tegirmoni uchun kerak bo'ladidigan mexanizmlarni sotib olishga yetadigan mikdorda edi. Yog'ochlar aravalarga yuklanib, tezlik bilan olib ketildi. Fredrik bergan pulni yana bir bor tekshirib kurish uchun hayvonlar molxonaga yig'ildilar. Orden va medallari bilan kuksini to'ldirib olgan Napoleon jilmayib, ferma uyining oshxonasidagi chinni idishga solingan pul yoniga, somon ustiga chukdi. Hayvonlar oyoqlarining uchida yurishib, pulga yaqinlashdilar va qiziqish bilan unga tikildilar. Bokser burnini yaqinlashtirib pulni xidladi.

Uning nafasidan chinni idishga solingan pullar kimirlab ketdi. Oradan uch kun o'tgandan keyin hayvonlarni dahshatga soluvchi bir xabar tarkaldi. Advokat Vampir velosiped bilan gizillaganicha fermaga kirib ketdi. Shoshilganidan velosipedni yerga tashlab yuborib, shitob bilan Napoleon turgan uyga kirib ketdi.

Uning yuzlaridan qoni kochgan edi. Bir zum o'tmasdan Napoleonning bukiringan tovushi eshitildi. Vimper olib kelgan shum xabar hayvonlar orasida yashinday tarkaldi. Pul haqiqiy emas soxta ekan. Fredrik yog'ochlarni tekinga olib ketgan edi. Napoleon hamma hayvonlarni tezlik bilan yig'di. Fredrikni o'lim jazosiga hukm qilganligini bukirib e'lon qildi. Uning tiriklayin qo'lga olinib, kaynab turgan suvga tashlanishini aytdi. Napoleon hammani xushyor bo'lishga chaqirdi. Bundan yomonrok harakatlarga ham tayyor turishlarini buyurdi. Bu voqea Fredrik va uning ishchilari tomonidan har daqiqada boshlanib qolishi mumkin bo'lgan hujumdan darak berardi. Fermaning odamlar kirishi mumkin bo'lgan hamma joylariga korovullar qo'yildi. Napoleon Pilkington bilan yaxshi munosabat urnatish maqsadida maktub yozib kaptarlardan to'rttasini Foksvudga uchirdi. Ertasi kuni esa sahar payti "Hayvon fermasi" ga hujum qilinganligi haqida xabar keldi. Hayvonlar ovqatlanayotgan edilar. Qo'yilgan korovullar Fredrik boshlik odamlarning allaqachon panjarali temir dorvoznani ochib kirganliklari haqida xabar berdilar. Hayvonlar dadillik bilan qarshi hujumga otladilar. Lekin bu safar "Molxona janggi"dagi kabi g'alaba osonlik bilan kelmadi. Odamlar soni 15 ta bo'lib, ularning 6 tasining miltig'lari bor edi. Buning ustiga juda ham yaqin kelib qolishgan, ularni 50 metrcha masofa ajratib turar edi. Hayvonlar dahshatli o'qlarning tinimsiz chiyillashlariga bardosh berolmay qoldilar. Napoleon bilan Bokser zo'r berib hayvonlarni bir joyga yig'ishga harakat qilishardi. Lekin buning iloji yo'q edi. Hayvonlar orqaga chekindilar. Ulardan bir nechtasi yaralangan edi. Napoleon boshliq hayvonlar ferma binolari ichiga kirib yashirindilar. Ferma binolarining teshiklaridan odamlarni uzluksiz kuzatib turardilar. Butun ferma hovlisi, shamol tegirmoni hayvonlarning ashaddiy dushmanlari qo'lga o'tgan edi. Aqlli va dono hisoblangan Napoleon ham nima qilishini bilmay qoldi. U dumini dikkaytirib, tovush chiqarmay u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi. Foksvud tomonga g'azab bilan tikildi. Agar Pilkington va uning odamlari yordamga qo'l cho'zsa, ahvol o'nglanishidan umid qilsa bo'lardi. Lekin to'rt kaptar olib kelgan xat ko'ngildagiday emasdi. Unda shunday so'zlar yozilgan edi: "Siz shunga loyiqsiz. Sizga bu ham kamlik qiladi".

Fredrik va uning odamlari shamol tegirmoni yoniga to'planishdi. Ularni kuzatib turgan hayvonlarning yuraklari orqaga tortib ketdi. Odamlardan birining qo'lida misrang (lom), ikkinchisining qo'lida esa kuvalda bor edi. Ular shamol tegirmonining poydevorini buza boshlashdi. Hayvonlar umidsizlikka tushishdi. Napoleon esankirab qolgan hayvonlarga qarata:

- Dadil bo'ling, o'rtoqlar,-dedi. Shamol tegirmonini buzishga ularning kuchi yetmaydi. Axir devorlarini juda mustahkam qilib ko'rganmiz. Haftalab uringanlarida ham qo'llaridan hech narsa kelmaydi. Benyamin esa odamlar harakatiga qovoqlarini solib jiddiy tikilib turardi. Ikki odam qo'llaridagi misrang va kuvalda bilan shamol tegirmonining poydevori tagidan ochilgan teshikni kengaytirishdi. Benyamin sekingina tumshug'ini ko'tarib, boshini likillatdi. So'ngra o'ta xotirjamlik bilan:

- Nima qilayotganliklarini ko'rmayapsizmi?- dedi. Odamlar bir pastda ochilgan teshik ichiga portlatuvchi modda o'rnatishdi. Hayvonlar nafaslarini ichiga yutib, dahshat ichida kuzatardilar. Binolar ichidan chiqib, shamol tegirmonini saqlab qolishning esa hech iloji yo'q edi. Odamlar portlatuvchi modda qo'yilgan teshikdan yugurganlaricha uzoqlasha boshlashdi. Sal o'tmay quloqlarni qomatga keltiruvchi gumbirlagan tovush butun fermani larzaga soldi. Kaptarlar osmonga ko'tarildi. Napoleondan boshqa hamma hayvonlar dahshatdan yuraklarini hovuchlab, o'zlarini yerga otdilar. Boshlarini ko'targanlarida esa bahaybat qora bulut shamol tegirmonining ustini qoplab turardi. Esayotgan shabada qora bulutni surib yubordi. Hayvonlar ne ko'z bilan ko'rsinlarki, shamol tegirmoni o'z o'rnida yo'q edi. Hayvonlar g'azablaridan titrardilar. G'azab qasos o'tiga aylana boshladi. Qonlarida vahshiylik uyg'ondi. Kuchlariga kuch quvvatlariga quvvat qo'shildi. Sarosima ichidagi qo'rqoklik va umidsizlik orqaga chekindi. Odamlarning bu yovuz harakati ularning jonidan o'tib ketgan edi. Odamlarga bo'lgan nafrat qasos tuyg'usini alangalatib yubordi. Ular hech qanday buyruqni kutib o'tirmasdan odamlar ustiga tik bosib bora boshladilar. Boshlari ustida do'lday yog'ilayotgan o'qlarga ham qaramasdan oldinga intildilar. Qattiq va ayovsiz jang boshlandi. Insonlar hayvonlarni tinmay o'qqa tutardilar. Hayvonlar yaqinlashganda esa tayoqlari bilan urishar va og'ir etiklari bilan tepishardi. Bir sigir, uch qo'y, ikki g'oz jang maydonida halok bo'lishdi. Deyarli hamma hayvonlar yaralangan edilar. Hatto hayvonlar orqasida turib, buyruq berib turgan Napoleonning dumini ham o'q yalab o'tgan edi. Odamlar ham jiddiy talofot ko'rishdi. Bokser tuyoqlarining zarbidan uch kishining bosh suyaklari maydalangan edi. Sigirning shoxlari bir kishining qorniga kirib ketgandi. Jesiy va Blubelning o'tkir tishlari bir odamning shimini parchalab tashladi. Napoleonn qo'riqlab turgan itlarga to'siqlar orqasidan borib jang maydoniga kirishga buyruq berildi. Vahshiylik ketgan to'qqizta it odamlar ustiga tashlandi. Odamlar o'zlarini hayvonlar qurshovida ko'rib qo'rqib ketdilar. Fredrik o'z odamlariga jang maydonini zudlik bilan tashlab ketishga buyruq berdi. Odamlar hayotlarni saqlab qolish uchun har tomonga qarab qocha boshladilar. Hayvonlar katta yo'lga tutashib ketgan yaylovning oxiriga qadar ularni ta'qib qilib bordilar. Tikanli to'siqlar orasidan qochayotgan odamlarni tuyoqlari bilan tepdilar. Hayvonlar g'alaba qilgandilar. Lekin o'zlari ham haddan tashqari holdan toygan edilar. Hammalarining yaralaridan qon oqardi. Ferma yerlarini qizil qonlariga bo'yab, oqsagan holda orqaga qaytdilar. O'tlar ustidagi o'rtoqlarining cho'zilib yotgan murdalarini ko'rishib yuraklari ezilib ketdi. Ularning ko'zlaridan tinimsiz yosh oqardi. Yuraklarni o'rtab yuborgan bir zumlik sukunatdan so'ng qaytadan vayron bo'lgan shamol tegirmonining oldida to'xtadilar. Shamol tegirmonining kuli ko'kka sovurilgan, hayvonlarning mehnati zoye ketgan edi. Hatto poydevorlarining ham bir qismi buzilgandi. Kuchli portlash natijasida katta toshlar maydalanib sochilib yotar, go'yo shamol tegirmoni bu yerga qurilmaganday. Hayvonlar ferma binolariga yaqinlashganlarida jangda qatnashmagan (buning sababini hech bir hayvon bilmasdi) Skuiyir ularga peshvoz chiqib dumini likillatdi. U mamnunlik bilan jilmayardi. Ferma binosining yaqinida miltiq tovushi eshitildi.

Bokser buning sababini so'radi:

- G'alabamizni nishonlash uchun,-dedi Skuiylir.

- Qanday g'alabamizni, - hayratlandi Bokser. Uning tizzalaridan qon oqardi. Bir oyog'i ostidagi taqa yo'qolib, panjalari yirilib ketgan edi. Shu oyog'iga 12 ta o'q tekkan edi.

- Qanday g'alaba, o'rtoq Skuiylir?! - qayta so'radi Bokser.

- Dushmanni o'z yerimizdan, hayvon fermamizning muqaddas yeridan haydab yubordik. Bu, g'alaba emasmi, o'rtoq Bokser?!

- Lekin ular shamol tegirmonini yo'q qilib yubordilar. Biz ikki yil davomida shamol tegirmonini mashaqqat bilan tiklagan edik.

- O'rtoq Bokser, shamol tegirmonini yana qaytadan quramiz! Agar kerak bo'lsa 6 ta shamol tegirmonini bunyod qilamiz. O'rtoq, bugun biz qo'lga kiritgan g'alabaga to'g'ri baxo berolmayapsiz. Biz mana shu tuyoqlarimiz bilan bosib turgan yerimizni dushman bosib olgan edi. O'rtoq Napoleon rahbarligida biz o'z yerimizni qaytarib oldik. Ha, biz oldin egallab olgan mulkimizni qaytarib oldik, -dedi Bokser.

- Bu bizning g'alabamiz,-dedi Skuiylir.

Hayvonlar oqsaganlaricha ferma binolari yoniga yetib keldilar. Bokserga oyoqlarining go'shti ichidagi qolib ketgan o'qlar azob berardi. Shamol tegirmonini qayta tiklash oson emasligi ko'rinib turardi. Bokser o'zicha qurilishni boshlash uchun allaqachon tayyorgarlik ko'rardi. Bu tayyorgarlik azob, alam va oldinda qaytadan kutib turgan mashaqqatli mehnat qiyinchiliklarini his etish bilan qorishib ketgan edi. Uning yoshi bir joyga borib qolgandi. Bokser o'n bir yoshga kirganini, bo'rtib chiqqan muskullaridan quvvati ketganligini fahmlab qoldi. Ferma ustida baland ko'tarilgan yashil bayroqning yengil shabadada to'lqinlanib o'ynashi, yetti marta otilib havoni larzaga keltirgan o'q ovozlari hayvonlarga qaytadan kuch-quvvat ato etardi. Hayvonlarning tomirlariga qon yugurdi. Ular o'zlariga qaytadan jon kirganligini sezishdi. Ayniqsa, Napoleon jangda ko'rsatilgan jasoratlarni sharaflab ma'ruza qilganida buyuk g'alabani qo'lga kiritganliklaridan faxrlandilar. Urush maydonida jon bergan hayvonlar tantanali ravishda dafn qilindi. Tobutlar qo'yilgan aravani Bokser va Klovir tortib borishdi. O'rtoqlarini qabristonga olib ketayotgan hayvonlar oldida Napoleon borardi. Hayvonlar ikki kun motam tutishdi. Marsiyalar yaratishib, nutqlar so'zlashdi. Shahidlarni eslab, sharaflab osmonga o'q uzishdi. Tirik qolgan hayvonlarga ko'rsatgan jasoratlari uchun bittadan olma ulashishdi. Qushlarga ikki aksiyadan makka'o'xori, itlarga uchtadan pechen'e berishdi. Bo'lib o'tgan jangni вЪШShamol tegirmoniv Ёk janggi deb atashga qaror qilishdi. "Yashil bayroq" deb atalgan orden ta'sis etilib, uning birinchi nomzodi Napoleon bo'ldi. Urush munosabati bilan Napoleonga yana bir qancha orden va medallar berishdi.

Bir necha kundan keyin bayram kayfiyati so'ndi. Soxta pullar haqidagi bahslar unitildi. Hayvonlar cho'chqalar yashaydigan ferma uyi ostidagi ombordan viski yashigini topib oldilar. Bu yashikni oldin omborda ko'rmagandilar. O'sha tunda "Hayvon ferma"sidagi cho'chqalar yashayotgan uydan shovqin, baqir-chaqirlar, baland ovozlari, mast-alast aytilgan qo'shiqlar eshitildi. "Angliya hayvonlari" gimni so'zlariga boshqa ashulalarning so'zlari aralashirib aytilayotgan qo'shiqlarni eshitib hayvonlar ajablandilar. Taxminan soat 21.30 larda mister Jounzning eski shlyapasini kiyib olgan Napoleon binoning orqa eshigidan chiqib hovli atrofida yugurib, yana ichkariga kirib ketganligini ko'rishdi. Ertasiga ertalab fermani jim-jitlik qoplab oldi, cho'chqalardan birontasi ham ko'rinmasdi.

Soat to'qqizlar atrofida nihoyatda tashvishlangan Skuiylir sekingina yurib, ferma hovlisiga chiqdi. Uning ko'z ostlari osilib qolgan, dumining uchi yer ustida sudralardi. Hayvonlarni yig'ib Napoleon o'lim to'shagida yotganligini aytdi. G'am va iztirobga to'lgan tovushlar eshitildi. Bu xabardan hamma qayg'u tushgan edi. Napoleon yotgan uyning eshiklariga harbiy qorovullar qo'yildi. Hayvonlar oyoq uchida yurardilar. Ko'zlarida yosh bilan shivirlashib gaplashishardi. Agar rahbarlariga bir nima bo'lib qoladigan bo'lsa, ahvollari yomon bo'lishidan qayg'urishardi. Napoleonning ovqatiga Snoubolning zahar solganligi haqida ovozlari tarqaldi. Soat o'n birlar atrofida yer yuzidagi hayotning to'xtab qolishidan oldingi so'nggi harakat kabi Napoleonning yangi farmonini Skuiylir o'qib eshittirdi. U qo'vidagicha edi: "Spirtli ichimliklarni ichish qat'iy ma'n etilsin. Bu qonunga amal qilmagan hayvonlar o'lim jazosiga tortilsin".

Kechga borib Napoleonning ahvoli bir oz yaxshilandi. Ertasiga esa Skuiylir Napoleonning davo topayotganligi haqida xabar berdi. Kechqurun sog'lig'i tamoman yaxshilanib, Napoleon ishiga qaytdi va advokat Vampirning pivo tayyorlashga oid kitobni sotib olish haqidagi maslahatiga amal qilishga qaror qildi. Nafaqaxo'r hayvonlarning o'tlashlari uchun ajratilgan mevazordan keyingi kichkinagina yaylovni haydashga buyruq berdi. Yer charchaganligi tufayli almashlab ekin ekish zaruriyati tug'ilganligi bilan bu harakat asoslandi. Haqiqiy maqsad esa keyinroq hayvonlarga ma'lum bo'lib qoldi.

Bir kuni hech bir hayvon tushuna olmaydigan voqea ro'y berdi. Soat millari tunggi o'n ikkiga yaqinlashgan paytda ta'qillagan baland tovush eshitildi. Hayvonlar uxlab yotgan joylaridan otilib tashqariga chiqishdi. Tun sutdek oydin edi. Hayvonlar yotadigan bino eshigining to'g'risida, yetti modda yozilgan devor ostida ikkiga bo'linib ketgan narvon yotardi. Hushidan ketib qolgan Skuiylir esa shoti yonida chalqanchasiga ag'darilib yotardi. Uning yaqinida esa osma fonar va bo'yoq cho'tkasi solingan paqircha ag'darilgan, ichidagi oq bo'yoq yerga to'kilib ketgandi. Itlar darhol Skuiylir atrofini zanjirday o'rab olishdi. Skuiylir hushiga kelgach uni fermadagi uyiga olib borib qo'yishdi. Tumshug'ini ma'nodor qimirlatib, o'zini bilimdon sanab, bo'lgan voqeani tushunayotganday ko'rsatayotgan, aslida esa hech narsaga fahmi yetmaganday Benyamindan boshqa hech bir hayvon buning sirini anglay olmadi. Bir necha kun o'tgandan so'ng Myuriyel dastlab qabul qilingan yetti qoidani, so'ngra o'zgartirilib, oltitaga keltirilgan qonun moddalarini o'qib ko'rib ularning biri yana o'zgartirilganiga e'tibor berdi. "Spirtli ichimliklarni ichish ma'n etilsin" degan beshinchi moddaga unitib qoldirilgan so'z qo'shib yozilgan edi. Ya'ni: "Spirtli ichimliklarni ortiqcha ichish ma'n etilsin".

IX- bob

Bokserning yorilib ketgan tuyoqlarini davolash uchun ko'p vaqt kerak bo'ldi. G'alaba tantanalaridan keyin shamol tegirmoni qurilishi yana qaytadan boshlangan edi. Bokser esa bir kun ham qolmasdi. Davolanishdan bosh tortardi. Og'riqni bilintirmaslikka harakat qilardi. Kechqurunlari tuyoqlari zirqirab azob berardi. Klovir o't-o'lanlardan o'zi tayyorlagan malhamlarni qo'yib ro'molcha bilan tuyoqlari ostiga bog'lab qo'yardi. Hayvonlarning kovsh qaytarish yo'li bilan tayyorlagan dorilari ko'pam yordam bermayotgandi. Benyamin Bokserning ishga chiqmasdan oyoqlarini davolash kerakligini tinmay uqtirardi. Klovir ham:

- umr hayvonga bir marta beriladi. U abadiy emas,-deb qayg'urardi.

Lekin Bokser bu gaplarning birortasiga ham quloq solmasdi. Nafaqaga chiqqunga qadar shamol tegirmonining hech bo'lmaganda yarim qurilishini tugatish haqidagi fikri uni holi-joniga qo'ymasdi. "Hayvon ferma"sinin qonunlariga asosan cho'chqalar 12 yoshdan, otlar ham 12 yoshdan, mollar 14 yoshdan, itlar 9 yoshdan, qo'ylar 7 yoshdan, tovuqlar va g'ozlar 5 yoshdan nafaqaga chiqishardi. Nafaqa yoshlari nihoyatda g'amxo'rlik bilan belgilangandi. Lekin hech bir hayvon bunga amal qilmasdi. Mevazor

ortidagi kichkinagina yaylov haydalib, arpa ekilganidan keyin bu masala qayta-qayta muhokama qilindi. Yaylovning bir burchagiga to'siqlar qo'yildi. Bu yerda nafaqaga chiqishgan hayvonlar o'tlashi kerak edi. Otlarga belgilangan nafaqa besh funt makkajo'xori va qish oylarida esa 15 funt pichan miqdorida belgilangan edi. Bayramlar munosabati bilan bittadan olma va sabzi ulashilardi. Bokserning keyingi yili yoz oyida bo'ladigan tug'ilgan kunining o'n ikki yilligini nishonlash va nafaqaga kuzatish marosimi qiyinchilik kunlariga to'g'ri keldi. Hayvonlar hayoti juda og'ir edi. Bu yil qish ham xuddi o'tgan yilidagidek qattiq keldi. Yem-xashak yetishmasdi. Cho'chqa va itlardan boshqa hayvonlarga berilayotgan ulushlar kamaytirildi. Berilayotgan tegishlaridagi me'yoriy tenglik hayvonizm asoslariga yot ekanligini Skuiylir tushuntirib berdi. Hayvonlarning yashash sharoitlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar yetishmovchiliklar yo'qligini asoslash qiyin emas edi. Hozircha har bir hayvonning o'ziga mos keladigan ulushni olishlariga qaror qilindi. Skuiylir har doim kamaytirish haqida emas, moslash haqida gapirardi.

Hamisha beriladigan oziq-ovqatning Jounz davridagiga nisbatan mo'lroq ekanligini ta'kidlardir. O'tkir va keskir ovoz bilan statistik ma'lumotlarni o'qib, sulii, pichan, lovlagi kabi mahsulotlarning ko'paytirilganini, ish soatining qisqartirilganini, ichimlik suvlari sifatining oshganligini, o'rta umrning uzaygani, ko'p bolali hayvonlarning ortib borayotganligi, yosh bolalar o'rtasida o'limning kamaygani, hatto hayvonlar yotadigan supalardagi somonning ko'paytirilganligi, burgalardan azob chekishning kamayganligini hayvonlarga isbotlardir. Hayvonlar uning so'zlariga ishonishardi. Chunki Jounz va uning davridagi hayot ularning xayollaridan tobora ko'tarilib borayotgandi. Ammo hozirgi yashab turgan turmushlarining ham to'kin-sochin emasligini bilardilar. Och-nahorlik kechalari uyqularini qochirib yuborardi. Lekin, shubhasiz, o'tgan kunlar yomon edi. Bunga to'laligicha ishongan hayvonlar bugungi kunlaridan o'zlarida yo'q xursand bo'lardilar. Avvallari ular insonga qul bo'lishgan. Hozir esa ular ozod. Skuiylirning tushuntirishicha, oldingi va hozirgi hayot orasidagi farq yer bilan osmoncha.

Fermada qo'shimcha ovqatlanuvchilar ko'payib qolgan edi. Kuzda to'rt ayol cho'chqalar ko'payishdi, bir paytda bolalashdi. 31 yosh cho'chqani hayvon jamiyati boqishi kerak edi. Qora va tezak rangdagi xol-xol po'stinli yosh cho'chqalarning otasi Napoleon ekanligini bilish uncha qiyin emasdi. Napoleon "Hayvon ferma"sidagi yolg'iz to'ng'iz edi. Fermaning bog'ida maktab qurilishini boshlab yuborishdi. Qurilish uchun g'isht va yog'ochlar sotib olishdi. Maktab binosi bitgunga qadar yosh cho'chqalarni ferma uyining oshxonasida Napoleonning o'zi o'qitdi. Ular bo'sh vaqtlarida bog'ni aylanishardi. Boshqa hayvon bolalari bilan o'ynashlari taqiqlangan edi. Boshqa hayvonlar cho'chqalarni alohida izzat-hurmat qilishardi. Agar ular bilan duch kelib qolinadigan bo'lsa, albatta, cho'chqalarga yo'l bo'shatiladi. Bu hayvonlar orasida odatga aylanib borardi. Yakshanba kunlari hamma cho'chqalar dumlariga yashil lenta taqishardi. Bu ham odatiy holga aylanib qolgandi. "Hayvon ferma"sida erishilgan yutuqlar talaygina bo'lsa-da hanuzgacha puldan qiynalishardi. Maktab qurilishi uchun g'isht, qum, ohak sotib olishdi. Shamol tegirmonining asbob-uskunalarini sotib olish uchun esa yana pul jamg'arish kerak edi. Shuningdek, lampa moyi, otlarga shamlar, Napoleonning oshxonadagi stoli ustiga shakar (boshqa cho'chqalar semiz bo'lganliklari sababli shakar yeyishlariga ruxsat berilmasdi), miq, ip, ko'mir, har xil simlar, temir va pechen'e kabilarni ham sotib olish kerak edi. Pichan va kartoshkalarni bir qismi sotib yuborilgandi. Tuxum sotish shartnomasi haftasiga olti yuz donaga ko'paytirilgan edi. Shu sababli ham tovuqlar kamayib borardi. Bu yil tovuq boshiga bittadan jo'ja to'g'ri keldi.

Hayvon boshiga beriladigan ulushlar dekabr' oyiga kelib keskin kamaytirildi. Lampa moyini tejash uchun hayvonlar yashayotgan binodagi osma fonarlarni yoqish ta'qiqlandi.

Cho'chqalar kundan kunga to'lishib borishardi. Tashqi ko'rinishlaridan kamchiliksiz yashayotganga o'xshashardi. Fevralning so'nggi kunlaridan birida choshgohdan keyin shirin bir hid taraldi. Hayvonlar yaqin orada bunday havoda nafas olishmagan edi. Bu yoqimli hid Jounz davrida ishga solingan kichkinagina pivoxonadan kelardi. Bir hayvon bu pishirilayotgan arpaning hidi ekanligini aytdi. Hayvonlar buni ma'qulladilar va entikishib ochko'zlik bilan havoni ichlariga tortishdi. Jounz davridagidek "Hayvon ferma"da ham birinchi marotaba kechki ovqat uchun arpa bo'tqasi tayyorlanayotganligidan xursand edilar. Lekin bo'tqadan darak bo'lmasdi. Kelgusi yakshanba kuni esa arpalarning cho'chqalar uchun berilishi e'lon qilindi. Mevazor orqasidagi yaylov buzilib, allaqachon arpa ekilgan edi. Ulush sifatida har bir cho'chqa boshiga 1 paunt dan pivo berilayotgan va Napoleonning o'zi esa "ot poygasi" servizida 0,5 galling pivo ichayotganligi haqida xabarlar tarqaldi. Hayvonlar bo'lsa o'zining o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug' deb umid qilishardi. Qiyinchiliklar ko'p bo'lishiga qaramasdan, o'tgan kunlarga, qo'zg'alondan oldingi davrlarga qaraganda yaxshi kunlar kelganligidan xursand edilar. Tez-tez turli xil marosimlar o'tkazishib, qo'shiqlar aytishardi. Napoleon har haftada bir marta nishonlanishi kerak bo'lgan narsani o'ylab topardi va bayram qilishga buyruq berardi. Napoleonning maqsadi "Hayvon ferma"sining g'alabalarini tantanalarga aylantirib yuborish edi. Hayvonlar ishlarini tashlab bo'lsa ham harbiy namoishlarda ferma atrofida aylanishlari odatiy tusga kirib borayotgandi. O'tkaziladigan namoishlarda hamisha cho'chqalar oldingi safda bo'lishardi. Ulardan keyin otlar, so'ngra qo'ylar, bularning ketidan parrandalar joy olardi. Namoişni ikki tarafdan itlar qo'riqlardi. Hamma hayvonlarning oldida Napoleonning qora babaq xo'rozi qaddini tik tutib borardi. Bokser bilan Klovir esa tuyoq va shox rasmi tushirilgan "Yashasin, o'rtoq Napoleon" shiori yozilgan yashil plakatni ko'tarib namoishlardan o'tishardi. Bunday bayramlarda Napoleon sharafiga she'rilar o'qishardi. Skuiylir esa mahsulotlar ishlab chiqarish ko'payayotganligi haqida ma'ruzalar o'qirdi. Ba'zan osmonga o'q otishib salyot berishardi. Qo'ylar Napoleon tomonidan o'ylab topilayotgan bayramlarni orziqib kutishardi va namoishlarda sidqidildan qatnashishardi. Ba'zan cho'chqa va itlar namoishlarga kechikib kelishardi. Boshqa hayvonlar ularni kutib turishiga majbur bo'lardilar. Ayrim paytlarda ba'zi hayvonlar vaqt yo'qotganlari yoki sovqotib qolganliklari haqida shikoyatomuz gapirishsa, qo'ylarning "To'rt oyoqlilar - do'st, ikki oyoqlilar - dushman" degan marashlari dan so'ng jim qolishardi. Umuman, tantanalari nihoyatida yuqori kayfiyatda o'tkazilardi. Bunday paytlarda hayvonlar o'zlarini "Hayvon ferma"sining xujayinlari deb his etishar va bundan hayvon jamiyati g'oyalarning to'g'ri ekanligiga ishonchlarini ortardi. Bayram va bayramlarda o'tkaziladigan namoyishlar ularning ko'ngillariga taskin berib, "Hayvon ferma"sida yashayotganliklaridan qalblari g'ururga to'lardi. Kuylanayotgan qo'shiqlar, o'ylab topilgan bayramlarning tantanalari, Skuiylirning statistik raqamlar keltirilgan otashin nutqlari, miltiqlarning otishi, xo'rozlarning qichqirishi, bayroqlarning hilpirashlari ozgina muddatga bo'lsa ham qorinlarining ochligini unuttirardi.

Aprel oyida "Hayvon ferma"si Respublika deb e'lon qilindi. Yangi tashkil etilgan Respublikaning Prezidentligiga faqat bir nomzod Napoleon bir ovozdand saylandi. Shu kuni Snoubolning Jounz bilan hamkorlik qilganligi haqidagi yana yangi hujjatlar topilganligi e'lon qilindi.

Topilgan hujjatlarga asosan Snoubolning "Molxona janggi"da Jounz bilan hamkorlik qilganligi tasdiqlangan edi. Yana bir bor odamlar armiyasining rahbari bo'lganligi va "Yashasin, insoniyat!"deb jangga kirganligi hujjatlarda o'z ifodasini topgan edi. Napoleon tishlarini Snoubolning orqasiga botirganligini bir necha hayvonlar qayta-qayta eslashdi.

Yoz oyining o'rtalarida qo'zg'alondan keyin ko'rinmay ketgan Muso birdan yana paydo bo'lib qoldi. U hech o'zgarmagandi. Biror

joyda ishlamasdi. Shakarqand tog'i haqida oldingiday afsonalar so'zlardi. U to'ngakda o'tirib olib, qanotlarini qimirlatib-qimirlatib, soatlar davomida to'xtamasdan gapirardi. Uning atrofini hayvonlar o'rab olishardi. "U yerda, o'rtoqlar,- derdi kattakon tumshug'i bilan osmonni ko'rsatib va yuzlariga jiddiy tus berib, siz ko'rib turgan qora bulutlar ortida, u dunyoda hozir tortgan azoblarimizning rohatini ko'ramiz. Orom yurti deb atalgan joyda Shakarqand tog'i bor. Baland uchgan paytlarida hatto uning o'zi o'sha yurti ko'rganligi, Shakarqand tog'iga qanotlari tegay-tegay deganini aytardi. Hayvonlarning ko'plari unga ishonardilar. Bu yerda och-nahor tinimsiz mehnat qilinsa-yu, qayerdadir to'kin-sochinlik va farovonlik bo'lsa degan fikrlar hayvonlarning xayolidan o'tardi.

Cho'chqalarning Musoga nisbatan munosabatlarini bilish qiyin edi. Ular Shakarqand haqidagi aytilgan fikrlarning uydirma ekanligini aytishardi. Lekin shunga qaramasdan cho'chqalar Musoning "Hayvon ferma" sida qolishiga va hech qanday ish qilmasdan bir oz pivo ulushi olishiga ruxsat berishdi.

Bokserning tuyoqlari tuzaldi. U yanada qattiqroq ishlay boshladi. Hamma hayvonlar ham mister Jounz davridagiday qullar kabi ishlashardi, "Hayvon ferma" sida shamol tegirmoni qurilishidagi kabi bajarilishi kerak bo'lgan ishlar hali ham ko'p edi. Yosh cho'chqalar ta'lim oladigan maktab binosini qurib tugatish mo'ljallangandi. Qurilish mart oyida boshlanganiga qaramasdan hanuzgacha chala yotardi. Qorni to'yib ovqat yemayotgan hayvonlarning mehnat qilishlari borgan sari og'irlashardi. Bokser hech nolimasdi, qarib, belidan quvvati ketib borayotganligini sezdirmaslikka harakat qilardi. Xuddi yoshlardek zavq bilan mehnat qilardi. Faqat uning ko'rinishi bir oz o'zgargan edi. Terisining rangi oqishroq tusga kirgan, dumg'azalari esa ichiga kirib ketgan edi. Hayvonlar bahor kelishi bilan Bokserning yana to'lishib ketishini bashorat qilishardi. Lekin bahor oyi kelganida ham Bokser o'zgarmadi. Ilgargiday tosh konining tepasidagi nishoblikdan katta toshlarni sudrayotganida uning muskullari hozir ham bo'rtib ketardi.

Lekin kuch-quvvatidan ham ko'ra irodasiga suyanib ishlayotgani sezilib qolardi. Har doim "Men ko'proq va tezroq ishlashim kerak" degan fikr uni tinchlantirmasdi. Lekin tovushi chiqmasdi. Klovir va Benyamin sovuqdan ehtiyot bo'lishi kerakligini qayta-qayta uqtirishardi. Lekin Bokser har doimgiday e'tibor bermasdi.

Bokserning 12 yillik yubileyi yaqinlashmoqda edi. Lekin uning o'zi buni xayoliga ham keltirmasdi. Nafaqaga chiqqunga qadar yanada ko'proq toshlar yig'ib, shamol tegirmonining qurilishini tezlatishni o'ylardi. Yoz kunlarining birida shom payti Bokserning holdan toyib yiqilganligi haqidagi xabar keldi. O'zi yolg'iz shamol tegirmoni qurilayotgan maydonga katta toshlarni tepalikka sudrab olib chiqish uchun ketgandi. Tarqalgan xabar haqiqatdan to'g'ri bo'lib chiqdi. Kaptarlar Bokserning yiqilib yotganini va o'rnidan turolmayotganligi haqidagi xabar bilan kelishdi. Hayvonlarning yarmi shamol tegirmoni qurilishi tomon chopib ketishdi. Ne ko'z bilan ko'rsinlarki, shu qadar kuchli bo'lgan Bokser arava shotisining orasida boshini ko'tarolmay yotardi. Ko'zlari ochilgan holda qotib qolgandi. Sovuq ter badanidan suvday oqardi. Og'zidan qon sizardi. Klovir tizzalari bilan Bokserning oldiga cho'kkaladi.

Engashib turib:

- Bokser, ahvolingiz qalay? Nima bo'ldi, Sizga?!- deb so'radi.

- Mening hayotim oz qoldi. Juda ham oz qoldi,-deb javob berdi Bokser. U kuchanib zo'rg'a gapirardi. Shamol tegirmonining qurilishini, albatta, tugatasizlar deb o'ylayman. Anchagina tosh to'plandi. Mening nafaqaga chiqishimga hali bir oy muddat bor. Men o'sha kunga yetib boraman deb umid qilgandim. Benyamin ham qarib qoldi. Cho'chqalar ikkalamizni bir paytda nafaqaga chiqishimizga ruxsat berar deb o'ylayotgan edim. U menga hamxona bo'lardi.

- Cho'chqalarni yordamga chaqirib, bo'lgan voqeani Skuiylirga aytishimiz kerak,- dedi Klovir.

Hamma hayvonlar Skuiylir yashaydigan uyga shoshildilar. Bokserning yonida unsiz tovushini chiqarmay tikilayotgan Klovir va dumi bilan pashshalarni qo'riyotgan Benyamingina qoldilar. O'n besh minutlar chamasi vaqt o'tgandan keyin mehribon va shafqatli, hamma uchun g'amxo'r bo'lgan o'rtoq Napoleon fermaning eng sodiq ishchilaridan birining shamol tegirmoni qurilishida baxtsiz voqea ro'y berganligi haqidagi so'zlarini mayuslik bilan tinglayotgandi. Napoleonning sodiq ishchisi hayvonlarga Vilingdondagi shifoxonaga Bokserni davolash uchun yuborish tayyorgarligi allaqachon ko'rilyotganligini xabar qildi. Lekin o'zlarining eng yaxshi o'rtoqlarini inson qo'liga topshirish hayvonlarga yoqinqiramadi. Axir Moliy bilan Snouboldan boshqa hech bir hayvon ularning fermasidan ketmagan edi-da! Nahotki ularning kasal o'rtoqlari inson qo'liga tushsa! Bilib bo'ladimi, axir! Lekin Skuiylir Vilingdondagi hayvonlar tabibi Bokserni yaxshi davolashini tushuntirdi. Hayvonlar Bokser fermada yotib davolangandan ko'ra tabibning qo'lida sog'ayib ketishiga ishonidilar. Yarim soatlar muddatdagi vaqt o'tgandan keyin Bokser hayvonlar yordamida o'rnidan turdi. Oyoqlarini qiyinchilik bilan zo'rg'a bosardi. Oqsoqlanib Klovir va Benyamin somon to'shab tayyorlab qo'ygan joyga borib yotdi va ikki kun davomida bir joyda yotib qoldi. Cho'chqalar hammomdan topilgan pushti dorilarni Bokserga berishdi. Dorilar katta shishaga solingan edi. Klovir ovqatlanib bo'lishi bilanoq Bokserning oldiga borardi. Supasida yotgan Bokser bilan hasratlashardi. Benyamin esa pashshalarini qo'rib indamay o'tirardi. Bokser o'tgan umridan rozi ekanligini, qayta-qayta ta'kidlardi. Agar tuzalib ketsa yana uch yil yashashini bashorat qilardi. Nafaqaxo'rlarga ajratilgan katta maydonning bir burchagida osoyishta o'tkaziladigan kunlarga umid bog'lardi. Bu paytda o'qish va o'rganishga, o'z ustida ishlashga ko'p vaqt bo'lardi. Qolgan alifboning 22 harfini o'zlashtirishga imkoniyati topilishidan xursand edi.

Bo'lib o'tgan voqeadan bir necha kun o'tgandan so'ng kunduzi choshgohlarda usti yopiq ot arava Bokserni shifoxonaga olib ketgani keldi. Fermada Benyamindan boshqa hech kim yo'q edi. Hayvonlar cho'chqalar boshchiligida dalalarni yovvoyi o'tlardan tozalayotgandilar. Ular tovushining boricha hangrab chopib kelayotgan Benyaminni ko'rib xayron bo'ldilar. Umrlari bino bo'lib Benyaminning bu qadar hayajonlanganini ko'rmagan edilar, shunchalik tez chopishini ham bilmasdilar.

- Tezrok kelinglar. Ular Bokserni olib ketishayapti, - deya baqirardi Benyamin. Hayvonlar cho'chqalardan ruxsat so'ramasdan oq ishlarini tashlab ferma binosi tomon chopdilar. Haqiqatan ham hovlida tepasi yopiq ikki ot tortadigan arava turardi. Aravaning yon tomonida nimadir deb yozilgan edi. Arava tepasida esa mug'ombirligi yuzlarida shundoqqina bilinib turgan, boshiga qalpoq kiyib olgan aravakash o'tirardi. Bokserning somon to'shalgan supasi bo'shab qolgan edi. Hayvonlar arava atrofini bir zumda o'rab oldilar. Ular ko'z yoshlarini oqizib:

- Xayr Bokser! Xayr yaxshi boring!,-deb xayrlashishardi.

- Ahmoqlar, ahmoqlar,-deya chinqirdi tepsinib turib Myuriel kichkinagina tuyoqlari bilan yerni o'yganicha. Aravaning yoniga yozilgan so'zlarni ko'rmayapsizlarmi?!

Hayvonlar birdan aravadagi yozuvga qarashdi. Pashsha uchsa eshitiladigan jimlik cho'kdi. Myuriel arava yoniga yozilgan so'zlarni hijjalab o'qiy boshladi. Benyamin Myurielni turtib yuborib, uning yonboshida turib yozuvlarga tikildi.

Qabriston sukunati qoplagan havoda Myuriyelning tovushi hamma hayvonlarga eshitila boshladi:

- Alfred Simindz-ot qassobi va siranch qaynatuvchi. Hayvon terisini shiluvchi va suyak maydalovchi. Vilingdon. Bularning ma'nosini tushunayapsizlarmi?! Ular Bokserni qassobga berib yuborishayapti!
Dahshatli qichqiriqlar havoni larzaga keltirdi. Aravakash darhol bor kuchi bilan otlarga qamchi bosdi. Otlar jon-jahdlari bilan aravani tortib ketdi. Hayvonlar uning orqasidan baqirib-chaqirib yugura boshladilar. Klovir hayvonlar to'dasini yorib oldinga o'tib olgan edi. Otlar esa aravani yeldek uchirib borardi. Klovir uzun va kuchli oyoqlari bilan tezroq chopishga harakat qilardi.
-Bokser, Bokser, Bokser,-deb baqirardi Klovir. Aravaning orqasidagi kichkinagina derazadan Bokserning tumshug'i, burni ustidan to'g'ri tushgan oq chiziqlar va yuzi ko'rindi. Tashqaridan kelayotgan tovushlarga quloqlarini dikkaytirdi.
- Bokser,-deb baqirdi tovushining boricha Klovir. Aravadan tushing, tushing aravadan! Ular sizni o'ldirgani olib ketishyapti!
Hamma hayvonlar jo'rlikda:
- Aravadan tushing! Tushing aravadan,-deb baqirishardi.
Arava esa ulardan uzoqlashib borardi. Bokserning Klovir so'zlarini tushungan-tushunmaganligini bilib bo'lmasdi. Lekin bir zum aravaning orqa derazasida Bokserning yuzi yo'qolib, tuyoqlarining qattiq urilganligi eshitildi. Uning oyoqlari bilan tepinib aravadan chiqishga va yerga sakrashga harakat qilayotganligini hayvonlar sezishdi. Avvallari Bokser tuyoqlarining zarbi bunday arvani gugurt qutisiday titib yuborardi. Hozir esa qarib kuch va quvvatdan qolganligi sababli hech narsa qilolmasdi. Bir necha daqiqalardan so'ng tuyoqlarning tovushi pasaydi, so'ngra umuman eshitilmay qoldi. Hayvonlarning tarvuzi qo'tlig'idan tushib, xafsalalari pir bo'ldi. Endi aravani tortib borayotgan otlarga murojaat qila boshlashdi. Hayvonlar ularni to'xtashga da'vat etishardi:
- O'rtoqlar, o'rtoqlar,-deya boshlashdi ular. Sizlar o'z birodaringizni o'limga olib bormang!
Lekin itoatgo'y, egalarning buyrug'ini bajarishga o'rganib qolgan manqurt otlar quloqlarini dikkaytirib, qadamlarini tezlashtirdilar. Bokserning yuzi derazadan qaytib ko'rinmadi. Qaysidir hayvon aravaning oldiga o'tib temir panjarali dorvozani berkitish kerakligini aytdi. Lekin kech edi. Ot arava panjarali darvozadan o'tib, katta yo'lga chiqib olgan edi. Tobora ko'zdan yo'qolib borardi. Bokser "Hayvon ferma" sig'a qaytib kelmadi va uning taqdiri hayvonlarga noma'lumligicha qolaveradi. Uch kun o'tgandan keyin Skuiylir Vilingdondagi shifoxonada tabiblar imkoni boricha Bokserning davolagani lekin hech iloji bo'lmaganligi va hayotdan uning ko'z yumganligi haqidagi xabarni keltirdi. O'zi esa oxirgi daqiqalarda yonida bo'lganligini aytdi.
- Hayotimdagi eng musibatli voqea shu bo'ldi,-dedi Skuiylir ko'z yoshlarini oqizib. Men Bokserning oxirgi nafasiga qadar birga bo'ldim. So'nggi so'zlarini o'z quloqlarim bilan eshitdim. Bokser shamol tegirmonining ishga tushishini ko'rolmaganligidan afsuslandi.

-O'rtoqlar, Bokser vasiyat qildi va uni sizlarga yetkazishni iltimos qildi: Oldinga, o'rtoqlar! Qo'zg'alongning nomi bilan qasamyod qilib oldinga boramiz! Yashasin, "Hayvon ferma"si!. Napoleon har doim haqiqatni himoya qiladi. Yashasin, o'rtoq Napoleon! Ha, o'rtoqlar, Napoleonning oxirgi so'zlari shu bo'ldi.

Skuiylir so'zini tugatib, yer ostidan hayvonlarga sekin ko'z yugurtirdi. Hayvonlardan sado chiqmasdi. Uning ranggi o'zgarib, yuzlaridan qon qochdi. Ko'zlarining soqqasi aylana boshladi. Hayvonlar unga shubha bilan tikilishib, kallalarini likillatishardi. Skuiylirga ishonishmaganligi ko'rinib turardi. Skuiylir Bokser olib ketilayotgandagi voqealardan xabardor edi. Soyabon arava yoniga yozilgan "Ot qassobi" degan so'zlarni o'zlari o'qishib, Bokserni o'limga olib ketishgan deb xulosaga qilishgan bo'lsa kerak deb xayolidan o'tkazdi Skuiylir.

- O'rtoqlar, shu qadar sodda bo'lganingizga ishongim kelmaydi,- deb darhol so'z boshladi, axir men qanday qilib Bokserni ot qassobining qo'lga tutqazaman. Hamma uchun birday kuyinadigan rahbarimiz Napoleoni, nahotki, tanimay qolgan bo'lsangiz?! Dumini qimirlatib g'azab bilan turishlarini bir ko'z oldingizga keltiring. Rahbarimiz sizning xayolingizga kelgan buzuqlikka hech qachon yo'l qo'ymaydi.

- Yo'q, o'rtoqlar! Soyabon arava ot qassobidan sotib olinib, foydalanish uchun hayvon tabibiga berilgan edi. Yonidagi yozuv esa o'chirilmadan qolib ketgan. Bu esa sizning boshingizni aylantirib qandaydir shubhali xayollarga kelishingizga sabab bo'lgan. Hayvonlar Skuiylirning so'zlaridan bir oz yengil tortishdi. Ayniqsa, Bokserning dardini yengillatish uchun qilingan harakatlar, shaxsan, Napoleonning unga bergan e'tibori, sotib olingan qimmatbaho malhamlar va nihoyat, uning o'limi haqidagi mufassal ma'lumotni eshitganlarida gumonlari butkul tarqaldi. Bokserning ko'zlari yumilayotgan paytda Napoleondan, o'zining o'rtoqlaridan va o'tgan hayotidan rozi ekanligi haqidagi fikrlar hayvonlarni tinchlantirdi.

Napoleon keyingi yakshanba kuni katta yig'in o'tkazdi. Bokserning xizmatlari haqida ma'ruza qildi. Hayvonlar Bokserning jasadini olib kelishni so'rashdi. Napoleon buning iloji yo'qligini tushuntirdi va "Hayvon ferma"sidagi dafna daraxtidan qilingan gulchambarni Bokserning qabri ustiga qo'yib kelishga rozi bo'ldi. Bir necha kundan keyin esa Bokserni xotirlab ziyofat berdilar. Napoleon xotira ziyofatida so'zlagan nutqini Bokserning sevimli shiori bilan tugatdi va u "Men bugundan ko'ra ertaga yaxshiroq ishlayman", "O'rtoq Napoleon hamisha haq" degan shiorlarga hamma hayvonlarning amal qilishi lozimligini ta'kidladi. Bokserni xotirlash kunida Vilingdondan kelgan soyabon arava cho'chqalar turgan uy yonida to'xtadi. Aravakash taxtadan qilingan savatni ko'tarib ichkariga kirib ketdi. Kechqurun esa cho'chqalar yashaydigan uydagi shovqin-suron uzoq davom etdi. Hayvonlarning asabini qaqshatadigan qo'shiqlar aytili. Cho'chqalarning janjallashgani va soat o'n birlar atrofida oynaning singan tovushi eshitildi. Ertasi choshgohga qadar ferma uyining oldida hech bir cho'chqa ko'rinmadi. Kechga borib cho'chqalarning viskiga pul ajratganlari haqidagi xabar "Hayvon fermasi" bo'ylab tarqaldi.

X- bob

Oradan ko'p yillar o'tib ketdi. Yil fasllari ham bir necha bor o'zgardi. Hayvonlarning ham yoshlari o'tib qariy boshladilar. Umrlari oqar suvday tez o'tib ketdi. Klovir, Benyamin, Muso kabi cho'chqalardan boshqa qo'zg'alongdan keyingi kunlarni eslay olmaydigan yangi avlod vakillari voyaga yetdi. Myuriyel, Blubel, Jesiy va Pinchir dunyodan o'tgan edilar. Mamlakatning bir chekkasidagi ichuvchilarni davolovchi shifoxonada Jounzning ham joni uzildi. Hayvonlar Snoubolni unutgan edilar. Bokser ham yodlaridan ko'tarildi. Klovirning yoshi ham bir joyga borib, beso'naqay bo'lib semirib ketdi, qiyinchilik bilan o'rnidan qo'zg'alardi. Ko'zlari xiralashib, tinimsiz yosh oqadigan bo'lib qoldi. Nafaqaga chiqqaniga ikki yil bo'lgandi. Aslida nafaqa yoshiga kamdan kam hayvonlar yetib borardi. Fermaning bir burchagida nafaqaxo'r hayvonlarga ajratilishi kerak bo'lgan yaylov haqidagi gaplar eskirgandi. Napoleonning bir oyog'ini go'r tortib, ozib--quruq cho'p bo'lib qolgan. Vazni 24 tosh og'irligida edi, xolos. Skuiylirning esa semizligidan ko'zlari yumilib ketgandi. Qari Benyamingina oldingiday o'zgaray yurardi. Lekin tumshug'ining tepasiga tushib turgan sochlari och kul rangga kirgan, Bokserning o'limi juda qattiq ta'sir qilib xafaqon kasaliga muhtalo bo'lgandi. Fermadagi hayvonlar son jihatidan ko'paygan bo'lishiga qaramasdan qo'zg'alongdan keyingi dastlabki davrlardagi ko'payishga tenglashtirib bo'lmasdi. Ko'p bolali hayvon onalarga beriladigan imtiyozlar haqida ham kamdan kam eslanardi. Qo'zg'alongning dastlabki

kunlarida fermada bo'lmagan, voqealardan bexabar bo'lgan ko'plab hayvonlar sotib olingandi. Fermada Klovirdan boshqa yana uch ot bo'lib, ular jon-jahdlari bilan ishlashardi. Otlar alifbodagi "b" harfidan keyingi harflarni o'rganolmagandilar. Shuning uchun ham hayvonizm asoslari haqida aytilgan fikrlarni so'zsiz qabul qilishaverardi. Klovirda saqlanib qolgan o'z-o'zini va boshqalarni hurmat qilish, birodarlik tuyg'ulari boshqa otlarda ko'rinmasdi.

Fermada tashkiliy ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Pilingindan yangi yerlar sotib olinib ferma kengaytirilgan edi. Shamol tegirmonining qurilishi tugatilgan, shuningdek hozir fermada hosilni navlarga ajratib beradigan mashina ham ishlardi. Pichanxona va turli-tuman qo'shimcha binolar qurilgan edi. Advokat Vimper o'ziga yangi arava sotib oldi. Shamol tegirmoni hanuzgacha elektr quvvati olish uchun moslashtirilmagan, lekin makkajo'xori doni tortilib katta foyda olinayotgan edi. Hayvonlar ikkinchi shamol tegirmoni qurilishi bilan band edilar. Yangi qurilayotgan tegirmonning dinamolar yordamida ishlashini faxrlanib gapirishardi. Bir vaqtlar Snoubolning hayvonlarga bergan va'dalari, ya'ni elektr nurlari bilan yoritiladigan supalarga issiq va sovuq suvlar olib borish, uch kunlik ish haftasiga o'tish kabilar endi esdan chiqqandi. Hayvonlarning hashamli yashashlari hayvonizm asoslariga yot ekanligini Napoleon isbotlab bergan edi. "Barkamollik", - derdi Napoleon qattiq mehnat qilishda va kamtarona yashashdadir. Pulni me'yorida topish va uni sarflash, sodda yashashga intilish, ma'naviy yetuklikning belgisidir. "Hayvonlar ferma"si bir muncha boyigan edi. Cho'chqalar va itlar to'q yashardilar. Lekin boshqa hayvonlar hali qashshoq edilar. Balki cho'chqa va itlar haddan tashqari ko'payishib ketganligi uchun shunday bo'lgandir. Hayvonlar, cho'chqalar, itlar tinmay ishlashardi. Cho'chqalar va itlar o'zlari uchungina ishlashardi, jismoniy mehnat bilan shug'ullanishni istashmasdi, qora ishdan qochishardi. Skuiylir esa rahbarlik va tashkilotchilikning mashaqqatlari haqida gapirishdan tolmasdi:

- Cho'chqalar bajarayotgan ishlar boshqa hayvonlarning oyoqlaridan kelmasdi. Ma'lumotlari yetarli emas edi. Ko'pchilik hayvonlar o'qish va yozishni bilmasdilar. Cho'chqalar papka, referat, qaror, e'lon, majlis bayoni deb ataladigan, hayvonlarning tushunishlari qiyin bo'lgan ishlar bilan shug'ullanishardi. Bular juda katta mehnatni talab qilardi.

Aslida faqat pechkaga tutantirib qilish uchungina yaraydigan qog'ozlarning fermani rivojlantirishdagi ahamiyati haqida Skuiylir jo'shib gapirardi. Cho'chqalarning mehnati qorin to'ydirmas, ammo ularning ishtahalari karnay edi. Boshqa hayvonlarning turmush tarzi ham deyarli o'zgaragan edi. Hanuzgacha qorinlari ovqatga to'ymasdi. Somon to'shalgan supalarda uxlashardi. Ilgarigidek hovuzlardan suv ichishardi. Dalalarda quldek mehnat qilishardi. Qishda sovuqdan, yozda pashshalardan azob chekishardi. Ba'zi vaqtlarda yoshi o'tib qolgan hayvonlar o'tmishini eslashga harakat qilardilar. Jounzning quvilishdan oldingi va qo'zg'alondan keyingi dastlabki davrlardagi yashash sharoitlarini muhokama qilishardi. Lekin u vaqtlarda juda yosh bo'lganliklari uchun ko'p narsalarni xotiralarida saqlab qololmagan edilar. Ularni hozirgi hayotlari bilan solishtirmasdilar. Skuiylirning raqamlariga ishonishga majbur bo'lardilar. Hisob-kitoblarda esa fermadagi hamma sohalar bo'yicha o'sish haqida ma'lumot berilardi. Bu jumboqlar ustida astoydil bosh qotirishga hayvonlarning vaqti yetishmasdi. Faqat qarib qolgan Benyamingina uzoq umr davomida ko'rgan-bilganlarini esga tushira olardi. Hayvonlar hech qachon to'kin-sochin yashagan emas va yashamaydi deb o'ylardi u. Nazarida, ochlik va kasallik, mashaqqat va mehnat, alam va kulfat hayotning o'zgartirib bo'lmaydigan temir qonunlari edi. Shunday bo'lsa-da, hayvonlar umid bilan yashardilar. "Hayvon ferma"sinin a'zosi bo'lishning o'zi ularda bitmas-tuganmas faxr hissi uyg'otardi. Axir Angliyada, hattoki, yer yuzida hayvonlar boshqarayotgan ferma yagona edi-da. Bunday mag'rurlik fermaga yangi sotib olingan hayvonlar ko'nglini ham qamrab olgan edi. Mushak otib solyut berilganda, ferma ustida baland ko'tarilgan yashil bayroqning hilpirashlarini ko'rganlarida dillari yayrab, ko'ngillari quvonchga to'lardi. Bunday paytlarda, ayniqsa, qahramonliklar haqida gapirishni yoqtirishardi. Fermadan Jounzning quvilishi, Qonunning yetti moddasini devorga yozilishi, odam bosqinchilarning ayovsiz janglarda mag'lub etilishi haqida gapirardi Qari mayor va'da qilgan Hayvon Respublikasining barpo bo'lishi, Angliya yam-yashil yaylovlarning kelajakda inson oyog'i bilan toptalmaydigan kunlarning kelishi haqida hikoyalar to'qishardi. Ba'zida "Angliya hayvonlari" gimnini pinhona aytishardi. Fermadagi har bir hayvon buning uchun jazolanishini yaxshi bilardi. Shuning uchun ham ochiq-oydin kuylashga qo'rqishardi. Ular nihoyat hech qaysi orzulari amalga oshmaganligini, ahvollari boshqa fermadagi hayvonlarnikidan farq qilmasligini, och va qashshoqlik mustabid tuzumning natijasi ekanligini anglab yetdilar. Mehnat qilish o'zlarini qoniqtiradigan yagona manba bo'lganligini his etib turardilar. Lekin hech bir hayvon ikki oyoqlab yurib, boshqa hayvonlardan ajrab qolmadi, biri ikkinchisini xo'jayin deb atamadi. Hamma hayvonlar teng huquqli edilar.

Yozning dastlabki kunlaridan birida Skuiylir qo'ylarni ergashtirib fermaning qayinlar ekilgan qarovsiz maydoniga olib keldi. Qo'ylar Skuiylirning nazorati ostida kun bo'yi barglarni yedilar. Shom tushgandan keyin dalada qolishiga ruxsat berdi. Qo'ylar bir hafta dalada qolib ketdilar. Hech bir hayvon ularni ko'rmadi. Skuiylir esa ular bilan har kuni birga edi. ВЪНЬ Qo'ylarga yangi ashula o'rgatyapman. Buning uchun boshqa hayvonlardan ular ajratilishi kerak", -derdi Skuiylir. Qo'ylar yaylovdan fermaga qaytib kelganlaridan keyin esa g'aroyib hodisa ro'y berdi. Bu vaqtda hayvonlar ishlaridan qaytib kelib poxol solingan supalarda dam olishayotgan edi. Birdan otning g'ayri-tabiiy kishnagani eshitildi. Hayvonlar sarosimaga tushib qoldilar. Bu Klovirning tovushi edi. Uning kishnashi yana qaytarildi. Hamma hayvonlar ferma hovlisiga chopib chiqdilar. Ularning ko'zlari Klovirning dahshatga solgan voqeaga tushdi. Bir cho'chqa orqa oyoqlari bilan odamga o'xshab yurardi. Bu Skuiylir edi. Og'irligini ikki oyog'i bilan ko'tarib yurishga qiynalayotganligi uchun ayiqqa o'xshab talpanglab qadam tashardi. Bir ozdan keyin ferma binosidan ikki oyoqlab chiqayotgan cho'chqalarning qatori ko'rindi. Bir-ikki yosh cho'chqalardan tashqari hammalari arang yurishardi. Ularning ko'tarib olgan oldingi oyoqlariga hassa kerak edi. Lekin ular to'g'ri qadam tashlashga tirishanlaricha hovli atrofini aylanishardi. Nihoyat itlarning vovullashi, qora babaq xo'rozning baland qichqirig'i ostida Napoleon boshini tik ushlab, ulug'vorlik bilan ferma binosidan ikki oyoqlab chiqdi. Uning atrofini itlar o'rab olgan edi. Oldingi tuyoqlarining birida qamchi bor edi. Ferma hovlisiga dahshatli jimlik cho'kdi. Qo'rqib ketgan hayvonlar bir-birlarining pinjiga suqildilar. Titraganlaricha hovli bo'ylab marsh qilayotgan cho'chqalarni qo'rqa-pisa kuzatardilar. Ularning nazarida hayvonot dunyosi o'zgarayotganga o'xshardi. Bir oz vaqt o'tgandan keyin ularning qo'rquvlari chekindi. E'tiroz bildirmaslik ko'p yillar davomida ularning odatlariga aylanib qolganligiga qaramasdan, hatto itlarning dahshat solib turishlariga ham qaramay shikoyatga endigina og'iz juftlaganlarida qo'ylar marashib qoldi: "To'rt oyoq yaxshidir, ikki oyoq esa undan ham yaxshi." Qo'ylarning marashlari tugaguncha ancha vaqt o'tgan edi. Cho'chqalar ferma hovlisida ko'rinmasdi. Ular binolar ichiga kirib ketib bo'lishgandi.

Benyamin quloqlari ostiga urilgan issiq nafasni sezib orqasiga o'girildi. Yonida Klovir turardi. Klovir ko'zlarining nuri ketib, narsalarni g'ira-shira ko'radigan bo'lib qolgandi. Lom-mim demasdan Benyaminning boshidagi sochidan tishladi va unga ozor bermay molxona tomon boshladi. Ular qora devordagi oppoq harflar bilan yozilgan yozuvlarga tikilishdi:

- Ko'zim xiralashgani tufayli, -dedi Klovir, - o'zim yozgan yozuvlarni ham o'qishga ko'zim o'tmayapti. Benyamin, o'qib ko'ring-chi, Qonunning yettinchi moddasiga ham o'zgartirish kiritilganga o'xshaydi.

Benyamin avvallari biror marta ham o'qib ko'rmagan yozuvlarni hijjalab o'qiy boshladi: "Hamma hayvonlar teng. Lekin bir

hayvon boshqa hayvonlardan ustun." Devorda Qonunning bitta moddasidan tashqari yozuv yo'q edi Keyingi kunlarda esa fermani nazorat qilib yurgan cho'chqalarning tuyoqlarida qamchi ushlab, ikki oyoqlab yurishlari hayvonlarni ajablantirmadi. Cho'chqalarning radio sotib olishini, ferma binosiga telefon tushirishlarini, ro'znomalarga obuna bo'lishlarini odatdagi hol deb qabul qilishdi. Kechki ovqatdan keyin Napoleonning og'ziga trubkani solib, ferma bog'ining aylanishlari ham g'ayri tabiiy hol emasdi. Mister Jounzning kiyim shkafidagi qora charmdan tikilgan yengil kuzgi kiyimini (plash'ini) Napoleonning ustida ko'rganlarida ham, Napoleon eng yaxshi ko'rgan ayol cho'chqaning esa missis Jounzning bozor kunlari kiyadigan, ipakli matodan tikilgan ko'ylagini kiyganida ham hayratlanishmadi. Bir hafta o'tgandan keyin choshgoh bilan shom oralig'ida "Hayvon ferma"siga bir necha arava kirib keldi. Aravalarda qo'shni fermalardagi deputat-dehqonlarning o'zaro tekshirish brigadasi kelgan edi. Ularni "Hayvon ferma"si bo'ylab ekskursiya qildirishdi. Deputat-dehqonlar shamol tegirmonining gurillab ishlashidan juda zavqlandilar. Hayvonlarning dalalarda ter to'kib, astoydil mehnat qilayotganliklarini ko'rdilar. Hayvonlarning cho'chqalardanmi, odamlardanmi, ishqilib qaysi birlaridan hayiqib boshlarini ham ko'tarmay ishlayotganliklarini bila olmadilar. Kechga borib cho'chqalar yashayotgan ferma uyidan shovqin-suron va kulgi ovozlari eshitildi. Ular ashula aytishardi. Birdan hayvon tovushlari va odam so'zlarini qorishtirib gapirashayotganliklarini hayvonlar eshitishdi. Ular hayvonlar va odamlarning bir binoda bir uyda to'planishib xursandchilik qilishayotganliklarini birinchi marotaba ko'rib turishlari edi. Ichkarida qanday voqealar bo'layotganligiga aqllari yetmasdi. Ferma hovlisini o'lik chiqqan uydagi kabi jimlik qoplab olgan edi. Hayvonlar cho'chqalar yashayotgan uyni oldida to'xtadilar. Eshikni ochib kirishga botinolmadilar. Klovir eshikni oyog'i bilan itardi va ularni ichkariga boshladi. Hayvonlar tovush chiqarmaslik uchun oyoqlarining uchida yurib mehmonxona derazasi yonida to'xtashdi. Novcharoqlari esa deraza oynasidan qiziqib qaray boshladilar. Mehmonxona ichidagi uzun stol atrofida 6 odam-dehqon va 6 hurmatli cho'chqalar o'tirishardi. Napoleon stolning to'rida edi. Cho'chqalar stollarda qiynalmasdan o'tirardilar. Hayvonlar va odamlar aroq ichish oldidan aytiladigan so'zlarni (ular buni tost yoki qadah so'zlari deb atashardi) eshitish uchun karta o'yinini to'xtatgan edilar. Katta krujka davra bo'ylab aylanardi. Hayvonlar va odamlar oldidagi stakanlarni pivo bilan tez-tez to'ldirib turishardi. Ular hayvonlarning derazadan qarab turganligiga e'tibor bermadilar. Foksvud fermasining rahbari Pilkington qadah so'zini aytish uchun o'rnidan turib, stakanni qo'lida ushlab turardi:

- Hayvonlar va insonlarning bir-birlarini tushunishlari murakkab bo'lgan davrlar orqada qoldi,-deb so'z boshladi Pilkington,-bugun bir stol atrofida o'tirishimizni, o'ylaymanki, hamma mamnuniyat bilan tabriklaydi.

- O'tirganlarning birontasi bir-biriga dushmanlik qilish haqida o'ylagan emas. Faqat hayvonlarga qo'shnilari bo'lgan odamlarga bir oz ishonchsizlik bildirishdi. To'g'ri-noto'g'ri fikrlar, baxtsiz voqealar bo'ldi. Haqiqatan ham, cho'chqalar tomonidan boshqariladigan fermaning vujudga kelishi odatdagi voqealardan emas edi. Bu esa qo'shnilarda yomon taassurot paydo bo'lishiga oz bo'lsa-da ta'sir ko'rsatdi. Hozir ularning hammasi unitildi. Odamlarning "Hayvon fermasi"da bo'lib o'tgan voqealarni aniq bilmasdan turib turli mish-mishlar tarqatishganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Bunday safsatalarning tarqatilishi odamlarni ham, insonlarni ham bir oz chalg'itdi. Bugun esa hayvonlarning do'sti bo'lgan odamlar "Hayvon fermasi"dagi tartib-intizomni, yashash sharoitlarini o'z ko'zlari bilan ko'rdilar. Ishlab chiqarishga eng ilg'or usullar tadbiiq etilmagan bo'lsa-da, har bir fermaga ommalashtirilishi lozim bo'lgan namunali tartib va intizomga tan berdilar. Ayniqsa, "Hayvon fermasi"dagi past tabaqa hayvonlarning ko'p mehnat qilib, oz ish haqi olishlari biz uchun yangilik bo'ldi. Odam-dehqonlar o'z fermalariga tadbiiq etishlari mumkin bo'lgan yana ko'p ishlarning guvohi bo'ldilar.

O'rtoqlar, bugundan boshlab "Hayvon ferma"si qo'shni fermalar bilan do'stlik munosabatlarini o'rnatdi. Buni tabriklash kerak. Cho'chqalar va insonlarning qiziqishlari, maqsadlari va manfaatlari orasida hech qachon kelishmovchilik bo'lgan emas. Ularning intilishlari va kurashlari, fermani boshqarishdagi mashaqqat va qiyinchiliklari bir xil. Axir hamma fermalarda ham mehnat qilish muammolari bir xil yechiladi. To'g'ri emas-mi, o'rtoqlar. Pilkington muhim bir fikrni aytmog'chi bo'lganday yer ostidan o'tirganlarga bir-bir qarab chiqdi. Ichkilik va xursandchilik natijasida, bu fikrni aytish uchun qulay vaziyat yetilganligini his etdi. Qavat-qavat bo'lib osilib ketgan, uyni dimiqqan havosidan binafsha tusga kirgan bag'baqasini ayyorlik bilan silab:

- Agar sizlarda pastroq hayvonlar bo'lsa,-dedi u,-bizda pastroq sinflar bor. Uzun stol atrofida o'tirganlar kulishdi. Mister Pilkington "Hayvon fermasi"da ish soatlarining uzaytirilganligi va kam haq berilayotganligi hamda moddiy rag'batlantirishlarning yo'qligi bilan cho'chqalarni tabriklaydi. Hayvonlar va insonlar stakanlardagi ichimliklarni ko'zlari bilan kuzatdi, ularning to'laligiga ishonch hosil qilgach: "Janoblar,-dedi Pilkington,- "Hayvon ferma"sining gullab yashnashi uchun stakanlarimizni ko'taraylik.

Stol atrofida o'tirganlar "Hayvon ferma"sini va uning tashabbuslarini sharaflab oyoqqa turdilar. Napoleon juda xursand edi. O'rnidan turib stolning qarshi tomonida o'tirgan Pilkingtonning oldiga bordi-da qo'lidagi stakanini uning stakani bilan cho'qishtirdi. Ikki oyoqlab turgan Napoleon so'z aytmog'chi ekanligini bildirdi. Uning so'zlari har doimgiday qisqa va aniq edi. "Bir-birimizni tushuna boshlaganimizdan juda xursandman,-deb so'z boshladi. U g'oyaviy dushmanlarimiz tomonidan tarqatilgan ig'volar haqiqatan ham oramizga bir oz sovuqchilik soldi. Ular buzg'unchilik maqsadida inqilobiy g'oyalarni ommaga buzib yetkazmoqni niyat qilgandilar. Qo'shni fermalardagi hayvonlar orasida qo'zg'alon haqidagi haqiqatan yiroq bo'lgan noto'g'ri tushunchalarni uyg'otmoqchi edilar. Bizning asl maqsadimiz atrofimizdagi fermalar bilan qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish va tinchlikni saqlashdir. Men "Hayvon ferma"sining shon-shuhratini saqlash uchun hamisha kurashib keldim. Bu ishga bor umrimni bag'ishladim. Mening nomimdagi mulkka egalik guvohnomasi hamma cho'chqalarga tegishlidir, ya'ni mulk hamma cho'chqalarnikidir. Shubhaga o'rin yo'q. Bir-birimizga bo'lgan ishonch hamisha barqaror bulsin!"

Keyingi paytlarda ferma hayotiga juda ko'p o'zgartirishlar kiritilgan edi. Hayvonlarning o'zaro "o'rtoq" deb murojaat qilishlari yo'qotildi. Har yakshanba kuni ertalab yog'ochga mixlangan cho'chqaning bosh suyagi oldidagi tantanalar ham o'tkazilmaydigan bo'ldi. Bosh suyagini esa qaytadan dafn etishdi. Balki hurmatli inson mehmonlar ferma binosi ustida hilpirab turgan yashil bayroqdagi shox va tuyoq suratlarining ham yo'qligini sezishgan bo'lsalar, ajab emas. Mister Pilkington o'zining qadah so'zida fermaning nomini "Maner ferma"si degan nom bilan atadi. Mister Pilkington Napoleon mehmondorchiligida birinchi marotaba bo'layotganligi uchun ferma nomining o'zgariganligini bilmadi. "Hayvon ferma"si o'zining haqiqiy nomi в ЁъManer fermav Ёъ nomi bilan atala boshladi.

Napoleon. Stakanlarimizni pivoga to'ldiring! Mening maqsadlarim amalga oshsin! "Maner ferma"ning boyligiga boylik qo'shilsin!" O'tirgan hamma hayvonlar va insonlar yakdillik bilan Napoleonning so'zlariga qo'shildilar va stakanlarini bo'shatdilar. Tashqaridan, mehmonxona derazasidan qarab turgan hayvonlarning nazarida esa g'ayri tabiiy manzaralar ro'y berayotgan edi. Cho'chqalarning yuzlaridagi o'zgarishlar Klovirning diqqatini tortdi. Xiralashib qolgan ko'zlari bilan cho'chqalarning yuzlariga bir-bir qarab chiqdi. Cho'chqalarning tomoqlari tagidagi bag'baqalari osilib ketgan edi. Ularning ba'zilarida uch qator, ba'zilarida to'rt qator edi. Klovir, hayvonlar hayotida qanday o'zgarish ro'y bergan ekan-a, deb taajjublanardi.

This is not registered version of TotalDocConverter

Uzsmart.UZ tashqariga turgan hayvonlar va mehmonxonada bo'lgan karta uyini davom ettira boshladilar. Derazadan mo'ralab turgan hayvonlar tashqariga, ferma hovlisiga chiqdilar. Yig'irma metrlar chamasi masofaga yetib bormasdan taqqa to'xtadilar. Ferma uyidan janjallashib, bir-birini haqorat qilayotgan so'zlar eshitilayotgan edi. Hayvonlar orqalariga qaytishib yana mehmonxonada derazasidan ichkariga qarashdi. Cho'chqalar va odamlar janjallashayotgan edilar. Stolning mushtlari bilan urib, bir-birlariga baqirishardi. Bir-birlariga shubha bildirib, bir-birlarini inkor qilishardi. Napoleon va mister Pilkington karta o'yinidagi tuz qarq'ani talashayotgan edi. O'n ikkita ovoz baravariga g'azab bilan baqirardi. Hammalari bir xil edi. Cho'chqalarning yuzidagi ifoda bilan odamlarning yuzidagi ifodani farqlab bo'lmasdi. Mehmonxonada derazasidan qarab turgan hayvonlar cho'chqalarga, cho'chqalardan odamlarga, odamlardan cho'chqalarga, yana cho'chqalardan odamlarga tikila boshdilar. Ularni bir-birlaridan ajratib olish mumkin emas edi.

Tamom.